

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

JUMAYEV JONIBEK SHODIYEVICH

**« MUTAFAKKIR SAYID RIZO ALIZODA VA UNING UY MUZEYI
TARIXIDAN»**

**5A150204 – “Muzeysunoslik; konservatsiya va badiiy yodgorliklarni
saqlash” mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasini olish uchun**

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

**Ish ko'rib chiqildi va himoyaga Ilmiy rahbar: prof. I.Saidov
ruxsat berildi**

**“Tarixshunoslik va Manbashunoslik” kafedrası
mudiri dots. _____ Ergashev B.E.**

Prof. Sh.S. G'afforov _____

M.O'

S A M A R Q A N D – 2014

**MAVZU: MUTAFAKKIR SAYID RIZO ALIZODA VA UNING UY MUZEYI
TARIXIDAN.**

KIRISH.....	3-8
I-BOB. SAYID RIZO ALIZODANING YOSHLIGI, DASTLABKI ILMIY QADAMLARI.....	9-27
1.1. Sayid Rizo Alizodaning yoshligi.....	9-16
1.2. Dastlabki ilmiy qadamlari.....	17-27
II-BOB. SAYID RIZO ALIZODANING HAYOTI VA UNING ILMIY FAOLIYATI.....	28-62
2.1. Sayid Rizo Alizodaning jurnalistik faoliyati.....	28-33
2.2. Vatanparvarlik faoliyati.....	33-47
2.3. Sayid Rizo Alizoda hokining Samarqandga keltirilishi.....	48-62
III-BOB. SAYID RIZO ALIZODA UY MUZEYINING TASHKIL YETILISHI.....	63-81
3.1. Sayid Rizo Alizoda uy mo'zeyining tashqil qilinishi va yosh avlodni tarbiyalashda Sayid Rizo alizoda uy mo'zeyining ahamiyati.....	63-73
3.2 Sayid Rizo Alizoda ijodidan namunalar.....	73-81
XULOSA.....	82-83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	84-86

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz ilmiy salohiyatini oshirishda yuzlab fan fidoyilari, yuksak salohiyat sohiblari yurak qo'rini to'kib mehnat qildilar. Ularni unutib bo'lmaydi...Ana shunday barhayosiyimolardan biri ma'rifat darg'asi, olim, noshir, adib va tarjimon Sayid Rizo Alizodadir. Hyech shubhasiz uzoq va yaqin tariximizni o'rganib, undan xulosalar chiqara bilish biz uchun muhimdir. Zero prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda "Har bir millat, har bir xalq o'z nasl nasabini, kelajak avlodini asrab avaylab, uning qadrini bilsa unday millatning, unday davlatning kelajagi buyuk bo'lishi muqarrar"¹.

Keyingi yillarda ham alloma tavalludining 110, 115 yilliklari viloyatimizda keng nishonlandi. Respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali S.Alizoda hayoti va ijodiy merosiga oid biri-biridan o'qimishli maqolalar ye'lon qilindi. Bu maqolalar orqali XX asrning birinchi yarmida Turkiston va uning uzoq-yaqin sarhadlarida ilm, ma'rifat, ma'naviyat rivojiga salmokdi hissa qo'shgan, istiqlolimizning poydevoriga tamal toshini qo'yganlardan biri - Said Rizo Alizodaning hayoti va boy ilmiy-pedagogik faoliyati tadqiqotimizning asosiy vazifasidir.

Sayid Rizo Alizoda Samarkand shahrida hunarmand oilasida tavallud topgan. U 1905 yildan ye'tiboran keng ko'lamli - xalqaro ahamiyatga molik jurnalist sifatida tan olingan². Professor G'aybulloh as-Salomning guvohlik berishicha, bu komil va fozil inson asrimizning boshlaridayoq bosmaxonada oddiy harf teruvchilikdan-maktabdorlikkacha, mushiylikdan-muharrirlikkacha, lug'ashunoslikdan- shoirlikkacha, juda ko'p ilmu hunarni bilgan, yorqin iste'dod sohibi bo'lib tanilgan³. Sayid Rizo Alizodaning ilmiy-ommabop, publisistik maqolalari, she'rlari, feleton va pamfletlari "Turkiston xabarlari", "Buxoroi Sharif", "Turon", "Samarqand", "Telegraf xabarlari", "Sharq", "Hurriyat", "Mehnatkashlar tovushi", "Ovozi tojik", "Golos Samarkanda", "Proletar", "Zarafshon", Yeronda chop yetiladigan "Tarbiyat", "Ozod Yeron", "Sitorai Yeron", Turkiyadagi

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз-Т. 2000. 43-бет

² Файбуллоҳ ас-Салом. Эзгуликка чоғлан одамзод. Тошкент. 1997. "Шарк" нашр-матбаа концерни. 2- китоб..

³ История Самарканда. (Авторский коллектив) - Ташкент, 1970, т. II, с.86.

“Oqshom”, Ozarbayjondagi “Irshod” va “Iqbol”, Misrdagi “Chehranoma”, Qrimdagi “Tarjimon”, Qozondagi ‘,Bizning taush”, Hindistondagi “Hablul matn” kabi nufuzli matbuot nashrlarida, 1919 yilda o’zi (Samarkandda asos solgan birinchi oynoma - “Shu’lai inqilob”da chop yetib borilgan⁴.

Keyingi 45-50 yil ichida Sayid Rizo Alizodaning hayoti va boy ijodiy merosi xususida 6 risola, yuzlab maqolalar ye’lon qilindi, yuzga yaqin maqola va taqrizlarda, o’nlab teleko’rsatuv va radioyeshittirishlarda ye’tiborga loyiq fikr-mulohazalar bildirildi. S.Atabullayev 1976 yilda “Sayid Rizo Alizoda” deb nomlangan monografiyasini ye’lon qilib, bu sohaning kashshofi bo’ldi, S.Ojiyev Sayid Rizo Alizodaning ilmiy- iyedagogik faoliyati bo’yicha nomzodlik dissertasiyasini yoqladi. Samarqandlik tilshunos Hamdam Ne’matning S.Alizoda haqidagi bir qator maqolalari ilmiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olindi. So’nggi yillardagi izlanshnlr tufayli S.Alizodaning 500 dan ortiq asarlari MDH, va xorijiy mamlakatlarning nufuzli kutubxonalarida saqlanayotganligi ayon bo’ldi.

U “Nizomnoma”, “Qalam ahllariga da’vat”, “Risolatul Ittihodiya”, “Din vojiblari”, “Morosilot”, “Islom madaniyati” kabi risolalari, 1917-1920 yillarda o’zbek va tojik maktablari uchun nashr yetilgan “Alifbe” kitoblari, ikki qismdan iborat “Tojik tili grammatikasi ikki jildli “Ruscha-tojikcha mukammal lug’at” (S.Alizoda ushbu lug’atni tuzuvchilaridan biri bo’lgan), “Saodat asri” asari, o’sha davrning dolzarb muammolarini yoritib bergan maqolalari, hikoyalari, she’riy asarlari, serqirra tarjimonlik faoliyati, ma’rifat darg’asi sifatidagi xizmatlari bilan Mashriqu Mag’rib olamida Mashhur bo’lgan. Qolaversa 14 tilni mukammal bilgan bu benazir inson 1933-37 yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida arab va fors tillaridan dars berib, yuksak malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda ishtirok yettan⁵.

Sayid Rizo Alizoda ham F.Xo’jayev, A.Ikromov, A.Fitrat, A.Qodiriy, A.Cho’lpon, Usmon Nosir kabi xalqimizning asl farzandlari qatorida 30-yillar katag’onining qurboni bo’lgan. Keyinchalik yesa turg’unlik yillarining beparvoliklari tufayli bu asl insonning hayot yo’li va boy ijodiy merosini o’rganish “unutilgan”. Uning boy kutubxonasi talon-

⁴ Исмоилов Ф. Гулоб (Розовый напиток). - Тошкент: Ёш гвардия, 1982. 31-бет.

⁵ Хўжаев Эркин. Самарали йиллар ёғдуси. Самарқанд. 2001. 110 б.

taroj qilingan, ba'zi bir asarlari, xususan tarjima asarlari, nopok kimsalar tomonidan o'zlashtirilgan. Lekin shunday bo'lsada bu insonning munosib vorisi, uning boy ijodiy merosining asrab avaylab kelayotgan nevarasi Farxod Tog'iyevich Alizoda 50 yil davrmida bobosining sharaflari nomini va ijodiy merosini tiklash yo'lida zahmat chekdi. Bugun yurtdoshimiz Sayid Rizo Alizoda o'zining ikkichi umrini yashayapti.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach, hurmatli Prezidentimizning ichki va tashqi siyosat bobidagi donoligi tufayli mamlakatimiz jahon hamjamiyatidan munosib urini yegallab turibdi. Mustaqillik boisi Sayid Rizo Alizodaning porloq xotirasini abadiylashtirish, uning, boy, ijodiy merosini yosh avlodga yetkazish imkoniyati yaratildi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab Samarqand shahridagi uning nomini abadiylashtirish tadbirlari ko'rildi, allomaning hayoti va ijodini yoritish ishlari yo'lga qo'yila boshlandi. Samarqand shahridagi ko'cha va mahallaga uning nomi berildi hamda tavalludining 105, 110 va 115 yilliklari keng nishonlandi. 1991 yilning bahorida BMTning YuNESKO bo'limi tashabbusi bilan tashkil qilingan "Buyuk Ipak yo'li" xalqaro ilmiy yekspeditsiyasi Samarqandga tashrif buyurganida mazkur yekspeditsiyaning rahbarlaridan biri - tehronlik olim, doktor Nosir Takmil Humoyun Yeronda nashr qilinadigan nufuzli ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy o'ynomalardan biri - "Tarix va madaniyat" jurnalida Sayid Rizo Alizoda haqida katta maqola ye'lon qildi. Doktor Nosir Takmil Humoyun Sayid Rizo Alizoda asrimizning 20-yillarida o'zi asos solgan va bosh muharrir bo'lgan "Shu'lai inqilob" haftalik gazetasida o'sha davrning muhiti - ijtimoiy-siyosiy vaziyatni xolisona yoritib borganligini qayd yetib, uning "Inglizlar va islom dunyosi", "Turkiston - bizning Vatanimiz" maqolalaridan parcha keltiradi.

Sayid Rizo Alizoda "Inglizlar va islom dunyosi" maqolasida bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatini, xususan, Buyuk Britaniya davlatining razil maqsadini qahrg'azab bilan fosh yetadi: "...ingliz davlati insoniyat olamining dushmanidir. U zaif millatlarni qo'l ostiga olishni istaydi. Turkiyani bu qora kunlarga kim tushurdi? Yeron va Afg'onistonni kim oyoq osti qildi? Albatta, ingliz", deb o'z maqolasini tugatadi. O'rta Osiyo va Kavkazda chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini zimdan Ulug' Oktyabr inqilobi niqobi ostida olib borayotgan, bizning xalqimizga tenglik-ozodlik "ulashib", tez orada o'z va'dalarini unutgan Sho'ro hukumati va bolsheviklar

partiyasining rahbarlarini bunday maqoladan chuchishi tabiiydir. Chunki ularning asrimiz boshlaridan to 30-yillarga qadar Buyuk Britaniya bilan bu o'lkalarda o'z ta'siri va tizimini o'rnatish uchun talashib-tortishgani ko'pchilikka ma'lum⁶.

Sayid Rizo Alizodaning bunday talqini va tashviqoti uchun Buyuk Britaniya razvedkasining josuslari uning boshiga 50 ming funt sterling "mukofot" va'da qiladi⁷. Qismatni qarangki, Yerondan Samarqandga o'z hisobidan bosmaxona keltirgan, bir necha yillar davomida o'zbek va tojik maktablari uchun "Adifbe" kitobini yozib, nashr yettirib, maktablarga bepul tarqatgan, kambag'al mehnatkashlarning bolalarini bepul o'qitgan... pirovard natijada tirikchiligi-yu ro'zg'orini tebratishgayam ba'zan holi kelishmagan Sayid Rizo Alizodani 1937 yil NKVD organlari siyosiy chaqiruv asosida qamoqqa olib, "xalq dushmani", "ingliz josusi" deb ayblaydi. Natijada u 8 yil davomida Samarqand, Toshkent, Tobolsk, Vladimir shaharlaridagi qamoqxonalarda tutqunlikda saqlanib, 1945 yilda vafot yetadi⁸. 1986 yilda Sayid Rizo Alizodaning 100 yilligi oldidan, uning qabri Samarqandga ko'chirilib, hoki "Panjob" qabristoniga dafn qilindi. Doktor Nosir Takmil Humoyunning maqolasidan shu narsa ayon bo'layaptiki, Samarqandning faxri, Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan beri tinch-totuv yashab kelayotgan o'zbeklar, tojiklar, ozarboyjonlar, usmonli turk, afg'on va yeron fuqarolari uchun yeng so'nggi damlargacha yonib yashagan, Sayid Rizo Alizoda ikki o't orasida qolib, bir tomondan ingliz imperializmi, ikkinchi tomondan qizil imperiyaning qurboni bo'lgan. Ma'rifat darg'asi Sayid Rizo Alizoda "Oyina" jurnalining 3-sonida bosilgan "Maktab va madrasalar islohoti zarur" sarlavhali maqolasida "Hamma basirat arboblari oshkor va voze'durkim, har bir millat va har bir toifaning ravnaqi maktab siyosatining ravnaqi va islohotiga bog'liqdir", deb yozadi.

Sayid Rizo Alizodaning "Turkiston - bizning Vatanimiz" sarlavhali maqolasida bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan aytilgan shior - "Turkiston - umumiy uyimiz" g'oyasiga hamohanglik mavjudligi z'tiborlidir.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi. Tadqiqot davomida maxsus adabiyotlar, shu

⁶ Умиров Сайди. Солланиб оқаётган дарё. - Тошкент, "Фан" нашриёти 1992. 31 бет..

⁷ История Самарканда. (Авторский коллектив) - Ташкент, 1970, т.Н, с.87.

⁸ Файбуллох ас-Салом. Эзгуликка чоғлан одамзод. Тошкент. 1997. "Шарк" нашр-матбаа концерни. 2- китоб..

sohaga oid ko'pgina davriy matbuot materiallari o'rganiladi. Ular asosida Sayid Rizo Alizoda hayoti va ijodining hali ochilmagan qirralar o'rganiladi, tahlil qilinadi va shu asosda xulosalar chiqarilishi ko'zda tutildi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mustaqillikning birinchi yilidan boshlab, G'aybulloh hoji as-Salom (G'aybulla Salomov) rahbar bo'lgan ilmiy maktab Sayid Rizo Alizodaning xayoti va ijodiy merosini to'la tiklashga jiddiy kirishdi... Xususan, ushbu olimning Sayid Rizo Alizoda haqidagi "Uni og'o der yedilar", "Assalom, ahli zamona.," "Mavorounnahr farzandi" kabi turkum maqolalari,, "O'z vaqtida o'qilmagan marsiya", "Yey, metin qalb..." kabi she'rlari, S.Hayitov va M.Muqimovlarning "Alamli yillarning unsiz guvohi" ocherki, Saydi Umirovning "Fozil inson qissasi", S.Hayitovning "Alifbeni yaratgan ustoz", "Muallim ila muharrir millatning ikki qo'lidir", "Ro'yxatlarda yo'q yedi nomi..." kabi maqolalari respublikamizning turli gazeta va jurnallarida ye'lon qilindi. 1992 yilning 28 may kuni respublika oynai jahoni orqali "Oltin meros" ko'rsatuvida Sayid Rizo Alizoda tavalludining 105 yilligiga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi. Ammo shunday bo'lsada Sayid Rizo Alizodaning boy ijodiy merosi to'liq o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Tadqiqot predmeti. Sayid Rizo Alizoda hayoti, ijodi, u tomonidan yaratilgan darsliklar, qo'llanmalar, asarlar, publisistik maqolalar, allomaga bag'ishlab yozilgan turli xildagi maqolalar va monografiyalari va ulardan chiqarilgan xulosalar

Tadqiqotning metodlari. Dissertasiyada ilmiy bilimlarning obektivlik, sistemalilik, analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy o'rganish, tarixiylik va mantiqiylik, tizimli yondoshuv kabi metodlarga tayanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Ilmiy tadqiqotni yozishda o'rganilgan masalalarni baholashda, ilmiy xulosalarga kelishda, taklif va tavsiyalarni ilgari surishda respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov asarlari, nutq va suhbatlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi, tadqiqotning nazariy-metodologik asosini yesa tarixiylik, xolislik prinsiplari tashkil qiladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonning yangi tarixini yaratish to'g'risida"gi, 1996 yil 16 dekabr hamda "O'zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi va 1998 yil 23 iyul qarorlari dissertasiyaning

normativ, huquqiy asosini tashkil qiladi.

Ilmiy tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertasiyasi Prezidentimiz I. A. Karimov asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, fikrlar asosida yozilishi va beriladigan ilmiy xulosalar Sayid Rizo Alizoda faoliyatini o'rganishni yanada takomillashtirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Ilmiy tadqiqot ishining ishlab chiqarishga bog'liqligi. Ilmiy tadqiqot ishi shu sohaga doir turli muassasalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

I-BOB. SAYID RIZO ALIZODANING YOSHLIGI, DASTLABKI ILMIY QADAMLARI.

1.1.Sayid Rizo Alizodaning yoshligi.

Sayid Rizo Alizoda 1887 yilning 15 fevralida Samarqandda shoyibof Hoji Mir Maxsumning oilasida dunyoga keladi. Onasi Hadicha bibi Sayid Rizo ikki yoshga to'lganda olamdan o'tadi. Sayid Rizo chaqalok bo'lganida onalari kasal bo'lib, bolaga ko'krak suti bera olmay qoladi. Shunda chakalokni qo'shni Beshqayrag'och mahallasida yashagan Laylo bibi yemizib turadi. Bibining bu xizmatini Sayid Rizo unutmaydi, qamoqqa olinguncha unga yordam qo'lini cho'zib turadi. Ko'p o'tmay Sayid Rizo onadan yetim qoladi. Otasi mahallada yashaydigan Xayriniso ismli ayolga uylanadi va 1913 yilda olamdan o'tadi. Sayid Rizo olti yoshga kirganda uni madrasaga o'qishga qo'yadilar⁹. Otasi o'g'lining ilmga chanqoqligini va zehni o'tkirligini sezib, Madrasa mudarrislari oldiga borib: «O'g'limni yaxshi o'qitib, dunyo fanlaridan to'liq saboq beringlar, bu xizmatlaringizni yerda qoldirmayman», - deb iltimos qiladi. Sayid Rizo olti yil saboq olib, madrasani tugatadi. Otasi bergan va'dasini bajo keltiradi. Hoji Mir Maxsumning do'konxonasida adras, kimxob, shoyi, tusincha, beqasam va choyshablar to'qilar yedi. Bu mollarni do'konda sotish uchun ishonchli odam kerak yedi. Shuning uchun vaqtincha bo'lsa ham bu ish yosh Sayid Rizoga yuklangan yedi. Savdo ishi Sayid Rizoning ko'ngliga o'tirmasa-da, otasini xafa qilmaslik uchun rozilik beradi¹⁰.

Kunlarning birida dukonga bir rus ofiseri kelib, bu rang-barang matolarni zavq bilan ko'radi. Ko'p o'tmay Sayid Rizo yerda bir hamyon (portmone) yotganini ko'rib, uni ochib ichiga qaraydi. Qopchiqning ichi to'la pul yekanligini ko'rib cho'chidi. Darhol qopchiqni olib zobitning orqasidan yuguradi, chunki zobitdan keyin do'konga boshqa xech kim kelmagan yedi-da. Zobitga yetib olib, qopchiqni unga uzatadi. Zobit qopchiqni olib, undagi pulni sanaydi, rahmat aytib, qopchiq ichidan bir necha so'm pulni chiqarib bolaga uzatadi. Ammo Sayid Rizo pulni olmaydi. Shunda zobit Sayid Rizoni o'zi bilan boshlab borib, xizmat qilgan qismidagi komendantni chaqirib, bolani tanishtiradi va: «Qachon shu

⁹ Хўжаев Эркин. Самарали йиллар ёғдуси. Самарқанд. 2001. 114-бет.

¹⁰ Абдусаттаров С, Алескеров Ю.Н., Попов Г.В. Имя их-коммунисты. - Ташкент: Узбекистан, 1984, с. 141.

bola bizning qismimizga kelsa, ichkariga qo'yib yubor, u shu yerda xizmat qilayotgan askarlardan rus tilini o'rganmokchi», - deb ko- mendantga buyruq beradi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, bu zobit - polkovnik shu Samarqandda joylashgan yettinchi Simbirskiy polkining komandiri yekan¹¹.

Vaqt o'tishi bilan bir kuni otasi Sayid Rizoni uyga chaqirib: «O'g'lim, ishlar qalay? Savdo avj olayaptimi, qani, o'tgan oyda qancha mato sotdingiz», - deb so'raydi. «Ota, men matolarning deyarli hammasini nasiyaga berib yubordim», - deya javob beradi.

Unday bo'lsa aytingchi, kimlarga bergansiz? Ota, men ularning ismi-sharifini so'raganim yo'q- Qo'limizga pul tushsa, keltirib beramiz, deb matolarni olib ketishdi, - deydi u¹². (Bu saxiylik 1937 yilda Sayid Rizo turmadan yozgan xatida ham oshkor bo'lgan. U o'z xatida: «Men ko'p odamlarga pul qarz berganman. Shu pullarni qaytarib uyga keltirib berishdimi?» - deb so'raydi. Ammo bironta odam qarz olgan pulini keltirib bermagan.) Shunda otasi: «O'g'lim, sizdan mohir tojir (biznesmen) chiqmaydi. Siz o'zingizga boshqa hunar izlang», - deydi. Sayid Rizo bir dam o'yga tolib, ko'cha kiyimlarini kiyib, to'g'ri o'sha tanishi - rus zobitining oldiga boradi. Komendant Sayid Rizoni ichkariga olib kiradi. Shunda u un uch yoshga kiray deb qolgan yedi. Bola bir-ikki oy askarlarning oldiga kelib-ketib yurib, rus tilini ancha durust o'zlashtirib oladi.

Bir kuni Sayid Rizo polkovnikni garnizonda uchratib qoladi. Shunda unga murojaat qilib: «Sizdan iltimos, agar mumkin bo'lsa, biron ishga o'tishimga yordam bersangiz», - deydi. Zobit: «Qanaka ishni yoqtirasan?» - deb so'raydi.

Menga qolsa gazeta-jurnal chop yetiladigan idora bo'lgani ma'qul.

O'sha davrda Samarqandda bitta shaxsiy bosmaxona bo'lgan. U aka-uka Demurov-Sliyanovlarning bosmaxonasi yedi. Ofiser Sayid Rizoni shu bosmaxonaga harf teruvchiga shogird qilib ishga joylashtiradi. O'sha kundan boshlab (bu 1900 yilda bo'lgan yedi) Sayid Rizo rus, O'zbek, tojik, Ozar- boyjon, grek va boshqa millat vaqillari bilan tanishib, harf terish sirlarini yaxshi yegallab oladi. Shuningdek, rus tilini, boy tarixini va madaniyatini ham o'rganadi¹³.

¹¹ Ализода Ф. “Сайид Ризо Ализода” “Абу матбуот консалт” нашриёти. Тошкент 2011. Б 33

¹² Умиров Сайди. Солланиб оқётган дарё. - Тошкент, “Фан” нашриёти 1992. 33-бет.

¹³ Алескеров Ю.Н. “Инқилоб алангаси” –“Мухбир” журнали, 1977, №5, с.38-40.

Otasi un besh yashar Sayid Rizoni Mingtut mahallasidagi Shoyibof Hoji Fayzi boyning o'n turt yoshdagi yagona qizi Mo'mina xonimga uylantiradi¹⁴.

Bu nikohdan Sayid Rizo bilan Mo'mina xonim sakkiz nafar farzandli bo'lishadi. Biroq to'rttasi yoshlikda olamdan ko'z yumib, qolganlari uzoq yillar hayot kechiradi, bo'lardan bir o'g'il - otam Sayid Tagi va uchta qiz. Yillar o'tishi bilan Sayid Rizo Alizoda matbaa ishi bilan birga maorif ishi bilan ham shug'ullanadi. U yeski shahardagi Chorraha mahallasida boylarning farzandlari uchun ochilgan maktabga taklif qilinadi. Bu maktabni 1901 yilda Bag'dod (Iroq)dan vaqtincha oilasi bilan Samarqandga kelgan Al Ganji yoki Shayx Turk ochadi. Aslida u Ozarboyjonning Ganja shahridan bo'lib, Bokuda neft konlarida ishlagan. 1880-yillarda ishchilarning norozilik qo'zg'olonlarida ishtirok yetgani uchun Sibirga surgun qilingan. U surgundan qochib, Yeron orqali Bag'dodga keladi. Bag'dod madrasalaridan biriga - Bag'dod Nizomiyasi (akademiyasi)ga kirib o'qiydi¹⁵. Nizomiyani a'lo baholar bilan bitirib, u yerda tanishgan buxorolik do'sti Mashadi Kozimning iltimosi bilan Buxoroga yemas, Samarqandga keladi. Mashadi Kozim Bag'dod Nizomiyasida o'qib yurgan yillari ganjalik Abulqosim Oxunzoda bilan tanishib, do'stlashadi¹⁶.

Mashadi Kozim aslida Yeronning Mashad (Xuroson viloyati) shahridan bo'lib, katta boyning o'g'li yedi. Buxoro madrasasini bitirgandan keyin otasi o'qishni davom yettirishi uchun o'g'lini Bag'dodga yuborgan. Bag'doddan qaytgandan keyin Mashadi Kozim bir necha yil yana Buxoroda yashab, so'ngra oilasi bilan Samarqandga ko'chgan. O'sha davrda Samarqandda yeng chiroyli bino va bog' Mashadi Kozimniki bo'lgan. Oktyabr inqilobi va 1921 yilgi xarbiy kommunizm siyosati natijasida Mashadi Kozim shu yili Samarqandni tark yetadi. Bu inson xayoti alohida tarixiy kitob yozishga arziydi. Uning uy-joyi va bog'i hakida shoir Fayoz Xo'jandiy ham she'r yozgan va o'zining she'rlar to'plamida chop yettirgan. Hozirgi kunda uning hovlisi YuNESKO filiali joylashgan binodir¹⁷.

¹⁴ Носир Такмил Хумоюн. Марказий Осиёнинг курашчан олими (Борец и ученый Центральной Азии). — “Тарих ва маданият”. Техрон. 1993. № 8с. 13-47.

¹⁵ Ализода Ф. “Сайид Ризо Ализода” “Абу матбуот консалт” нашриёти. Тошкент 2011. Б 35

¹⁶ Умеров Сайди. Солланиб оқаётган дарё. - Тошкент, “Фан” нашриёти 1992. 35-бет.

¹⁷ Ализода Ф. “Сайид Ризо Ализода” “Абу матбуот консалт” нашриёти. Тошкент 2011. Б 35

O'zbek, tojik, ozarboyjon madaniyatining yirik arbobi, qomusiy olim, muallim, muharrir, publisist, tarjimon, aktyor, rejissyor, mutafakkir.

Tug'ilgan yili - 1887 yil 15 fevral, Samarqand.

Vafot yetgan yili - 1945 yil 24 dekabr, Vladimir shahri turmasi.

Vatani - O'zbekiston.

1938 yil 3 fevralda siyosiy chaquv natijasida hibsga olinib, 5 yil qamoq jazosi belgilangan. 1943 yil 4 fevralda qamok, jazosi tugasa ham sobiq ittifoq NKVD si urush oxiriga qadar saqlashga qaror qilgan.

1959 yilda begunoh qamalgani aniqlanib oqlangan¹⁸.

1986 yil 30 sentyabrda nevarasi Farhod Alizodaning ko'p yillik sa'y-harakati bilan hoki Samarqandga keltirilib, «Panjob» qabristoniga qayta dafn qilingan.

Otasi Hoji Mir Maxsum asli Nishopurlik, onasi Xadicha xonim ozarboyjonlik bo'lgan.

Sayid Rizo bolaligida madrasada o'qib, fors, arab tillarini mukammal o'rgangan¹⁹.

1900 yilda Samarqandda Demurov-Sliyanov bosmaxonasiga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi. Rus tilini, keyinchalik boshqa tillarni mustaqil o'rganishga kirishadi.

Zehni o'tkir Sayid Rizo jami 14 tilni bilgan. «Samarqand», «Zarafshon» gazetalarida, «Oyina» jurnalida O'zbek va tojik tillarida maqolalar chop yettirib turgan.

1915 yili «Sharq» gazetasiga muharrirlik qilgan. 1916 yili O'zbek va fors tillarida «Telegraf axboroti» - «Axboroti telegraf» varaqalarini o'z hisobidan chiqarib, shahar ahliga tarqatgan.

1917 yil «Hurriyat» gazetasida bo'lim boshlig'i, «Mehnatkashlar tovushi» gazetasida mas'ul kotib, tarjimon.

«Begiz», «Mashrab», «Mullo Mushfiqi» jurnallarida muxbirlik, tarjimonlik qilgan.

«Zarafshon», (Samarqand), «Buxoroi sharif», «Turon» (Buxoro), «Turkiston xabarleri» (Toshkent), «Irshod» (Boku), «Tarjumon» (Boqchasaroy, Qrim), «Bizning touch» (Qozon), «Ozod Yeron», «Stora Yeron», «Tarbiyat» (Yeron), «Chehranoma» (Misr) nashrlarida maqola, feletonlari bilan muntazam qatnashib turgan.

1919 yil aprel - 1921 yil dekabr - «Shu'lai inqilob» jurnali bosh muharriri, 4000 nusxada

¹⁸ Мухторов А. А. Убайдуллаев А. Асримизнинг кайноқ нафаси (Дыхание веков). - Тошкент: Ўзбекистон. 89- б.

¹⁹ Исмоилов Ф. Гулоб (Розовый напиток). - Тошкент: Ёш гвардия, 1982. 57-бет.

bosilgan ushbu jurnal Turkistondan tashqari Turkiya, Afg'oniston, Yeron, Hindiston, arab mamlakatlari, Ozarboyjon, Tataristonga tarqalgan.

1924 yil 24 avgust - «Ovozi tojik» gazetasi (Samarqand) asoschilaridan biri.

Kitoblari: «Nizomnoma» (1904) - musulmon urf- odatlariga bag'ishlangan.

«Risolatul yettihodiya» (1907) - musulmon xalqlarini birdamlikka, ittifoqlikka da'vat yetuvchi, aks holda g'arb davlatlari oyog'i ostida qolib ketishi mumkinligi xavfidan ogoh yetuvchi asar.

«Din vojiblari» (1914) - dinga oid asar.

«Birinchi yil» (1917) -o'zbek tilidagi alifbo.

«Soli naxustin» (1920) - tojik maktablari uchun alifbo.

«Sarfi nav» (1924-1925) - tojik tilida grammatika va sintaksis kitobi.

«Dabistoni tojik» («Tojik yozi») -o'qish kitobi.

«Ruscha-tojikcha lug'at» (1933-1934) - 2 jildlik, 61 ming so'zlik (Tahrir hay'ati a'zolari - R. Hoshim, A. Dehotiy, A. Ismoilzoda, S. Ayniy, R. Yusupov va boshqalar)²⁰.

Tarjimalari: O'zbek va tojik tillariga Pushkinning «Kapitan qizi», «Yevgeniy Onegin», «Dubrovskiy», «Belkin qissalari», «Bo'ron», L. Tolstoy, A. Chexov hikoyalari, Krilov masallari, Sinkler Yeptonning «Yuz foiz», Mopassanning «Do'ndiqcha», Molerning «Zo'raki tabib», Voynichning «Supa», Sholoxovning «Ochilgan qo'riq», Gladkovning «Sement», Ostrovskiyning «Pulat qanday toblandi» asarlari, shuningdek, «Algebra (Kiselyov)», «Arifmetika (Terenteva)», «Geografiya (Ivanov)», «Geometriya», «Botanika» darsliklari hamda A. Qodiriyning «O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlarini tojik tiliga o'giradi. 1922 yili Qur'oni Karimning ayrim oyatlarini fransuz tiliga o'girib, saboq bergan muallimasi orqali Fransiya yuborgan.

1922 yili Mir Muhammad Afg'oni Samarqandga kelib, sakkiz oy Sayid Rizo xonadonida yashab, yigirmaga yaqin qo'lyozmasini Afg'onistonga olib ketgan, keyin Amir Omonullaxon buyrug'i bilan o'sha paytlarda Hindistonga - tasarrufida bo'lgan Lohur shahrining «Panjob» nashriyotiga yuboradi²¹.

1923-1934 yillarda chop yetilgan kitoblari:

²⁰ Умеров Сайди. Самарқандлик мутафаккир. - "Хуррият" газетаси. Тошкент, 2008, 23 январь.

²¹ Мухторов А. А. Убайдуллаев А. Асримизнинг кайноқ нафаси (Дыхание веков). - Тошкент: Ўзбекистон. 89- б..

«Islom tarixi» -1, II jildlik.

«Madaniyati islom» -1, II jildlik.

«Shahodati nabavi» - payg'ambarimizga bag'ishlangan asar.

«Saodat asri» - Islom paydo bo'lgan asrni muallif shunday atagan.

Bartold - «Turkiston tarixi» (tarjima).

Xiva, Buxoro tarixi (tarjima).

Qaramzin - «Rossiya tarixi» (tarjima).

«Xitoy tarixi» (tarjima).

«Yaponiya tarixi» (tarjima).

«Koreya tarixi» (tarjima).

«Yevropa tarixi»: «Fransiya tarixi», «Angliya tarixi», «Italiya tarixi», «Ispaniya tarixi»,

«Portugaliya tarixi», «Isroil tarixi» - (tarjima). Germaniya tarixi.

«Fazo ilmi» (quyosh sistemasi) - mustaqil asar.

Moroselot (maktublar) tuplami.

Muallimlik faoliyati: 1906 yili Samarqandda yangi usuldagi maktab ochadi. Maktab uchun O'zbek tili, fors tili, arab tili grammatikasi, hisob, riyoziyot, handasa, tarix, jo'g'rofiya, fazo ilmi, aljabr, tibbiyot, jismoniy tarbiya buyicha 12 ta darslik tuzgan. 1909-1915 yillarda do'sti Halim Karimzoda hovlisida «Hayot», «Yangi hayot» maktablarini ochadi²².

Sayid Rizo Alizoda tavalludining 105, 110, 115, 120 yilliklari Samarqand shahrida o'tkazilgan. Nomiga ko'cha, maktab, mahalla qo'yilgan, uy-Muzeyi ochilgan.

Hayoti, ijodi haqida Farhod Alizoda, G'aybulloh as- Salom, Salohiddin Hayitov, Bekmurod Yo'ldoshev, Saydi Umirov, Farmon Toshev, Ubay Qodir, Sherali Turdiyev va boshqalar maqola, tadqiqotlar yozishgan. Solih Qosimov, Begali Kosimov, Naim Karimov, Yusuf Abdullayev, Nazira Abduazizova, Nusrat Rahmat, Ulug'bek Dolimov, Boybo'ta Do'stqorayev, Halim Sayidov, S. Odjiyev, Muntazama Zokirova, O'ktam Ibragimov, Faffor Mahmudov, Amrullo Ahmedov, G'ulom Ismoilov (shoir), Jumhur Ja'farov (alizodashunos), Nilufar Nomozova asarlarida ham ayrim ma'lumotlar bor. Pokiston, Yeron, Afg'oniston, Turkiya mamlakatlarida Sayid Rizo Alizoda ijodiga oid

²² Абдусаттаров С, Алескеров Ю.Н., Попов Г.В. Имя их-коммунисты. - Ташкент: Узбекистан, 1984, с. 137- 141.

kitob, maqolalar nashr yetilgan²³.

Ozarboyjonda Sayid Rizo Alizodaga hurmat, ye'tibor katta²⁴. Sayid Rizo Alizoda maqolalari bosilgan gazeta, jurnallar Rossiya (Moskva) Davlat (avvalgi Lenin nomidagi) kutubxonasida, Moskva yaqinidagi Ximki shahridagi arxivda, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin, Bokuda Mirzafat Ali Axundov nomidagi kutubxonada yaxshi saqlangan.

Pokistonda nashr yetilgan, Farhod Alizoda u yerga borib keltirgan kitoblarining asl va kseronushalari Farhod Alizodaning qo'lida saqlanmoqda.

Sayid Rizo Alizodaning yeng katta bobolari Og'o Mir Xuseyn Sabzavori 1730 yilda Yeronning Sabzavor shahrida tug'ilib, o'sha yerda olamdan o'tgan. U kishining o'g'li Og'o Mir otalari vafotidan keyin Nishopur shahriga ko'chib kelganlar va shu shaharda yashab olamdan o'tganlar. Mir Hasanning o'g'li Mir Sayid Ali otasi olamdan o'tgach, Nishopurdan Afg'onistonning Hirot shahriga ko'chgan. Hirotida bir necha yil yashab, keyin Buxoroga kelgan, bu shaharda bir muddat yashab olamdan o'tgan²⁵. Shundan keyin uning ikki o'g'li Hoji Mir Hoshim va Hoji Mir Maxsum onasi bilan Samarqandga keladilar. Bu ikki yigit shu shaharning ob-xavosi, yer-suviga maftun bo'lib, bu yerni o'zlariga abadiy vatan deb tan olishadi. Hoji Mir Hoshim 1909 yilda, Hoji Mir Maxsum yesa 1911 yilda Samarqandda olamdan o'tgan. Bular Samarqandning yeng qadim kabristonlaridan biri bo'lgan «Panjob» qabristonida dafn qilingan²⁶. Bu qabrlar hozir obod bo'lib, ziyoratgohga aylangan. Bu ikki yigit Samarqandni o'zlariga abadiy maskan deb tanlashiga bir qiziq voqyea sabab bo'lgan. Uning tarixi kuyidagicha.

Yigitlar Buxorodan Samarqandga 1879-1880 yillarda, shaharning yeng qadim mahallalaridan biri bo'lgan Sayidlar mahallasiga keladilar. Bo'larning qo'lida bitta samovar, shajara va bir bo'xchada kiyim-kechak bo'lgan. Bu yangi mehmonlarning xabari mingboshi Yeminbek To'qsobaga borib yetgan. Yeminbek filiga minib kelib, buxorolik mehmonlar bilan salomlashib ko'rishgan. Suhbat orasida yigitlar o'z ajdodlari shajarasini To'qsobaga ko'rsatgan. To'qsoba shajarani o'qib, bu ikki yigit payg'ambarimiz

²³ Хўжаев Эркин. Самарали йиллар ёғдуси. Самарқанд. 2001. 111-бет.

²⁴ Мухторов А. А. Убайдуллаев А. Асримизнинг қайноқ нафаси (Дыхание веков). - Тошкент: Ўзбекистон. 89- б.

²⁵ Умиров Сайди. Солланиб оқаётган дарё. - Тошкент, "Фан" нашриёти 1992. 32-бет.

²⁶ Хўжаев Эркин. Самарали йиллар ёғдуси. Самарқанд. 2001. 113-бет.

Muhammad (s.a.v) ning yettinchi avlodi Musoy Kozim sulolasidan dunyoga kelganligini bilib hayratga tushadi. Darhol o'z me'moriga topshiriq berib, bu yigitlarga yer ajratib, uy-joy qurib berishni topshiradi²⁷. Yigitlar qulluq qilib, qo'llarida olib kelgan sovg'a-salomni Yeminbek To'qsobaga berishadi²⁸. Bu voqeya yoz payti, ro'za oyida bo'lgan. Bir kuni yertalab yigitlar chodirdan saharlikka tursalar, samovar yo'q. Shunda Hoji Mir Hoshim uyquda yotgan ukasi Hoji Mir Maxsumga: «Tez tur, narsalaringni yig'ishtir, ketamiz», - degan. Mir Maxsum: «Nega, nima bo'ldi, aka?» - deydi. «Agar bizlarning molimizni o'g'irlasalar unda bizga bu shahar to'g'ri kelmaydi», - deb javob qiladi u.

Samovar yo'q, uni o'g'irlab ketishgan. Shunda qo'ni- qo'shnilar bu xabarni tez borib Yeminbek To'qsobaga yetkazganlar. To'qsoba piyoda chopib kelgan. Yigitlar onalari bilan yana Buxoroga qaytib ketishlari oldida Tuksoba ularni to'xtatgan. «Agar chiqib kesalaring shahrimizning obro'yi va Sayid mahallaning nomi bir pul bo'ladi. Sizlardan ta'zim qilib kechirim so'rayman, menga ikki soat muhlat beringlar, samovaringizni toptirib beraman», - deydi. Shunda onalari o'g'illariga qarab: «Sabr yaxshi narsa, ming-boshini xafa qilmanglar», - deb bolalarini ko'ndiradi. Ko'p o'tmay samovar topiladi. Shu tarika ular Samarqandda yashab qolishadi.

Sayid Rizo Alizoda Buxoroda chiqadigan «Buxoroi Sharif» va «Turon» gazetalarida hamda butun Sharqqa mashhur bo'lgan, o'zi tashqil yetib, muharrirlik qilgan, fors tilidagi «Shu'lai inqilob» jurnalida Buxoro hayoti va uning ming yillik tarixiga bagishlab yozgan Maqolalari hozirgacha xalq orasida, ma'raka-mavludlarda tilga olinadi²⁹.

1918 yilda Stora (yulduz) Sayid rizo Alizodanining (o'sha yillarda Buxoroda Sayid rizo Alizodani shunday deb atar yedilar) «Buxoro, uygon!» deb amirga qarshi yozgan Maqolalari yosh buxoroliklarni katta rag'batga solgan. Hatto Fayzulla Xujayev Samarqandga borib, Sayid Rizo Alizoda bilan uchrashib o'z minnatdorchiligini bildirgan³⁰.

²⁷ Абдусаттаров С, Алескеров Ю.Н., Попов Г.В. Имя их-коммунисты. - Ташкент: Узбекистан, 1984, с. 137.

²⁸ Мухтаров А. Сайид Ризо Алиходани эслаб (Вспоминая Саид Ризо Ализаде). - «Ленин йўли» газетаси, 1977,29 март.

²⁹ Ализода Ф. «Сайид Ризо Ализода» «Абу матбуот консалт» нашриёти. Тошкент 2011. Б 31

³⁰ Абдусаттаров С, Алескеров Ю.Н., Попов Г.В. Имя их-коммунисты. - Ташкент: Узбекистан, 1984, с. 138.

I. 2. DASTLABKI ILMIY QADAMLARI

Shayx Turk Sayid Rizo Alizodani o'z maktabiga dars berishga taklif qiladi. Sayid Rizo unga: «Men fakat yo'qsillarning farzandlarini o'qitishga roziman», - deydi. Shu bilan u Shayx Turkning maktabida 3-4 yil kambag'allarning bolalariga ta'lim-tarbiya beradi. Ammo Bog'ishamoldan yeski shaharga borib o'qish kiyin bo'lgani uchun Bog'ishamol mingboshilaridan bo'lgan Hoji Mo'min Avazmuhammad o'g'li Sayid Rizo Alizodani o'z uyiga taklif qilib: «Og'o, bizning Bog'ishamolda bironta ham maktab yo'q, bolalarimiz Chorrahaga borib o'qishga qiynalyapti, agar rozi bo'lsangiz shu maktabni Mingtutga ko'chirsak, bu Bog'ishamolning o'rtasi», - deydi.

Bu taklifingiz ma'qul, ammo bu atrofda maktab yo'q, - deb javob beradi u.

Shunda Hoji Mo'min bobo maktabni men o'z bog'imda qurib, jihozlab beraman, deydi. Ko'p o'tmay 1906 yilning kuzida yangi maktab qurilib, ishga tushadi³¹. Maktab o'sha davrning talablari asosida jihozlanadi. Bu yangi maktabning ochilishi munosabati bilan shahar va uning atrofidagi tuman hamda qishloqlardan tabriklashga ko'p odamlar keladi. Hatto bu maktabning ochilishi munosabati bilan Mahmudxo'ja Behbudiy kelib, yangi maktabga katta globus hadya qiladi³². Maktab direktori Sayid Rizo Alizoda o'quvchilarning ota-onalari hamda uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar oldida so'zga chiqib shunday deydi:

Bizning «Maktabi islomiya»mizda o'quvchilar dini islom taraqqiyotidan tashqari dunyoviy ilmlardan ham voqif yetiladilar, o'quvchilar 4-5 yildan keyin puxta ilmga yega bo'ladilar. So'ng u bolalarni muallimlar bilan birma-bir tanishtiradi. Muallimlar orasida Shayx Turk yoki Abulqosim Ganjaviy, Mirzo Muhammad Oxunov, Mirzo Aslamxon, Mullo Halim Karimzoda, Og'omali o'g'li, Sayid Ja'far Aliyev, To'raqul va boshqalar bor yedi. Mingtutda ochilgan yangi usuldagi bu maktab shahardagi yeski usuldagi maktabdan ta'lim- tarbiyada keskin farq qilardi. Sababi, Abo'lqosim Ganjaviy avval Ozarboyjonda, so'ngra Bag'dodda olgan ta'limini Bog'ishamol maktabida yo'lga qo'ygan yedi. Bu sohada u Sayid Rizo Alizodaning ustози yedi, desak xato bo'lmaydi. Shuning uchun u

³¹ Алескерев Ю.Н. “Инқилоб алангаси” –“Мухбир” журнали, 1977, №5, с.38-40.

³² Мукимов М. Тонгга талпиниб (Тянулся к свету). - “Ленин йўли” газетаси, 1985, 5 май.

tezda ota-onalarning diqqatini jalb yetadi. S. Alizoda otasining maslahati bilan «Maktabi islomiya»da muallimlik qilgan davrdan uning ma'rifatparvarlik faoliyati boshlanib, to umrining oxirigacha davom yetdi. Sayid Rizo Alizoda hamda Mullo Halim Karimzoda yaxshi o'qituvchilar sifatida xalq ichida katta hurmat qozongan yedilar. Alizoda yigirmadan ziyod kambag'al bolalarni o'z vasiyligiga olib, ularga arziyas maoshidan o'quv qurollari, ayrimlariga yesa oziq-ovqat va hatto kiyim-kechaklar ham sotib olib berardi. Bundan tashqari, u yordamga muhtoj kishilarga madad qo'lini cho'zar, ayniqsa bemorlarga birodarlarcha g'amxo'rlik ko'rsatar yedi³³. Ularga o'z hisobidan dori-darmonlar keltirib berar va sog'ayib ketgancha hol-ahvollaridan xabar olib turardi.

Sayid Rizo Alizoda 1905-1907 yillarda kunduzgi mashakkatli pedagogik ishdan sung kechalari bosmaxonada ishlar yedi³⁴. Ayniqsa «Samarqand» gazetasi nashr yetila boshlagandan so'ng Demurov bosmaxonasida bolsheviklar ko'paya boshlaydi. Ishchilar yesa ish tashlab, namoyishlar tashqil yetishadi³⁵. S. Alizoda matbuot hamda pedagogik ish bilan shug'ullanib, turli yo'llar bilan xalqning yuragiga ma'rifat urug'ini yekardi.

S. Alizodaning jurnalistok faoliyati 1905 yildan boshlanadi. U Ozarboyjon va Qrimda chop yetiladigan turkiy, Samarqand, Buxoro va Toshkentda chiqadigan mahalliy gazetalarda maorif masalalariga bag'ishlangan publisistik maqolalar yozib turadi³⁶. Masalan, «Hamma bu badbaxtliklari razolat, qashshoqligu safolat biz turkistonliklarni qoplab olishi sababi zamona madrasalarini sitamu faqirligidadir», - deb yozadi S. Alizoda «Oyina» gazetasining 1913 yil 15 noyabrida bosilgan «Maktab va madrasalar islohoti bizga zarur» maqolasida (3-son). «Hamma basirat arboblari oshkor va vo'zedurkim, har bir millat va har bir toifaning ravnaqi maktab siyosatining ravnaqi va islohotiga bog'liqdir. Samarqand va uning atrofida 150 mingdan ortiq nufusi bo'lib, musulmonlardan qancha tojir, sudgar, qancha do'kondor va kontorchi bor? Qayerda do'xtur, muallim, muhandis, ki bizga nonu suvday zarurdir. Yillar bo'libdiki, mamlakatlar musulmonlari ilm darajasi, maktab va madrasalar manfaatini bilib, har bir shaharda (kentlarda) jadida maktablar ochib, ularni takomillashtirishga harakat yetmoqdalar. Ammo

³³ Алескерев Ю.Н. “Инкилоб алангаси” —“Мухбир” журнали, 1977, №5, с.38-40.

³⁴ Исмоилов Г. Тонг. Шеърлар (Перед, рассветом. Стихи). -“Ленин йўли” газетаси, 1982, 12 октябрь.

³⁵ Мухтаров А. Сайид Ризо Ализодини эслаб (Вспоминая Саид Ризо Ализаде). - “Ленин йўли” газетаси, 1977,29 март.

³⁶ Носир Такмил Хумоюн. Марказий Осиёнинг курашчан олимлари (Борец и ученый Центральной Азии). — “Тарих ва маданият”. Техрон. 1993. № 8с. 13-47.

biz Turkiston musulmonlari nainki jadida maktab va Madrasa ochayapmiz, balki hanuzgacha ularni bid'at va harom sanayapmiz. Bilmayman, biz Turkiston musulmonlariga nima bo'ldi? Yey, turkistonlik birodarlar! Yey, aziz yurtdoshlar! G'aflat qachongacha! Jaholat qanchalik...?³⁷»

Alizoda til, uning taraqqiyoti va ozodligiga tilshunoslik nuqtai- nazaridan jiddiy munosabatda bo'lgan³⁸. Shu o'rinda u boshqa tillarni o'rganish va bilish foydali, hatto zarur yekanligini qayd qiladi. Ammo jamiyat taraqqiyotida ona tilining rolini inkor qilish, uni halokatga solish va taraqqiyot doirasini toraytirish zararli deb biladi. Sayid Rizo Alizoda tilni jamiyatda kishilarning aloqa vositasi, shuningdek, kurashning qudratli quroli va milliy madaniyatning bir shakli deb bilardi. U adabiy tilning ozodligi, pokligi, ravonligi va ommabopligi to'g'risida ko'plab maqolalar yozar yedi. Bu ham O'zbek, ham tojik va Turkistonda yashaydigan boshqa millat va yelatlariga ham taalluqli yedi. Til har bir millat mavjudligining asosiy belgisidir. Til har bir xalq va millatning tarixi, madaniyati, urf-odati, tafakkur tarzi va uning xislatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Tilning yo'qolishi bilan yesa o'sha xalq yo millatning tarixi ham yo'qoladi. Alizoda til qanchalik sodda, ravon va ommaga yaqin bo'lsa, u o'zining jamiyatdagi rolini shu qadar yaxshi ijro yetishini aytadi. S. Alizoda maktab siyosati ko'p jihatdan til islohoti bilan chambarchas bog'lik yekanligini qayd qiladi³⁹. U «Har millat o'z tili ila faxr qilur» maqolasida «Zamonamizning yeng muhim masalalaridan biri til masalasidir. Xushyor millatlar buning ahamiyatini barcha masalalardan ortiq qo'yadilar... Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, biroz zamonda til va millatimizni yo'qotganda, diyonatimiz o'z-o'zi ila albatta yo'qolur», - deb kuyunib yozadi («Oyina» jurnali, 1914 yil, 35-son).

Alizoda Pushkin va Tolstoylar tilini yaxshi bilgan. Shu sababli u rus xalqi yozuvchi va shoirlarining asarlarini tojik tiliga o'giran⁴⁰. Afsuski, u qamoqqa olingandan keyin bu tarjimalar boshqalarning nomiga yozilgan. Alizoda O'zbek tiliga ham ancha rus asarlarini

³⁷ Ализода Ф. “Сайид Ризо Ализода” “Абу матбуот консалт” нашриёти. Тошкент 2011. Б 38

³⁸ От редакции. Маърифатпарвар, олим ва жамоат арбоби (Просветитель, ученый, общественный)

³⁹ Расулов Р. Катта раҳмат Владимирликларга (Большое спасибо Вам, дорогие, владимировцы). - “Ленин йўли” газетаси, 1977, 2 август.

⁴⁰ Носир Такмил Ҳумоюн. Марказий Осиёнинг курашчан олими (Борец и ученый Центральной Азии). — “Тарих ва маданият”. Техрон. 1993. № 8с. 13-47.

o'g'irgan. Rus tiliga yesa Navoiy, Nizomiy, Fuzuliy, Ro'dakiy, Ibn Sino va Firdavsiylarning asarlaridan parchalar o'g'irgan. Shuningdek, Qur'oni Karimning bir necha oyatini fransuzchaga tarjima qilgan. Fors tiliga yesa arab, turk, rus va boshqa tillardan ko'pgina asarlarni tarjima qilgan. «Rossiya tarixi», «Turkiston tarixi», «Buxoro tarixi», «Xiva tarixi», «Xitoy tarixi», «Yaponiya tarixi», «Koreya tarixi», «Yevropa tarixi», «Islom tarixi» va bir qancha tarjimalar shular jumlasidandir⁴¹.

Mahmudxo'ja Behbudiy bir maqolasida tilning jamiyatda kuchli qurol yekanligini ta'kidlagan yedi. Har bir ziyoli kamida 4 ta tilni bilishi kerak. Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam aytganlaridek, ilm va tilni o'rganish kerak bo'lsa, Chinga borib bo'lsa ham o'rganish kerak. Sayid Rizo Alizoda tilni o'rganishda alohida qobiliyatga yega bo'lgan. Sayid Rizo Alizodaning umr yo'ldoshi, Mumina bibi nabiralariga qarata «Bobongga bir tilni o'rganish uchun 5-6 oy yetarli yedi», - der yekanlar⁴². Farhod Alizoda bobosiga bag'ishlangan kitobida amakisi Madi bobo aytib bergan qiziq bir voqyeani keltiradi, ya'ni u quyidagicha;

Bir kuni Sayid Rizo amakim meni chaqirib, qo'limga pul berib: «Mana bu xatni kuqo'shkaga (poyezd, 1920 yillarda shaharda avtobus va tramvay bo'lmagan. Poyezdni kuqo'shka der yedilar. O'zim ham kuqo'shkaga minganman. U shaharda to 1947 yilgacha bor yedi. 1947 yil 1 maydan boshlab to 1972 yilgacha Samarqandda tramvay yurgan) minib, vokzalga, Torzan Sarkisga olib borib ber», - dedilar. Men poyezdda xatni ochib o'qimoqchi bo'ldim, ammo tishim o'tmadi. Xatdagi harflar boshqacha yedi. Xullas, aytgan joyni topib bordim. Borsam, bir hovlining ichida 8-10 ta armani narda o'ynab o'tirgan yekan.

Kechirasizlar, Torzan Sarkis tog'a kim? - deb rus tilida so'radim. Sarkis tog'a darhol o'rnidan turib: «Men», - deb javob berdi. «Mana bu xatni Sayid Rizo Alizoda amakim berib yubordilar», - deya xatni unga uzatdim. U maktubni olib o'qib, boshini qimirlatib, do'stlariga aytdi:

Arman tilini Alizodadan o'rganinglar, naqadar adabiy tilda yozganki, bunday xatni arman

⁴¹ Умеров Сайди. Самарқандлик мутафаккир. - “Хуррият” газетаси. Тошкент, 2008, 23 январь.

⁴² Ализода Ф. “Сайид Ризо Ализода” “Абу матбуот консалт” нашриёти. Тошкент 2011. Б 40.

yozuvchilari ham yoza olmasalar kerak. Xat bir zumda qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. Keyin bilsam, Sarkisdan torlari uchun 2-3 ta sim so'ragan yekanlar. Sarkis ham torzan, ham tor ustasi bo'lgan. U uyiga kirib, menga bir paketda bir necha tor simlarini chiqarib berdi⁴³. Amakim tor chalishga juda usta yedilar, - degan yedilar rahmatli Madi amakim deya davom yettiradi F. Alizoda o'z kitobida, bunga misol sifatida quyidagi voqyeani keltiradi; 1919 yilning bahor fasli yedi, Sayid Rizo Alizoda shahardagi ofiserlar uyi yonidagi binoda joylashgan «Shu'lai inqilob» jurnalining bosh muharriri yedi. Bir kuni tushdan keyin kelsam, Og'ofoytunga minib, qaygadir ketmoqchi. Menga qarab: «Hasan Og'o, foytunga o'tirsang, vokzalga borib kelamiz, siz gapingizni foytunda menga aytasiz», - dedilar. Foytunga o'tirib, vokzalga yetmay, «Katta ariq» degan yerga keldik. Foytundan tushib, bir katta gulzorlik hovliga kirdik. Hovlida 100 dan ortiq armanilar stol-stul qo'yilgan chorbog'da o'tirib, nonushta qilishayotgan yekan. Davra to'rida Armanistondan kelgan dunyo armanlarining katolikosi o'tirgan yedi. Bizlar ichkari kirgandan keyin 2-3 nafar uy yegalari Sayid Rizo Og'oni janob katolikosning oldiga u bilan tanishtirish uchun olib bordilar. Og'o katolikos bilan arman tilida chunon salomlashib ko'rishdilarki, hamma armanilar o'rnidan turib karsak chalishdi. Shunda katolikos Alizodaga qarab: «Men ko'p musulmon mamlakatlarida - Yeronda, Turkiyada, Iroqda va Suriyada bo'lganman, ammo armani tilini va tarixini sizdek biladigan bironta musulmon odamni uchratmaganman. Sarkisning ta'riflashiga qaraganda, shahrimizda musulmon yozuvchi sifatida siz tilimiz va adabiyotimizni Samarqandda yashaydigan hamma armanilardan ko'proq va yaxshiroq bilarmishsiz. Sarkis sizni Samarqanddagi armanilar bilan uchrashuvimga taklif qilibdi. Menga: «Siz u kishi bilan uchrashib, suhbatda bo'lsangiz, keyin uning bilimiga o'zingiz baho berasiz», - deb aytdi. Ammo, hozir siz bilan bo'lgan suhbatdan bildimki, siz Sarkis aytgandan ham ziyod yekansiz. Men Armanistonga qaytganimdan keyin bu uchrashuv tarixini xalqimizga naql qilib beraman. Kelajak tarixlarimizda sizning arman tilini bu darajada bilishingiz va arman madaniyatiga bo'lgan hurmatingizni albatta yozib qoldiramiz», - deya lutf qilgan yedi⁴⁴. Sayid Rizo bobomning 1938 yilda Samarqand

⁴³ Ализода Ф. «Сайид Ризо Ализода» «Абу матбуот консалт» нашриёти. Тошкент 2011. Б 41

⁴⁴ Расулов Р. Катта раҳмат Владимирликларга (Большое спасибо Вам, дорогие, владимировцы). - «Ленин йўли» газетаси, 1977, 2 август.

turmasida O'zbekistonning o'sha davrdagi ichki ishlar vaziri, millati arman bo'lgan Apresyanga arman tili da yozgan shikoyat xatlarini tintuv vaqtida kamera posboni Alizodaning qo'lidan olib qo'ygani haqidagi ma'lumotni maxfiy arxivdan olib o'qib afsuslandim. Kim biladi deysiz, agar shu xat Apresyanga borib yetganida, balki u bobom yozgan so'zlar va o'sha 1919 yilda Samarqandga kelgan arman katolikosining hurmati uchun uni qamoqdan ozod qilgan bo'larmidi... Bu fikrni aniqlash uchun 1982 yilda Armanistonga bordim, lekin afsuski, katolikos va Sarkis men borganda dunyodan ko'z yumgan yekanlar⁴⁵.

Samarqandlik olim Hamdam Ne'matovning Alizodaning til qobiliyatiga bag'ishlab «Uchitel Uzbekistana» gazetasiga yozgan xatini keltirib o'tish o'rinlidir. Bu xat rus tilida 1989 yil 3 mayda yozilgan va so'ngra 2004 yilda Moskvada nashrdan chiqqan «Kosmonavtika i kultura» kitobining 194-betida ham chop yetilgan. Sayid Rizo Alizodaning tarjimonlik faoliyatini o'rganishga uch yil vaqtini sarflagan Hamdam Ne'matov S. Alizoda tojik tilshunosligiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri degan xulosaga keladi, Sayid Rizo Alizodani sharkning taniqli mutafakkirlari qatoriga qo'yib, yozadi:

Уважаемая редакция!

Меня, таджика, не может оставит равнодушным статья, опубликованная в газете «Учитель Узбекистана» за 3 мая 1989 года под заголовком «Ставит ли памятник герою?» Забегая вперед хочу сообщить, что 29 декабря 1923 года Ализаде был удостоен звания «Героя просвещения». «Хотелос бы ответит на вопрос Узбекского поэта Гулам Хусейна Исмаилова «Ставит ли памятник герою?» И отвечат: «Да и ещё тысячу раз да!!!»

Hamdam Ne'matov tilshunos (alizodashunos), Samarqandda ingliz tilida uning darslik kitobidan tashqari ko'plab tarjimalari, bukletlari nashr qilingan. Sayid Rizo Alizodaning «Din vojiblari» asari bir qismini fors tilidan ingliz tiliga tarjima qilgan⁴⁶. Ko'p tillarni

⁴⁵ Ализода Ф. “Сайид Ризо Ализода” “Абу матбуот консалт” нашриёти. Тошкент 2011. Б 42

⁴⁶ Махмудов Ф. Нурга талпиниб. - “Ленин йўли” газетаси” 1987., 18 декабрь.

bilishning foydali yekanligiga yana bir jonli misol deb yozadi F. Alizoda bobosiga bag'ishlangan kitobida va quyidagi voqyeani keltirib o'tadi;

1977 yilning 3 mayida abxaziyalik Vladimir shahrida yashovchi Gavriliya Yuriy Chichikovich bilan Vladimir shahrining meri Magazin Robert Karlovich qabulida bo'ldik. Bobom Sayid Rizo Alizodaning qabrini Samarqandga ko'chirishga yordam berishni iltimos qilganimda (bu yo'lni Vladimir turmasi boshligi Zavyalov aytgandi) merga og'zaki gaplardan tashqari biron hujjat ham ko'rsatish lozim yedi. Samarqanddan yo'lga chiqqanda har yehtimolga qarshi kerak bo'ladi, deb bobom faoliyatiga bag'ishlangan rus tilidagi ba'zi maqola va hujjatlarni portfelga solib borgan yedim. Suhbat chog'ida «Lenin yo'li» gazetasining 1967 yil 18 oktyabr sonida rus tilida ye'lon qilingan maqolani shahar meriga uzatdim. U maqolani olib sinchiklab o'qidi va o'qishni tugatmasdan oldimga kelib, qo'limni siqib: «Men yahudiyman, ammo bobongiz Samarqandda yashab qadimiy ibroniy tilimizni bilar yekan. Qoyilman, yendi gap shunday, siz menga Samarqand shahar rahbariyatidan bir iltimosnoma yoki tavsiyanoma xat olib keling. Men shahar ijrokumi buyrug'i bilan bobongizning qabrlarini bel bilan yemas, tirnoq tozalaydigan qiskich bilan avaylab kovlattirib, qoldiklarini maxsus tobutga solib, sizni kuzatamiz», - dedi. Afsuski, u aytganidek bo'lmadi. Qabrni ko'chirish o'n yilga cho'zildi⁴⁷. O'sha kunlarda Vladimir turmasida 1940 yillarda ishlagan shifokor Bogatova Yekaterina Ivanovna (tibbiy xizmat boshligi), turma kasalxonasining boshligi Borisova, tibbiy xizmat serjanti Solovyovalarni topib, ular bilan suhbatda bo'ldim⁴⁸.

Sayid Rizo Alizoda 1945 yil 24 dekabr kunduz soat 11⁰⁰ da olamdan o'tgandan keyin, yertasiga saharda turma devori orqasidagi 800 yillik tarixga yega shahar qabristonida, Kliment Yefremovich Voroshilovning onasi dafn qilingan qabrdan o'ng tarafda taxminan o'n besh metr oralig'ida dafn yetiladi. Dafn marosimida katta serjant V.D. Abalayev, kichik serjant N.A. Sergeyevlar ishtirok yetishadi⁴⁹.

Sayid Rizo Alizodaning ijodi va u bilan boglik voqyealar, zamondoshlarining u hakida yozgan maqolalari va boshqalar hali to'liq to'planmagan. Alizodaning biz bilmagan asarlari dunyoning ko'p mamlakatlariga tarqalgan. Uning xususiy taqrizlari, maktublari

⁴⁷ Хўжаев Эркин. Самарали йиллар ёғдуси. Самарқанд. 2001. 115-бет..

⁴⁸ Ализода Ф. “Сайид Ризо Ализода” “Абу матбуот консалт” нашриёти. Тошкент 2011. Б 43

⁴⁹ Махмудов Ф. Нурга талпиниб. - “Ленин йўли” газетаси” 1987,. 18 декабрь.

qo'lyozmalari maxfiy arxivlarda saklanayotir. Masalan, deb yozadi F. Alizoda, men birinchi marta Vladimir turmasidagi arxiv xujjatlarida bobomning davlat raxbarlariga yozgan 300-400 ga yaqin xatlarini ko'rgan yedim. Xali vaqti kelib, bu sirli arxivlarni ochishga ijozat berilar. Ishonamanki, 100 yil o'tgandan keyin ham Sayid Rizo Alizodaning avlodlari bu ishni davom yettiradilar⁵⁰.

Alizodaning tilshunosligi va tilga bo'lgan mehr-muhabbati, tilni jahd bilan o'zlashtirgani borasida yana bir misol: u Vladimir turmasi kasalxonasida yotganida shifokorlik qilgan mayor Borisova, kapitan Bogatova, kamera posboni katta serjant Kuznesovlar F. Alizodaga aytganlariga qaraganda, «Alizoda rus tilini shu qadar chuqur bilardiki, rus lug'atini birinchi tuzgan yensiklopedik olim, Dal tirik bo'lganida Sayid Rizo Alizodani shogirdim deya tan olgan bo'lar yedi. Afsus, ming afsus, qomusiy olim, tilshunos, ma'rifatparvar o'z vatanidan olisda, yaqinlari bilan vidolashmasdan olamdan o'tdi»⁵¹.

Turma boshlig'i, podpolkovnik Jivago ham yahudiy bo'lgan. Alizodadan ona tili (ibroniy)ni o'rganish uchun kechalari tez-tez kelib, uning kamerasiga kirib turgan. Turma kasalxonasi shifokorlariga, undan yaxshi dorilarni ayamanglar, deb yashirin ko'rsatma bergan. Bu hurmat-ye'tiborning hammasi uning ko'p tillarni bilgani va shu tilda gaplashuvchi insonlarning barchasini bir otaning farzandlaridek tan olganidir. Bundan tashqari, Alizoda ijodida asosan yurt ozodligi, inson hurligi va til yerkinligi kuylangan. Shu sababli u ochlik, sovuq, azob-ukubat chekib, qorong'u yakkashin kamerada so'nggi yurak urishiga qadar ko'ylagini chiqarib, parchalab, uning bo'laklariga so'nggi so'zlarini yozgan:

Yey umrim chirog'i bo'lmish qaro ko'zlarim,

Qalam tutib kecha-kupduz asar yozgan qo'llarim.

Mashriqdan mag'ribgacha ko'tarib tanim

Tolmay kezgan oyoqlarim,

Ming bir balolarga duchor bo'lgan,

qonli boshim, meni kechiring, zinhor yana bir bor kechiring.⁵²

Shu tariqa u o'lim oldidan butun badani va a'zolaridan kechirim so'ragan. U valilardek

⁵⁰ Саломов Ф. “Эй, метин қалб” (шеър). - “Ленин йўли” газетаси, 1991, 9 май.

⁵¹ И.Мочатов, Р.Бобомуродов. “Сильней духом”. Газета “Народное слово”, Ташкент, 2003, 29 август, ст. 3.

⁵² “Сайид Ризо Ализода”. - газета “Самаркандский Вестник”, 2005 г. 4 май. ,

uzoqni ko'radigan, vaqt o'tib dunyo yangilanishini, haqiqat tiklanishini, zolimlar qilmishiga ko'ra jazolanishini, tuhmatchi, sotqin, ablahlar abadiy tarixda beti qora bo'lib qolishini shu bitiklarda yozib qoldirgan. Uning ko'zlarini o'lim pardasi tutganda boshi ustida turgan shifokor Bogatova Yekaterina Ivanovnaga hamda turma boshlig'i Jivagoga oxirgi so'zini aytadi: «Qabrimni yo'qotmanglar, yillar o'tib, avlodlarim meni izlab kelishadi⁵³»

1945 yil 25 dekabr tong saharda, soat 5⁰⁰ da uning jasadi yog'och tobutda turma devori orqasidagi qadimiy shahar kabristonida dafn yetiladi. Turma boshlig'i buyrug'i bilan qabr ustiga raqam yozib qo'yiladi. Bu raqam uning shaxsiy delosida ham ko'rsatib qo'yiladi⁵⁴.

Yozuvchi, qomusiy olim mavlono G'aybullo as-Salom «Yezgulikka chog'lan, odamzod» deb atalgan kitobida yozadi: «Barcha turkiyguy va forsiyzabon, birinchi navbatda O'zbeklar bilan tojiklarning do'stligi va qardoshligini mustahkamlash uchun fidokorona mehnat qildi. Domla Ayniyni yaqin do'sti va safdoshi. «Shu'lai inqilob» sahifalaridan muharrir sifatida Sadriddin Ayniyga o'rin, maosh, moddiy va ma'naviy ko'mak berib turdi⁵⁵. Yeng og'ir damlarda Buxoro amirining g'azabiga uchrab, yelkasiga 75 kaltak yeganidan so'ng, Samarqandga boshpana izlab, qochib kelganida Sayid Rizo Alizoda unga yordam qo'lini cho'zgan yedi. Alizoda faol jamoat arbobi, atoqli olim va komil inson yedi. U dunyoning sharq va g'arb mamlakatlaridagi yeng mashhur olimlar, davlat arboblari bilan yaqindan muloqotda bo'lgan, maktublar orqali fikrlashib turgan. Masalan, turkiyalik Muhammad Rifat Istanbuliy, Jovdat Sunay, yeronlik Malik Shuaro, Ali Akbar Dexudo, ozarboyjonlik O'zeir Hojibekov, Mirzo Ali Akbar Sobir, Abdulla Shoiq Ozarboyjoni, Afg'onistonlik Mir Muhammad Golmoni Afg'on, Hindistonlik Muhammad Barakatulloh, pokistonlik Muhammad Iqbol, Qrimdan Ismoilbek G'aspirali, Qozondan Ahmad Hodi Qozoni, Rossiyadan Bartold, Bertels kabi yetuk davlat va jamoat arboblari bilan yaqindan muloqotda bo'lib, katta hurmat qozongan yedi⁵⁶.

Qaynoq hayotda behudud orzu-umidlar yetagiga yopishib, yorug' kelajak, o'z mazlum xalqi uchun chinakam ozodlikni qo'lga kiritish yo'lida inson yonib yashar yekan,

⁵³ Саломов Ф. “Эй, метин қалб” (шеър). - “Ленин йўли” газетаси, 1991, 9 май.

⁵⁴ Фарҳод Ализода. “Бизнинг тарих”. “Самарқанд” газетаси, 2007 йил, 22 декабрь, 4-бет.

⁵⁵ Умеров Сайди. Самарқандлик маърифатпарвар (Просветитель из Самарканда). - “Зарафшон” газетаси, 2008, 19 январь, 3-бет.

⁵⁶ “Зарафшон” газетаси, 2006 йил, 1 июль, 2-бет

yirtqichlar, ajdaholar bilan tengsiz kurashga o'zini safarbar yetar yekan, mayda insoniy tuyg'ular - oila, farzandlarga mehr ulashish ham uning xayolidan ko'tariladi. Hammaning baxtini o'ylagan odam yakka o'ziga baxt izlamaydi. O'g'il-kizlarning boshi silanmagan, aksincha, u tufayli ularning manglayiga «xalq dushmanining o'g'li», «ingliz josusining xotini», «murtadning jiyani», «sotqinning dumi» degan manfur tuxmatlar yogdirilardi. Ha, shunday ayb bilan o'g'li va Sayid Madi, kuyovi Hasan Irfonlarni ham turmaga soldilar. Oila tutdek to'kildi. Qochib-pusib qolgan xotini va kizlari to'rt tomonga - Jizzax, Kattaqo'rg'on va Bulung'urga qarab tarqalib ketdilar.

Ammo olijanob xislatu fazilatlarining, iste'dodu sa'y-harakatlarning, bor-budingni yezgulik, ro'shnolik, savobga baxshida yetganing uchun seni badgumon, tahqir va badnom qilsalar, zindonga tashlasalar, qaro yerga tiqsalar... Bundan ortiq bedodlik bormi dunyoda! Ammo Sayid Rizo Alizodaning bizga taskin beradigan jihatlari shundaki, alizodashunos olim Salohiddin Hayitov «O'zAS» gazetasining 1997 yil 28 fevral sonidagi «Ro'yxatlarda yo'q yedi» nomli maqolasida ta'kidlaganidek, «Sayid Rizo Alizoda chiqishlarida hurriyat, sog'lom ma'naviyat, ma'rifat, adolat, insonparvarlik, do'stlik va birodarlikka da'vatlar barq urib turadi. Hazrat Sayid Rizoning o'tkir siyosiy qalami oqibatda uning o'ziga, unga o'xshagan yuzlab ilg'or fikrli ziyolilarga, jadidlarga, ma'rifat darg'alariga, millatning asl farzandlariga juda qimmatga tushdi. Binobarin, bularning barchasi shaxsning achchiq qismatidan ko'ra shum davr, mustabid tuzumning fojeasi yedi. Lekin Sayid Rizo gazetchi, otashin jurnalist, benazir tashkilotchi va jamoat arbobi, shoir, tarjimongina yemas, balki qomusiy bilim yegasi, chuqur faylasuf, muarrix, tilshunos olim va mutafakkir zot yedi. Uning chiqishlari faqat yel-yurt g'ami bilan yo'g'rilgan yalang'och ye'tirozga yemas, balki boshdan-oyoq nozik ilmiy kuzatishlar, tahlil va chuqur bilim bilan sug'orilgan yedi⁵⁷. Muallifning «Nizomnoma», «Qalam ahllariga da'vat», «Risolatul-ittihodiya», «Din vojiblari», «Moroselot» (yozishmalar), «Islom madaniyati», «Islom tarixi», «Asobai ikrom» singari olamshumul asarlari o'ziga tirikligida qo'yilgan haykal, desa bo'ladi. Aksincha, Sayid Rizo Alizodaning butun tarixiy, ilmiy va badiiy ijodi (bir nechta she'riy to'plamlari ham) yaxlit holda bizning bugungi kunimizga ham toabad hormay-tolmay xizmat qilishi aniq. Sayid Rizo Alizoda o'zining son sanoksiz yozma mashg'ulotlarini

⁵⁷ Ализода Фарход “Эътироф”. - “Зарафшон” газетаси, 2001 йил, 13 декабрь, 3-бет

ko'tarib tarix hukmiga ravona bo'ladigan muxbir yemas, balki bizga zamondosh hamdard, hamnafas ulkan fan arboblari qatorida turadi.

Bu ulug' inson sho'rolar zindonida halok bo'ldi. Biroq uning qalami ziyosidan tarqalgan asarlar hych qachon o'lmaydi⁵⁸. Biz ulardan foydalanayotganligimizni bilgandan bilmaganlar ko'p. Shu o'rinda 1917-20 yillarda o'zbek va tojik maktablari uchun yozilgan «Alifbe», ikki qismdan tarkib topgan «Tojik tili grammatikasi», ikki jildli ruscha-tojikcha mukammal lug'at (61 ming so'zdan iborat), «Saodat asri» kitobi va son- sanoqsiz tarjimalarni ko'rsatib o'tish o'rinlidir.

⁵⁸ «Сайид Ризо Ализода». - газета «Самаркандский Вестник», 2005 г. 4 май. ,

II-BOB. SAYID RIZO ALIZODANING HAYOTI VA UNING ILMIY FAOLİYATI.

2.1. Sayid Rizo Alizodaning jurnalistik faoliyati.

Sayid Rizo Alizoda 1905 yildan ye'tiboran xalqaro ahamiyatga molik jurnalist sifatida tan olingan. Tojikistonlik Subhon Atobulloyevning «Sayid Rizo Alizoda» deb nomlangan monografiyasida (1976), professor G'aybulloh as-Salomning «Yezgulikka chog'lan, odamzod» nomli kitobida (1997), ozarboyjonlik professor Shamiston Mikailovning S. Alizoda ijodiga bag'ishlab yozgan maqolalarida, yeronlik doktor Nosir Takmil Humoyunning Yeronda chiqadigan «Tarix va adabiyot» jurnalidagi katta ocherkida, pokistonlik olim, Islom universiteti rektori Janob al-Rahmonning Rossiya televideniyesiga bergan intervyusida va nihoyat rossiyalik yozuvchi Tatyana Galanshinaning «Vladimirskiy sentral» kitobida, Salohiddin Hayitovning O'zbekiston antologiyasiga bag'ishlab yozgan asari va boshqa katta-kichik maqola, tadqiqotlarda Sayid Rizo Alizoda qalami o'tkir, haqiqatguy, hur fikrli va serg'ayrat, oshkora fikr qiluvchi jurnalist bo'lganligi tahlil-tadqiq yetilgan. Maqolalarining o'tkir tig'i asosan mansabparastlar, poraxo'rlar, o'g'rilar, badmastlar, sudxo'rlar, qimorbozlar va firibgarlarga qarshi qaratilgan. Alizodaning ilmiy-ommabop, publisistik maqolalari, she'rlari, feleton va pamfletlari «Turkiston xabarlari», «Buxoroi sharif», «Turon», «Samarqand», «Hurriyat», «Kambag'allar tovushi», «Zarafshon», «Sharq», «Telegraf xabarlari», «Ovozi tojik» gazetalarida, shuningdek, «Oyna», «Tayoq», «Mashrab», «Mullo Mushfiqi» jurnallarida ye'lon qilingan. Uning maqolalari «Samarqand», «Golos Samarkanda», «Svobodный Samarkand», «Trud», «Izvestiya», «Proletariy», «Zarafshan» kabi ruscha gazetalarda ham bosilgan. Xorijiy ommaviy axborot vositalaridan Ozarboyjonda «Irshod», «Iqbol», «Mullo Nasriddin» jurnalida, Qrimda «Tarjumon», Turkiyada «Oqshom», Yeronda «Ozod Yeron», «Sitara Yeron», «Tarbiyat», «Yetteloot», Misrdagi «Chehranoma», Hindistonda, Kalkutta shahrida fors tilida «Hablul matn», Rossiyada Sankt-Peterburgda «Новый Восток», Qozonda «Bizning touch» kabi nufuzli nashrlarda, 1919 yilda o'zi Samarqandda asos solgan fors tilidagi haftalik jurnal «Shu'lai inqilob»da chop yetib borilgan⁵⁹. Keyingi

⁵⁹ И. Мочатов, Р. Бобомуродов. «Сильней духом». Газета «Народное слово», Ташкент, 2003, 29 август, ст. 3.

45-50 yil ichida Sayid Rizo Alizodaning 15 dan ortiq taxalluslari bo'lgani aniqlandi. Bular quyidagilar: Bahlul, Zombir, Shapaloq, Korgar, Ranjbar, Sitamdiyda, Toziyona, Nashtar, Mullo, Jumbul, Murtad, Mushti G'oib, S., S.A., S. Ali, S. Aliyev, Bog'ishamoliy va Samarqandiy⁶⁰. U bu imzolar bilan yozgan maqolalarida Turkistonning ichki va tashqi dushmanlarini, ularning kirdikorlarini ayovsiz fosh yetib, qalam ostiga olgan. To'g'risini aytganda, Sayid Rizo Alizodaning 1917 yilda yozgan «Muallim ila muharrir millatning ikki qo'lidir» shiori birgina Turkistonda yemas, bir qator yurtlarga keng tarkalgan yekan⁶¹.

Men bu shiorga berilgan bahoni Ozarboyjonda, Turkiya, Yeron, Pokiston, Misr va Qozon hamda Qrimda bo'lganimda keksa muallimlar va jurnalistlardan yeshitganman. Sayid Rizo Alizodaning «Birinci yil» nomli alifbosi Oktyabr to'ntarishidan bir oy oldin yozilib, 1917 yilning oktyabrida nashrdan chiqqan. Bu alifbodan birgina O'zbek maktablari yemas, balki butun Turkistondagi turkiyzabon maktablar ham foydalangan. Ozarboyjon Fanlar akademiyasining keksa olimi, 80 yoshdagi G'ulom Mammadli 1930 yilda Boku radiosida O'zbekiston xalq shoiri Fafur G'ulom o'z chiqishida ham shu gapni aytgan yedi, dedi. 1982 yi 3 fevralda Boku shahrida Sayid Rizo Alizodaning 95 yillik yubileyi nishonlaganda keksa qadimshunos olim G'ulom Mammadli yuqori minbarga chiqib zalda o'tirgan barcha olimu ziyolilarga buni ta'kidlagan yedi. Allomaning 95 yillik to'yi tantanalari haqida barcha respublikalar «TASS» xabariga asoslanib gazetalarda 1982 yil 4-5 fevralda maqola va xabarlar chop yetgandi. Alizodaning «Muallim ila muharrir millatning ikki qo'lidir» shiori sobik ittifoq maorif vaziri Lunacharskiyga yozib yuborilgan. Uning Turkistonda maorif va jurnalistikadagi xizmati xuddi fazoda yangi bir yulduz ochilgandek bo'lgan, degan yedi. 1982 yilda Ozarboyjon shoirasi Azizaxonim Ja'farzoda Alizodaning madaniya tarixidagi bu faoliyatini yuqori baholab, 1923 yil 30 martda unga ittifoq miqyosidagi «Maorif qahramoni» degan unvon berilgan. Bu qarorga Lunacharskiy bilan Nadejda Krupskaya qo'l qo'ygan. Sayid Rizo Alizoda «Markaziy Vladimir» turmasida o'tirganida Stalinga shu haqda ham yozib yuborgan. Ammo bu xat

⁶⁰ Ализода Фарход “Эътироф”. - “Зарафшон” газетаси, 2001 йил, 13 декабрь, 3-бет

⁶¹ “Сайид Ризо Ализода”. - газета “Самаркандский Вестник”, 2005 г. 4 май. ,

turma darvozasidan tashqariga chiqmay, uning shaxsiy delosiga tikib qo'yilgan.

Sayid Rizo Alizoda Turkistondagi xizmatlaridan tashqari Yeron, Afg'oniston, Pokiston va boshqa davlatlarda Rossiya tarixi va madaniyatini tarqatganini, jumladan, Karamzin qalamiga mansub «Rossiya tarixi» asarini tarjima qilib, keng sharq olamiga tashviqot qilganini va, shuningdek, boshqa xizmatlarini Stalin, Molotov va Voroshilovga ham yozib yuborgan⁶². Xatlarning bir nechtasini 1977 yil 5 mayda Vladimir turmasida, Sayid Rizo Alizodaning shaxsiy delosida o'qiganman. Jami 300 tadan ortiq xat yedi.

Hozir bu xatlar uning shaxsiy delosidan olinib, Rossiyaning o'ta maxfiy arxivida saqlanadi. Bu xatlar bir necha yillardan keyin dunyo yuzini ko'rsa ajabmas. Samarqandda «Birinchii yil» nomli alifbo nashrdan chiqqandan keyin ko'pgina turkiyzabon jumhuriyat va davlatlardan tabrik telegrammalari kelgan⁶³. Bu telegrammalar matnini «Hurriyat» gazetasi deyarli 6 oy davomida har hafta chop yetib borgan, shuningdek, bu alifboning yaratilishi haqida xabarlar berib turilgan. Shuni ham ilova qilish joizki, Sayid Rizo Alizoda kamalgandan keyin «Birinchii yil» nomli alifbo, shuningdek, 1927 yilda chop yetilgan «Hosilot» kitobi ham deyarli hammaning yesidan chiqqan⁶⁴.

Sayid Rizo Alizodaning jurnalistikasi haqida gapirilganda, rus olimlari A. Yakovlev, T. Galanshina, Yu. Sokolov va boshqalar uni ozgina mahobati bilan XIX asrda yashagan mashhur rus publisistlaridan biri Gersen bilan taqqoslaydilar. U rus podshosi Aleksandr II siyosatini ochiqchasiga qoralagan yedi. Alalxusus, u rus ozodligi tarafdorlari xibsga olinib, Sibirga surgun qilinishini va rus dehqonining azob-uqubatlarda yashashini kuyinib yozadi⁶⁵. Shundan so'ng A.S. Pushkin «Sibirga surgun» she'rini bitadi. Bu she'rdan bir necha jumlani keltirib o'tmoqchiman:

**Во глубине сибирских руд,
Храните гордость и терпение.
Не пропадет Ваш скорбный труд,
И дум высокое стремление.**

Sayid Rizo Alizoda o'sha 1905 yildan boshlab har bir maqolasida Turkiston xalqining

⁶² Ализода Фарход “Эътироф”. - “Зарафшон” газетаси, 2001 йил, 13 декабрь, 3-бет

⁶³ Умеров Сайди. Самарқандлик маърифатпарвар (Просветитель из Самарканда). - “Зарафшон” газетаси, 2008, 19 январь, 3-бет.

⁶⁴ Фарход Ализода. “Бизнинг тарих”. “Самарқанд” газетаси, 2007 йил, 22 декабрь, 4-бет.

⁶⁵ И.Мочатов, Р.Бобомуродов. “Сильней духом”. Газета “Народное слово”, Ташкент, 2003, 29 август, ст. 3.

og'ir hayot kechirishi, uning taqdiri zulmkor chor hukumati qo'lida yekani, yer, suv, tuprog'iga yega yemasligidan kuyinib yozadi. 1917 yil iyulida «Hurriyat» gazetasida «Mahalliy hukumat ishchi-dehqonlarni aldayapti» degan maqolasi uchun Sankt-Peterburgda ichki ishlar boshqarmasining 4-bo'limida unga «Samarqandlik o'ta xavfli jurnalist» sifatida alohida varaqa ochilgan yedi⁶⁶. Bundan tashqari, «Hurriyat» gazetasida «Samarqand - Bog'ishamolda voojvaxo (ochlik)» deb yozgan maqolalari xalq dilining sadolari yedi.

Sayid Rizo Alizoda Samarqand shahar Sovetining ikkinchi saylovi munosabati bilan yozgan «Shahar Sho'rosi saylovi munosabati bilan» sarlavhali maqolasida shunday deyiladi: «Mehnatkashlar shuni yaxshi bilishlari kerakki, bo'ridan cho'pon chiqmaydi, sudxo'r, xannot, jallod, mansabdor, pristav, volostnoy, qozi, mufti vakolatidan xech qanday foyda yo'q. Bu ishga shu kungacha davlatmand, poraxo'r va hukumat yegalarining musht-tepkilarini yegan, chala mulla va qozilarning haqoratini yeshitgan, zulmkor hukumatning qamoqxonasi va zanjiriga duchor bo'lgan kishilar loyiqdir». Sayid Rizo Alizoda saylovlarda deputatlar ko'pincha ishchi-dehqonlardan saylanishini tavsiya qiladi. Sayid Rizo Alizoda 1903 yilda Yeronda tashkil yetilgan «Adolat» partiyasiga, keyinchalik Bokuda hamda Samarqandda uning sho'b'asiga a'zo bo'lgan⁶⁷. «Adolat» partiyasining Samarqanddagi a'zolari Ali Akbar Mamedov, Rizo Qurbonov, Ali Ismoilzoda, Hasanxon va boshqalar bo'lgan. Bular Yeronda Sattorxon va Bogirxon inqilobida Yeron shohi Muhammadali shohni ag'darish uchun qatnashganlar. Sayid Rizo Alizoda yesa o'z qalami bilan ingliz mustamlakachi-bosqinchilariga qarshi hamda ularning malayi Muhammadali shohga qarshi Yeron demokratik gazetalarida o'tkir qalamini qurolga aylantirib chiqishlar qilgan⁶⁸.

Sayid Rizo Alizoda bolshevik partiyasi a'zolaridan Samarqanddagi bosmaxona boshligi (1905) Morozov bilan **tanishib**, u bilan ishlagan. Hatto bolshevistik gazetalarda bir necha maqola yozib, ularning olib borgan siyosatini maqullagan va natijada **1917** yilda bolshevik partiyasiga a'zo bo'lib kirgan.

Sayid Rizo Alizoda Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida bolsheviklar partiyasi

⁶⁶ Ализода Фарход “Эътироф”. - “Зарафшон” газетаси, 2001 йил, 13 декабрь, 3-бет..

⁶⁷ “Зарафшон” газетаси, 2006 йил, 1 июль, 2-бет

⁶⁸ “Сайид Ризо Ализода”. - газета “Самаркандский Вестник”, 2005 г. 4 май. ,

Bog'ishamol komitetining birinchi kotibi yedi va u bu vazifaga qayta saylangan. 1918 yilning 18 aprelida Samarqandning Bog'ishamolida «Ittifoq» tashkiloti uyushtirgan katta mitingda tashkilot amalga oshirgan ishlar to'g'risidagi hisobot bilan uning faol a'zolaridan Sayid Rizo Alizoda, Farajulla Maxmudov, Rizo Qurbonzoda va boshqalar chiqishlar qildilar, deb yozadi tarix fanlari doktori X. Inoyatov o'zining «Intelligensiya Uzbekistana» (1957 y.) kitobida.

Sayid Rizo Alizoda o'sha kunlarda juda sertashvish bo'lib, pedagogik ishga vaqti yetishmas yedi. Ayniksa 1918 yilning 23 mayida viloyat partiya qo'mitasining «Mehnatkashlar tovushi» nomli gazetasi ta'sis yetilib, uning tashkiliy raisi Sayid Rizo Alizoda, Hoji Muyin (muharrir), Shokir Muxtoriy ishchi, dehqon va boshqa mehnatkashlar bilan bu ishga kirishganlaridan so'ng muallimlikni tark yetishadi. Yendi ularning oldida xalqning turmushini yaxshilash, ommani ish bilan ta'minlash, millatning savodini oshirish kabi muhim vazifalar turar yedi⁶⁹.

Sayid Rizo Alizoda matbuot orqali xalqni, jabrlangan mehnatkash dehqonlarni o'zaro birlashgan holda butun to'siqlarni yengib chiqishga da'vat yetadi⁷⁰.

Bu gazeta bora-bora «Zarafshon»ga aylandi. Sayid Rizo Alizoda yillar o'tishi bilan Turkistonda turli niyatdagi ichki va tashqi dushmanlarning ko'payishi, bosqinchi kuchlar bizga yaqin bo'lgan davlatlarni oyoq osti qilib, ularning mol-mulkini talon-toraj qilishini fosh yetish, dunyo mazlum xalqlarini bu xoinlardan xabardor qilish uchun vaqtli matbuot zarurligini ta'kidlaydi. U bir qator qiyinchiliklarni to'sqinliklarni yengib, o'z maqsadiga yetadi. Natijada 1919 yilning 10 aprelida «Inqilob shu'lasi» yoki «Shu'lai inqilob» jurnalining birinchi sonini nashr yettiradi.

Ushbu nashr viloyat partiya komitetining organi bo'lishiga qaramay, tezda Samarqanddan tashqariga ham yoyilib, Turkiston va Buxoro amirligining boshqa shahar va qishloqlarida tarqaladi.

«Shu'lai inqilob» haftalik jurnal bo'lib, Sayid Rizo Alizoda bosh muharrir, Gulom Ali Kozimzoda muxbir, jurnalda o'z maqolalari bilan faol ishtirok yetadiganlardan Sadriddin Ayniy 1919 yilning noyabridan Buxoroda amir panjasidan qochib, Toshkentda davolanib,

⁶⁹ Ализода. Фарҳод “Эътироф”. - “Зарафшон” газетаси, 2001 йил, 13 декабрь, 3-бет..

⁷⁰ Қодир У. ва Ализода Ф. "Ассалом. аҳли замон!" (Здравствуйте, современники).,- Самарқанд. 2002.

Samarqandga kelib, yeski shaharniig Chorraha dahasida yashovchi muallim Rahmatullo Ismatulloning uyida ijarada yashab turgan vaqtlarida Sayid Rizo Alizoda borib unga madad qo'lini uzatadi⁷¹. Shundan keyin Ayniy afandi har kuni Sayid Rizo Alizoda bilan goh piyoda, goh suvora-foytunda uning uyiga kelib, kechki ovqatdan keyin yarim kechagacha mashg'ulot qilardilar. Sayid Rizo Alizoda va Ayniy ijodda, fikrlashuv jarayonida doimo hamnafas yedilar⁷². Bu so'zlarni Sayid Rizo Alizodaning umr yo'ldoshlari, Mumina bibi bir necha marta aytgan yedi. Samarqandda, Temiryo'l ijroqo'mining katta majlislar zalida Sayid Rizo Alizodaning 105 yillik yubileyini o'tkazish marosimida so'zga chiqqan O'zbekistonlik birinchi uchuvchi, 80 yoshliya Imomqul Guseynov ham xuddi yuqorida aytilgan so'zlarni takrorlagan. U Alizodaning qo'shnilaridan bo'lgan. Bu yubiley 1992 yil 6 iyunda, Sayid Rizo Alizodaning byustini o'rnatish kezlari o'tgan. Jurnalda maqolalari bilan qatnashib turganlardan Zehni va Roji ham bo'lgan. Jurnal 1919 yil 10 apreldan boshlab 1921 yilning dekabrigacha nashr yetilgan. Mablag' yetishmaganligi uchun keyinchalik to'xtab qolgan⁷³.

«Shu'lai inqilob» jurnali 4000 nusxada nashr yetilib, Turkiston va Ozarboyjondan tashqari Yeron, Turkiya, Afg'oniston, Rossiya (Qozon), Hindiston-Pokiston, hattoki Arab mamlakatlarigacha yetib borgan. Jurnalda maqolalardan ba'zilar qisqa mazmunini sizning ye'tiboringizga havola qilishni lozim topdik.

II. 2 VATANPARVAR, XALQPARVAR

Sayid Rizo Alizoda «Turkiston - bizning Vatanimiz» maqolasida o'zining ona-yurtga bo'lgan cheksiz mehr- muhabbatini buyuk his-tuyg'u bilan izhor qilib, xalqni Vatan himoyasiga chaqiradi⁷⁴: «Bizning Vatanimiz - Turkiston taqdiri zulmkor chor hukumati qo'lida bo'lganida, Vatanimiz tuprog'ini zulmkorlar toptaganida, qimmatli Vatanimiz nomusi o'zgalarning qonli changalida azob tortganida, Turonning haqiqiy farzandlari hokimlarning qonli changalida yekanida, ular bizni Vatanimizning barcha ne'matlaridan

⁷¹ Фарход Ализода. «Бизнинг тарих». «Самарқанд» газетаси, 2007 йил, 22 декабрь, 4-бет.

⁷² Қодир У. ва Ализода Ф. "Ассалом. аҳли замон!" (Здравствуйте, современники). - Самарқанд. 2002.

⁷³ Умеров Сайди. Самарқандлик маърифатпарвар (Просветитель из Самарканда). - «Зарафшон» газетаси, 2008, 19 январь, 3-бет.

⁷⁴ Қодир У. ва Ализода Ф. "Ассалом. аҳли замон!" (Здравствуйте, современники). - Самарқанд. 2002.

mahrum yetardilar va biz o'z Vatanimizga begona bo'lar yedik, biz o'zimizni Turondan tashqarida xisoblardik. Vatanning jigarni qon qiluvchi nolalari bizga ta'sir qilmasdi»⁷⁵.

«Shu'lai inqilob» jurnalining 1919 yil 4-sonida Sayid Rizo Alizoda Vatan istiqboli yo'lida qurbon bo'lish, uning baxt-saodati va sharafigi himoya qilish uchun kurashishni muqaddas ish, deb biladi: «Shu yerning ob- havosidan baxramand bo'lib kamol topsangu, uning sharafigi himoya qilmasang, oyoq osti bo'lishiga, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajnabiy o'z Vatani shon-shavkati uchun ota-bobolaringning kindik qoni to'kilgan yeringni vahshiylarcha toptab, qonini simirsa va uni o'zining axlatxonasiga aylantirsa-yu, sen hissizlarcha qarab tursang yoki undan qochsang, o'zing uning xaqoratlanishiga ko'maklashsang, unda sen bu vatanning nomusli va sodiq farzandi yemassan!»⁷⁶ Sayid Rizo Alizoda Vatanga bemehr kishilarni pastkash-razil va hatto hayvondan ham tuban hisoblaydi⁷⁷.

«Biz Vatanimizni loqal shuursiz hayvonlarcha sevmaymizmi? Axir, ularning uyiga begona bir hayvon kirmoqchi bo'lsa, uni yo'qotish uchun ular tishlari va oyoqlari, panjalari va shoxlari bilan hujum qilmaydilar? Yoki xonadonlariga o'g'ri va talonchilar hujum qilganda, ularni yo'qotish uchun o'sha dargoh yegasi kurashmaydimi? Nahotki bizning o'sha xonadon yegasichalik vatanparvarlik g'ayratimiz bo'lmasa?» Sayid Rizo Alizodaning bunday publisistik jonfido maqolalari o'sha yillarda ham katta ahamiyatga yega bo'lib, o'quvchilarning milliy iftixori va vatanparvarlik hissini oshirar, o'z yurtini himoya qilishga da'vat yetardi. Alizodaning vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan bunday maqolalari o'z qadrini yo'qotmaydi. Ular yosh avlodni yurtparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb yetadi.

Sayid Rizo Alizoda yuqorida aytgan so'zlariga sodiq qolib, hayotining og'ir damlarida ham unga yuborilgan takliflarni rad qilgan. Uni yaxshi yashab-ishlash uchun Ozarboyjon, Yeron, Turkiya, Hindiston, Pokistonga taklif yetib, bu mamlakatlarning rahbarlari maktub yoki o'z maslahatchilarini yuborganlarida ham u qulluq qilib: «Men yashagan Vatanda

⁷⁵ Йўлдошев Бекмурод. «Шарк маърифатпарварлигининг йирик вакили». «Зарафшон» газетаси, 2008 йил, 2 февраль, 3-бет.

⁷⁶ Фарҳод Ализода. «Бизнинг тарихи». «Самарқанд» газетаси, 2007 йил, 22 декабрь, 4-бет.

⁷⁷ Умеров Сайди. Самарқандлик маърифатпарвар (Просветитель из Самарканда). - «Зарафшон» газетаси, 2008, 19 январь, 3-бет.

ham yumushlar ko'p», - deb javob bergan⁷⁸.

Ma'lumki, Shurolar hokimiyatining bayrog'i Turkiston ustida Buxoro amirligidan oldinroq osilgan. Turkistonda sho'ro g'oyalari avj olgan bir paytda Buxoroda ko'plab kishilar yolg'on-yashiq tuhmatlar bilan hibs qilinar, qatl yetilar, bolalar yetim, ayollar beva bo'lib qolishardi.

Sayid Rizo Alizoda shu noxush voqyealardan tashvishlanib «Buxoro, uyg'on!» va «Buxoro xabarлари munosabati» nomli maqola yozib, unda Buxoro mehnatkashlariga nisbatan o'zining muhabbati, hayvontabiat zolimlarga qahr-nafratini bayon yetadi. «O, Buxoro, Buxoro! Sening tuprog'ing abadiy jaholat bilan qorishganmi? Sening xamiring mangulikka vahshiy niyat bilan qorishganmi? Nima sababdan yigirmanchi asr madaniyati senga zarracha ta'sir qilmaydi? Qo'zg'al, harakat qil, butun dunyo sening jaholat va vahshiylicingdan zerikyapti. Dunyo tozalandi, yashardi, o'zgardi. Nahotki sen hali ham daqiyunusdan qolgan yeski zamonda qolib kesang?»

Sayid Rizo Alizoda o'zining bu maqolasida Buxoro xalqini qurbon berishdan qo'rqmaslikka, umidsizlanmaslikka, kurashdan to'xtamaslikka chaqiradi. Alizoda Buxoro amirligini ag'darishda bevosita ishtirok yetgan bo'lmasa-da, uning gazeta va jurnallarda bosilgan ko'plab maqolalari bu yo'lda katta xizmat qilgan⁷⁹.

Buxoro arki ustida go'yo xalqni tabriklaganday Shurolar bayrog'i xilpiragan bir paytda Sayid Rizo Alizoda «Buxoroning istibdod haykali ag'darildi» sarlavhali maqola yozdi: «Bu odamxo'r dev, ming-minglab gunohsizlarning qonini simirib, iflos nafasi bilan madaniyat olamini bulg'agan vahshiy mahv bo'ldi... Dunyo millatlari ilm- ma'rifat tufayli havoda parvoz yetib, suv ostiga sho'ng'iyotgan bir asrda, fan va texnika taraqqiyotidan bir necha daqiqada G'arbdan Sharqqa va Shimoldan Janubga xabar yetayotgan bir zamonda, mamlakatlar rivojlanishi natijasida gulistonga va millatlar farishtaga aylanayotgan bir vaqtda Buxoro hukumati ko'rshapalak singari ko'zlarini yorug'likdan yumib, zulmat vodiysida uchgancha jaholat daryosiga g'arq bo'ldi. Bugun nafaqat biz, balki butun jahon quvonishi kerak»⁸⁰.

1991 yilning bahorida BMTning YuNESKO bo'limi tashabbusi bilan tashkil qilingan

⁷⁸ Йўлдошев Бекмурод. “Шарқ маърифатпарварлигининг йирик вакили”. “Зарафшон” газетаси, 2008 йил, 2 февраль. 3-бет.

⁷⁹ Тошев Ф. Саодат асри. - “Зарафшон” газетаси, 2008, 11 март.

⁸⁰ Тошев Ф. Саодат асри. - “Зарафшон” газетаси, 2008, 11 март.

«Buyuk ipak yo'li» xalqaro ilmiy yekspedisiyasi Samarqandga tashrif buyurganida Salohiddin Hayitov bilan birga u kishining uyida mazkur yekspedisiyaning rahbarlaridan biri, tehronlik olim, doktor Nosir Takmil Humoyun bilan tanishib, bu nufuzli olimni hamkorlikka da'vat yetgan yedik. Bu qadimshunos olim Sayid Rizo Alizodaning hayoti va ijodiga doir bizda mavjud materiallar bilan tanishib, o'z yurtiga qaytib ketgan yedi. Olim Yerondagi nufuzli kutubxonalardan Sayid Rizo Alizoda haqidagi materiallarni, uning asarlarini, Alizodalar sulolasining Mashhad va Quchon shaharlarida istiqomat qiluvchi avlodlarini topib, ular bilan yaqindan tanishib, Yeronda nashr qilinadigan nufuzli ijtimoiy-siyosiy, madaniy jurnalning 1993 yil avgust oyidagi 8-sonida 45 sahifadan iborat katta maqola ye'lon qildi. Parijda Sorbonna universitetini tamomlagan doktor Nosir Takmil Xumoyunning Sayid Rizo Alizoda haqidagi «O'rta Osiyoning kurashchan olimi» deb nomlangan ushbu maqolasida biz uchun yangi va qiziqarli bo'lgan faktlar uchraydi. maqolada Samarqandda, Buxoroda, qolaversa, Markaziy Osiyoning turli shaharlarida qadimzamonlardan ye'tiboran o'zbeklar, tojiklar, ozarboyjonlar bilan yelkama-yelka, qonqardosh bo'lib yashab kelayotgan yeronliklarning tarixi «Samarqandda yashaydigan yeroniylar aslida Yeron turklari yo bo'lmasa ozarboyjonliklaridirlar» deb ko'rsatiladi («Lenin yo'li» gazetasining 1991 yil 28 iyundagi «Samarqand yeronilari» nomli maqoladan). Sayid Rizo Alizodaning shajarasi, uning Markaziy Osiyo va Sharq dunyosida tutgan nufuzli o'rni, ilmiy-ijodiy merosining ahamiyati, insoniyat oldidagi xizmatlari foto va boshqa hujjatlar asosida yoritib berilgan.

Xususan, doktor Nosir Takmil Humoyun Sayid Rizo Alizoda asrimizning 20-yillarida o'zi asos solgan va bosh muharrir bo'lgan «Shu'lai inqilob» haftalik jurnalida o'sha davrning muhiti, ijtimoiy-siyosiy vaziyatini xolisona yoritib borganligini qayd yetib, uning «Butun dunyo yo'qsillari, birlashingiz», «Inglizlar va islom dunyosi», «Ingliz tarafdorlari o'qib olishsin», «Turkiston - bizning Vatanimiz» degan va shu kabi boshqa maqolalaridan parchalar keltiradi. Sayid Rizo Alizoda «Ingliz va islom dunyosi» maqolasida boskinchilik va mustamlakachilik siyosatini, xususan, Buyuk Britaniya davlatining razil maqsadini qahr- g'azab bilan fosh yetadi va: «Ingliz davlati insoniyat olamining dushmanidir. U zaif millatlarni qo'l ostiga olishni istaydi. Turkiyani bu qora kunlarga kim tushirdi? Yeron va

Afg'onistonni kim oyoq osti qildi? Albatta, ingliz» - deb tugatadi o'z maqolasini⁸¹.

Bundan tashqari, «Shu'lai inqilob» jurnalida Sayid Rizo Alizoda «Turkiston musulmonlarining fojealari», «Yeronda ahvol» kabi o'tkir maqolalari bilan chiqadi. U jurnalning 51-sonida «Sharq inglizlarga qarshi chiqdi» maqolasida yozadi:

«Shu vaqtgacha bir-birlaridan uzoq va begona bo'lgan, bir-birlarining dard-alamlaridan bexabar sharq aziz farzandlarining g'aflat va nodonligidan begonalarga qul bo'lgan Sharq faqat ularning manfaati yo'lida yuz yillardan beri bir-birlarining yurtlariga bostirib kirib, qon to'kkan, shu paytgacha bir g'arb boyonlariga asir bo'lgan sharq bugun baland ovoz bilan sharq sharqiylarniki, uning takdiri sharqlilar qo'lida bo'lishi kerak, sharq ne'matlarini sharqliklarning o'zlari iste'mol qilishlari darkor»⁸².

Sayid Rizo Alizoda 1921 yilda «Bizning bugungi vazifamiz» maqolasida bolsheviklarni qattiq tanqid ostiga oladi⁸³. Bolsheviklar partiyasi «Harbiy kommunizmga o'tib, boy amaldorlar va oddiy xalqning qo'lidan bor-yo'g'ini, asbob-anjomlarini tortib oladi. Go'yo bu tortib olingan narsalarga ishchi-dehqonlar va qizil Armiyaga g'alla va oziq-ovqat olib berarmish». Alizoda hukumatning bu qarorini Turkiston viloyatlarida tatbiq yetishda dastlab jiddiy xatolarga yo'l qo'yilganini qoralab yozgan. Bu mazmundagi maqolalari oddiy xalqni xushyorlikka, o'z insoniy huquqlarini himoya qilishga chaqiradi.

Sayid Rizo Alizoda avlodi bo'lganim uchun, deb yozadi F. Alizoda o'z kitobida, voqyealarni kelajak avlodlarga ruy-rost yetkazmog'im shart. Jumladan, 1980 yilda Do'shanbedagi «Irfon» nashriyotida Sadriddin Ayniyning «Shu'lai inqilob» jurnalidagi maqolalari to'plam bo'lib nashrdan chiqqan. Bu tuplamni bobomiz avlodlari o'qib ko'rishganda, yellikdan ortiq maqolalar Sayid Rizo Alizoda qalamiga mansub yekanligi aniqlandi. Bizlar bu xaqda «Irfon» nashriyoti hamda Dushanbe rahbarlariga xabar qildik. Afsuski, bu to'plam o'zgarmay qoldi. Albatta, bu ustoz Ayniyning gulistoniga gul o'rniga tikan yekish, degan so'z. Tuplamning muallifi Ayniyning yaqinlaridan biri yekanligi ma'lum bo'ldi⁸⁴.

Sayid Rizo Alizoda jurnalda Yeron xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi olib

⁸¹ Тошев Ф. Саодат асри. - «Зарафшон» газетаси, 2008, 11 март.

⁸² Йўлдошев Бекмурод. «Шарқ маърифатпарварлигининг йирик вакили». «Зарафшон» газетаси, 2008 йил, 2 февраль. 3-бет.

⁸³ Умеров Сайди. Самарқандлик маърифатпарвар. - «Зарафшон» газетаси, 2008, 22.январь.

⁸⁴ Ализода Ф.Т. Мўъжиза институти. — «Зарафшон» газетаси, 2008, 28 январь.

borgan kurashi, uning ozodlik harakatlariga bag'ishlab qator maqolalar ye'lon qildi. U o'z maqolalarida Yeron xalqini yangi hayotga da'vat yetar, muvaffaqiyatlari va ozodlik yo'lida bosgan olg'a qadamlaridan quvonardi⁸⁵. Bundan tashqari, yozuvchi olim Sherali Turdiyevning «Jahon adabiyoti» jurnalida (2008 y. oktyabr, 200-203 b.) bosilgan «XX asr boshlarida Yeron va Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalari» maqolasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Sayid Rizo Alizodalarning «Oyina» jurnali, «Xabarxoi Telegrafot» (buni Sayid Rizo Alizoda o'z kissa xarji va qalami bilan 1915 yilda chiqargan), keyinchalik o'zi asos solgan «Shu'lai inqilob» jurnalida Yeron, Turkiya va Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va bu yerlardagi milliy mustaqillik uchun bo'lgan harakatlar keng yoritilgan. Muhammad Ali kabi ko'g'irchoq shohlardan foydalangan ajnabiy davlatlar, Angliya, Rossiya hukumatlariga malaylik qilib, mamlakat va xalq moddiy boyliklari ularga talatib qo'yilganligi qattiq tanqid ostiga olinadi⁸⁶. «Sovet davlatining dastlabki yillarida Turkiston bilan Yeron orasida bo'lib turgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqalar kommunistik rejimning g'oyaviy nazorati kuchayishi bilan asta-sekin so'na boshlaydi. Bora-bora Turkistonda faol ish olib borgan O'zbek va tojik taraqqiyparvar ziyolilari go'yoki chet yel agenti, Turkiya, Afg'oniston yoki Yeronning josuslari bo'lgan, Turkistonda sovet tuzumiga qarshi tashviqot olib borgan, degan soxta ayb bilan qatag'on qilib yuborildi. Jumladan, Sayid Rizo Alizodaning og'ir qismati bunga yakqol misol bo'ladi», - deb yozadi u.

Bir kuni, deb hikoya qiladi F. Alizoda, Samarqandlik tarixchi olim, professor; Aliaskarov bilan uning uyida Sayid Rizo Alizoda haqida so'z ochib aytdim:

«Yuriy Niquolayevich, siz Samarqand tarixini yaxshi bilasiz. Sadriddin Ayniy bilan O'zGUda ishlagansiz, shahrimiz tarixiga bag'ishlab bir necha kitoblar yozgansiz, nega yendi bir hafsala qilib, Alizoda ijodiga bag'ishlab bir kitob yozmaysiz?» deganimda professor menga shunday dedi: «Men hali bobongiz ijodini to'liq o'rganganim yo'q». 1970-1980 yillarning boshida ko'plab gazeta, jurnallarda Alizodaga bag'ishlab maqolalar yozilgandi. Hatto professor Aliaskarov Moskvada chiqadigan markaziy «Uchitelskaya gazeta»da 1981 yil 4 avgustda «Kto avtor o'zbekskogo i tadjikkского bukvarya?» degan

⁸⁵ Сайди Умеров. Самарқандлик маърифатпарвар (Просветитель из Самарканда). - “Зарафшон” газетаси, 2008, 19 январь, 3-бет.

⁸⁶ Йўлдошев Бекмурод. “Шарқ маърифатпарварлигининг йирик вакили”. “Зарафшон” газетаси, 2008 йил, 2 февраль. 3-бет.

xabar ham yozgandi⁸⁷. Keyin bu axborotni «TASS» butun ittifok gazetalarida chop yetgan yedi. Bir kuni professor Aliaskarov menga telefon qilib: «Darhol biznikiga kel, gap bor», - dedi. Borsam o'zining kitoblar joylashgan zalida (bu yerda bir necha ming kitob saqlanardi) qo'lidagi bir qog'ozni menga uzatdi. Bu Bokudan, Ozarboyjon yozuvchilari markazidan kelgan telegramma yedi. Telegrammada professor Aliaskarov bilan meni 1982 yil 3 fevralda Bokuda Sayid Rizo Alizodaning tug'ilganiga 95 yil to'lishi munosabati bilan Ozarboyjonda o'tkaziladiga ilmiy konferensiyaga taklif yetishgan yekan. «Yubiley komissiyasi siz bilan Farhod Alizodaning shu anjumanga kelishlaringizni iltimos qiladi», - deyilgandi unda. Afsuski professor kasalligi va kishning o'rtasi bo'lganligi sababli Bokuga borolmadi. Uning o'rniga ilmiy konferensiyaga mening maslahatim bilan SAMDU da arab tilidan dars beruvchi Sayid Jamol Mirjafarov borgan yedi. Yuqorida bergan savolimga u chuqur o'yga tolib, nafasini rostlab, o'rnidan turib shunday dedi: «Bu savoling juda ham haqli, ammo... Sayid Rizo Alizodaning to'liq ijodini yozib yaratishga ko'p yillar kerak. Chunki asarlari birgina sharq mamlakatlarida yemas, balki g'arbda ham nashrdan chiqqan. Sayid Rizo Alizoda ijodi haqida yozishdan oldin dunyoning ko'plab mamlakatlariga safar qilib, u yerdagi arxivlarda o'tirib, ularda chop yetilgan gazeta, jurnal va kitoblarning taxlamlarini varaqlab chiqish kerak. Buning uchun fors, turk, arab, urdu, ingliz va yana bir necha tillarni yaxshi bilish kerak. Chunki Sayid Rizo Alizoda o'n turt tilda asarlar qoldirgan. Sayid Rizo Alizoda XX asrning 30-yillarigacha sharq olamida mashhur bo'lgan va katta hurmat qozongan⁸⁸. Alalxusus Yeronda, Afg'onistonda, Pokistonda uni bu mamlakatlarga ishga taklif qilganlar. 1939 yilda Moskvada yeronshunos olim, «Turkiston» asarini yozgan akademik Bartoldning bobongiz haqida aytgan gaplarini yeshitganman. Bartold bilan Bertels Sayid Rizo Alizodaga yuqori baho berib, xozirgacha Urta Osiyoda unga teng tilshunos va jurnalist o'tmagan», - deb aytgan⁸⁹. Aliaskarov menga: «Jami o'n sakkizta kitob yozganman. Agar Sayid Rizo Alizoda haqida bir dona kitob yozganimda shu o'n sakkizta kitob bilan barobar bo'lar yedi. Afsuski, yoshim yetmishdan oshayapti, tobim yo'q, ikkinchi jahon urushi ham salomatligimga ancha ta'sir qilgan. Agar yana 20 yil yashaganimda, albatta

⁸⁷ Ализода Ф.Т. Мўъжиза институти. — “Зарафшон” газетаси, 2008, 28 январь.

⁸⁸ Фарход Ализода. “Бизнинг тарих”. “Самарқанд” газетаси, 2007 йил, 22 декабрь, 4-бет.

⁸⁹ Ализода Ф.Т. Мўъжиза институти. — “Зарафшон” газетаси, 2008, 28 январь.

bobongiz haqida kitob yozgan bo'lar yedi. Bu aytilgan va yeshitgan gaplarimning hammasini boshim tuplab kuyganman», - dedi⁹⁰

1920-yillarda O'zbekistonning xavfsizlik vaziri Kattaqo'rg'onlik Do'st Ustoboyev bo'lgan. U 1960 yilda Sayid Rizo Alizodaga qo'yilgan ayblar bilan bir qatorda uning boshi uchun ingliz razvedkasi katta mablag' ajratganini ham aytgandi⁹¹. Buning boisi shuki, Sayid Rizo Alizoda Turkistondan tashqari 1918-1922 yillarda Yeronda, Turkiyada, Hindistonda va arab davlatlarida chop yetiladigan gazeta jurnallarda ingliz bosqinchi-mustamlakachilariga qarshi chiqib, hushyor bo'lishga da'vat qilgan. Bu holatdan cho'chigan ingliz hukumati Yeronning Mashhad shahriga o'z razvedkasini joylashtirgan. Razvedka rezidenti general Mallison «Kimda-kim Alizodaning boshini olib kelsa, katta mukofot oladi», - degan.

Bundan tashqari, Sayid Rizo Alizodaga ochilgan materiallar maxfiy arxivlarda saqlanayotgan bo'lishi kerak. Sayid Rizo Alizoda Yeron inqilobiga borish uchun Ashxobodda olti oy kutib turadi. Ammo razvedka Yeron tarafidan deyarli har kuni xabar yetkazib turgan, ingliz razvedka xodimlari bilan Yeron shohining chegaradagi askarlari Sayid Rizo Alizoda rasmini ko'paytirib, cho'ntaklarida olib yurganlar. Chegarada Yeronga ketadigan har bir savdogar yoki sayyohga Alizodaning sur'atini ko'rsatib: «Sizlar shu gazetchi Alizodani yo'lda uchratmadingizmi?» - deb so'raganlar⁹².

Sayid Rizo Alizodaning nabirasi F. Alizoda Yeronga safari xususida quyidagilarni xotirlaydi;

2006 yilning noyabr oyi oxirlari yedi, Moskvada uyimga qo'ng'iroq qilib, Yeron - Rossiya do'stlik va madaniyat aloqalari jamiyati raisining kotibi jamiyat uyiga kelib ketishimni iltimos qildi. Yertasiga borib jamiyat raisi janob Moliki bilan uchrashdim. U: «Siz Yeron Islom Respublikasi prezidenti doktor Mahmud Ahmadi Najot ro'yxatiga tushgansiz, - dedi. «Xo'p, xizmat!» - deb so'radim «Shu yilning dekabr oyida Tehronda dunyo yeroniylarining kongressi bo'ladi. Bu kongressga dunyoning 48 mamlakatidan namoyandalar taklif qilingan. Rossiya rahbarlari bilan kelishgan holda faqat siz taklif

⁹⁰ Ализода Ф.Т. Мўъжиза институти. — “Зарафшон” газетаси, 2008, 28 январь.

⁹¹Тошев Фармон . “Мен Фарход Ализодаман”. - “Зарафшон” газетаси, 2006 йил 28 декабрь, 4-бет. №160-161.

⁹² Ёўлдошев Бекмурод. “Шарқ маърифатпарварлигининг йирик вакили”. “Зарафшон” газетаси, 2008 йил, 2 февраль. 3-бет.

yetilgansiz. Shuning uchun siz ikki mavzuda ma'ruza qilishingiz kerak, birinchisi - bobongiz Sayid Rizo Alizoda ijodidan, ikkinchi ma'ruza «Yeroniylar Rossiyada qachon paydo bo'lgan?», degan mavzuga bag'ishlanadi. Keyin ma'ruzalarni bizga keltirib berasiz. Biz yozgan ma'ruzalaringizni Tehronga, dunyo yeroniylari kongressi tashkiliy komissiyasiga yuboramiz. U yerda tahririyatdan o'tgandan so'ng Sizga qo'ng'iroq qilib, natijasini aytamiz», - dedi janob Moliki... . 2006 yil 1 dekabrda Yeron yelchixonasidan qo'ng'iroq qilib: «Janob Alizoda! xorijiy pasport va boshqa hujjatlarni olib yelchixonamizga keling», - dedi yelchixona kotibi. Shu tariqa hamma hujjatlarni tayyorlab, 3 dekabr kechqurun soat 21⁰⁰ da Moskvadagi Sheremetevo ayeroporti- dan «Boing» samolyotida uchdik... ko'p o'tmay samolyotimiz Tehrondagi xalqaro «Mehrabo» nomli ayeroportga qo'ndi. Samolyotdan chiqib zinadan tushayotganimda bir soqolli yigit qo'lida uzun cho'pga qoqilgan taxtachada arab imlosida Farhod Alizoda, deb yozilgan nishonani ko'tarib turganiga ko'zim tushdi.

Men unga: «Og'o, Farhod Alizoda men bo'laman», - deb aytdim. U men bilan salomlashib, trap yonida turgan yengil mashinaga o'tirishni taklif qildi. Meni ayeroportda qarshilab olgan yigitning ismi Ali yedi. O'zi mashinani yarim soatga yaqin Tehronning chil chiroq yonib turgan ko'chalaridan haydab, meni 16 qavatli, Yelbrus tog'ining ajoyib go'shasida qurilgan mehmonxonaga keltirdi. Mehmonxona foyesida mendan tashqari Braziliya, Yaponiya, Xitoy, Argentina, Ispaniya, Hindiston, Germaniya va boshqa davlatlardan taklif qilingan delegatlar o'tirgan yedilar. Ko'p o'tmay bizlarni o'sha birinchi qavatda joylashgan restoranga ovqatga taklif qilishdi. Restoranda choy ichilgach, har birimizga ajratilgan xonalarga kuzatib, xona kalitini qo'limizga berishdi.

Yertasi, 4 dekabrda bizlarni shahardagi ajoyib! yodgorliklar bilan tanishtirishdi. 5 dekabr soat 10⁰⁰ da Tehronda yangi qurilgan milliy kutubxonaning hashamatli majlislar saroyida dunyo yeroniylarining kongressi ochildi. Dunyo yeroniylari kongressi ishtirokchilarini tabriklash uchun so'z kongress zalida og'o Mushaviriga berildi. U Yeron Islom Respublikasining diniy sardori Oyotullo Homayniy bilan prezident Muhammali Ahmadi Najotning kongress qatnashuvchilariga yuborgan tabrigini o'qib yeshittirdi. Shundan keyin delegatlarning chiqishlari boshlandi. Meni doimiy kuzatib yurgan do'stim Ali ozarboyjon tilini puxta bilar yekan. Men unga 6 dekabrda ma'ruza qilishimni aytib, «Men

o'z ma'ruzamni rus tilida yemas, Ozarboyjon tilida qilsam mumkinmi?» - deb so'radim. Ali: «Marhamat, agar arab yoki ingliz tilida gapirmokchi bo'lsangiz ham hyech qanday to'sqinlik yo'q», - dedi. 5 dekabrda men bobom Sayid Rizo Alizoda ijodiga bag'ishlangan birinchi ma'ruzamni o'qiy boshladim. Sayid Rizo Alizodaning XX asr boshlarida Yeron bilan bo'lgan aloqalaridan gapirib berdim. Alizoda Yeronda 1903 yildan boshlab chiqadigan demokratik «Ozod Yeron», «Storai Yeron» gazetasining bosh muharriri Ali Akbar Dexudo bilan yaqindan tanish bo'lgani va uning gazetalarini muntazam o'qib turgani, u Dexudoning ko'magida 8 pudlik toshbosmani Samarqandga yo'l azobiga qaramay olib kelgani, shundan keyin Samarqandda arab imlosida turli risola va gazetalar chop yetila boshlagani haqida gapirdim.

«1913 yilning 20 avgustidan Samarqandda «Oyina» jurnali chiqa boshlagan. Uning doimiy muharriri Mahmudxuja Behbudiy, mas'ul kotib Sayid Rizo Alizoda bo'lgan. Shu yillarda Yeronning Mashhad shahrida shoir Malik Shuoro Bahor Yeron demokratik partiyasining rahbari, Sayid Rizo Alizodaning qalamkash do'sti, «Navbahor» gazetasining muharriri bo'lgan⁹³. Malik Shuoroning maqolalari va she'rlari Alizoda tomonidan forsiydan o'zbekchaga o'girilib, demokratik jurnal bo'lmish «Oyina»ning №16, 18, 21, 34 sonlarida chop yettirilgan. Sayid Rizo Alizoda «Navbahor» gazetasining Samarqanddagi vakili bo'lgan. U gazetada Yeron shohining o'z xalqiga o'tkazgan zulmini qattiq tanqid qilib turgan. Alizoda Yeron demokratik partiyasi rahbarlari bilan juda yaqin aloqada bo'lib turgan», - deb kongress qatnashuvchilariga so'ylab berdim. Shuningdek, dunyoning 48 davlatidan tashrif buyurgan kongress qatnashchilariga ikkinchi ma'ruzamdan ham qiziqarli tarixiy faktlarni o'qib berdim. Bu quyidagi tarixiy sanalardir: IX-X asrlarda arab tarixchisi Arab Ibn Zaxir guvoxlik berishicha, Rossiyani Yeron bilan bog'lab typgan yeng katta omil Volga daryosi bo'lgan. Rossiyaning kemalari Volga daryosidan kezib, uning tojirlari Yeron, Xorazm va Arab davlatlari, hatto Oltin O'rda savdogarlari bilan oldi-sotdi qilar yedi. Yana rus tarixchisi N. Shavrov yozadi IX asrning birinchi yarmida Yeron Rossiya bilan yaqin aloqa bog'lagan yedi. Rus tojirlari Volga daryosidan Kaspiy dengiziga o'tib, Yeron qirg'oqlarigacha borar yedi. Ular Yerondan Rossiyaga shoyi,

⁹³Ализода Ф.Т. Муъжиза институти. — “Зарафшон” газетаси, 2008, 28 январь.

baxmal, atlas, ipak va turli shoyi parchalar, adras, bundan tashqari yong'oq, guruch va turli quruq mevalalar keltirardi. Shuningdek, Yeron, Rossiya va Shirvon (Ozarboyjon) orqali qimmatbaho taqinchoqlar hamda shirinliklar keltirib sotilardi. 1404 yilda ispaniyalik yelchi Klavixo Gonsales Samarqandga, Amir Temur huzuriga kelganda shahar bozorida Rossiya va Yeron tojirlarini uchratadi. 1472 yilda yesa Rossiyaning birinchi sayyoh tojiri Afanasiy Nikitin! Rossiya kemasida Yeron tojirlari bilan birga bu mamlakatga savdo qilish uchun ketadi. Rossiya bilan Yeron davlati orasidagi alokalar kundan-kunga rivojlanib boradi.

1606 yilda Yeron yelchisi Sayid Azim Peterburgga Muyulbekning o'rniga yelchi bo'lib keladi. O'sha paytda Yeron bilan Usmon imperiyasi aloqalari uncha ham yaxshi yemas yedi. Tarixchi yozadi: «Rossiya hamisha Yeron tarafida yedi. Alalxusus, 1707 yil 15 fevralda Muhammad Kozimbek davrida Rossiya imperatori Pyotr I farmon chiqarib, unda Yeron davlati uchun Rossiyaning chegaralari lang ochilsin, - deydi». Kozimbek vafotidan so'ng uning o'rniga o'g'li Tohirbek yelchi bo'lib keladi. 1784 yilda Yeronda, Gilon viloyatida qurg'oqchilik bo'lishi natijasida bu viloyat og'ir axvolga tushadi. Shunda Rossiya tezlik bilan yordamga keladi. Rossiyaning o'nlab kemalari bug'doy tashib kelib, bu viloyatda ochlik boshlanishining oldini oladi. O'z ma'ruzamda Rossiya - Yeron aloqalaridan gapirar yekanman, bu ikki davlatning aloqasi Oktyabr to'ntarishidan keyin sovuqlashishining sababi bolsheviklarning Yeronga qarshi yuritgan siyosatida yekanligi, bolsheviklar Yeronda ham kommunistik tuzum qurish niyatida bo'lgani, alalxusus, sho'rolar ittifoqida yashagan yeroniy olimu yozuvchilar va ziyolilarning bir guruhi turli bahonalar bilan ayblanib hibsga olingani haqida gapirdim.

Bu ikki ma'ruzam kongress qatnashchilari va kongress tashkilotchilari tarafidan ijobiy baholandi... . Kongress qatnashchilari bilan xayrlashish chog'ida ularga «Uylaringizga qaytgach, o'z mamlakatlaringizda chiqadigan gazeta va jurnallarda Sayid Rizo Alizoda ijodini yorisalaringiz», - deb iltimos qildim. «Albatta, o'zimiz ham shu fikrdamiz», - deyishdi ular⁹⁴.

Sayid Rizo Alizoda sho'rolar va'da qilgan hurriyat va istiklol puchga chiqishini bilib, har yerda paydo bo'lgan o'g'irlik, poraxo'rlik, aldamchilik illatlariga qarishi «Tayoq»

⁹⁴ Тошев Фармон . “Мен Фарход Ализодаман”. - “Зарафшон” газетаси, 2006 йил 28 декабрь, 4-бет. №160-161.

jurnalining 1920 yil 1-sonida: «Bolsheviklarning hukumat nomi bilan qilgan xiyonat va fisqlari musulmon xalqini musibat va balolar, mudhish oqibatlariga olib keladi», - deb hushyor ko'z, tiniq aql bilan ogohlantirgan yedi⁹⁵. Shuningdek, u yerk, hurriyat, tinchlik, osoyishtalik, ijtimoiy hayot, ma'naviyat, ma'rifat, adolat, insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik, til, adabiyot, san'at, hushyorlikka da'vat yetgan.

Xalqaro imperializmning yirtqich basharasini «ochib beruvchi» bolsheviklar siyosatiga shubha bilan qarovchi o'tkir maqola, feleton, bukletlar yozish uchun ko'p tilni bilishdan tashqari keng saviya, qomusiy bilim, jasorat, mahorat va bir qancha sifatlar talab yetilardiki, bularning bari Sayid Rizo Alizodada mujassam yedi. U bolsheviklarning bu siyosati puch yekanligi va uning kelajakda tanazzulga yuz tutishini sezib, 1923 yilda bolsheviklar partiyasini ko'ngilli ravishda tark yetadi. 1922 yil 27 oktyabrda «Zarafshon» viloyat gazetasi yana qayta o'z nomi bilan tiklanib, faoliyat ko'rsata boshlaydi. Uning 14-sonigacha G'ozii Yunus, keyin yesa avval Toshkentda chiqadigan «Turkiston xabarlarini» gazetasi muharriri bo'lib ishlagan Ali Ismoilzoda muharrirlik qiladi. Sayid Rizo Alizoda bo'lim boshlig'i hamda badiiy tarjimon qilib tayinlanadi. Bu gazetada tarjimon imzosi bilan juda ko'p maqollar, feleton va ocherklar ye'lon qilingan⁹⁶. Jumladan, 1923 yil 22 fevral sonida uning Osiyo jumhuriyatlari iqtisodiy konferensiyasi ishtirokchilariga murojaati chop yetilgan.

«Mazkur tadbirga Turkiston, Buxoro va Xiva jumhuriyatlarida qizg'in tayyorgarlik ko'rilayotir, - deyiladi maqolada. - Bu mazkur o'lkalar iqtisodiyoti hamda xo'jaligini yaxshilash uchun qo'yiladigan birinchi qadamdir. Har kanday islohotni amalga oshirish uchun jumhuriyatlar iqtisodiy sho'rosini saylash lozim. Saylovda ko'riladigan masalalar ichiga O'rta Osiyo jumhuriyatlari dorilfununlarini tashkil yetish, rahbariyat va mehnat masalasini ham kiritish lozim»⁹⁷. Shunga ko'ra, Sayid Rizo Alizoda 1927 yilda Samarqandda ochilgan universitet asoschilaridan bo'lgan, deyish mumkin. Keyinchalik u mazkur dorilfununda arab, fors tillaridan ham dars bergan. Masalan, 1933-1937 yil- larda shu dorilfununda Sayid Rizo Alizoda qo'lida Sh. Rashidov, Hamid Olimjon, O'tkir Rashid, Voxid Abdullayev va boshqalar tahsil olishgan. Alizoda 1923 yil 1 martda «Xalq

⁹⁵ Qodir U. va Alizoda F. "Assalom. aqli zamoni!" (Zdravstvuyte, sovremenniki)., - Samarqand. 2002.

⁹⁶ Toшев Фармон . "Men Farhod Alizodaman". - "Zarafshon" gazetasi, 2006 yil 28 dekabr, 4-bet. №160-161.

⁹⁷ Абдусаттаров С, Алескеров Ю.Н., Попов Г.В. Имя их-коммунисты. - Ташкент: Узбекистан, 1984, с. 137- 141.

sog'lig'ini saqlash» maqolasida aholini yuqumli kasalliklardan asrash, shahar va tumanlarda kasalxona, ambulatoriyalar qurish, dorixonalarni ko'paytirish, toza ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash muammolarini ko'tarib chiqadi⁹⁸. Sayid Rizo Alizoda Turkistonda san'at va madaniyatni rivojlantirish bilan bir qatorda teatr ishiga ham katta ahamiyat berish davlat rahbarlarining vazifasi, deb bilar yedi. U har safar Ozarboyjonga borganda Boku va Ganja shaharlarida bu masalada tanikli bastakor va teatr ustalari bilan fikr almashardi. Bokuda mashhur bastakor O'zeirbek Hojibekovdan ko'plab maslahatlar olar yedi. Masalan, Alizodaning iltimosi bilan 1918-1919 yil bahorida Bokudan bir guruh san'atkorlar Samarqandga yuborilgan yedi. 1919 yilning 21, 22, 23 martida «Navro'z bayrami» kunlarida «Hurriyat» uyida Samarqandlik san'atkorlar ijrosida Sayid Rizo Ali ozarboyjonlik san'atkorlar ko'magi bilan bastakor O'zeirbek Hojibekovning «U bo'lmasa bu bo'lsin» yoki «Mashadi Ibod» musiqali komediyasini O'zbek tilida sahnaga qo'ygan yedi⁹⁹. Keyinchalik rejissyor Oxundov yordamida «Arshin mol olan» komediyasini, «Layli va Majnun», «Asli Karam» operalarini ham sahnalashtirgan. Shuningdek, Xusain Jovidning «Shayx Sanon va Shaydo» dramasini O'zbek sahnasiga olib chiqishda katta yordam bergan. Bundan tashqari, fransuz dramaturgi Molerning «Zo'raki tabib» Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pesasini sahnaga qo'ygan. Sayid Rizo Alizoda uy-muzeyida bu xaqdagi ma'lumotlar saqlanmokda. Yana bir xabarda marhum Mahmudxo'ja Behbudiyning o'g'li Mahsumxo'ja Samarqand ko'mak uyushmasi tomonidan Boku shahriga o'qishga yuborilgani aytiladi. 1923 yil 18 martda «Yaqin Sharq xodisalari» sarlavhali maqolada Alizoda inglizlar tomonidan yaqin sharq mamlakatlarining oyoq osti qilinishi, ularning chegaralari talon- toroj yetilishi xususida kuyinib yozadi. U sharq xalqlarini birdamlikka, birlikka, bosqinchilardan qo'rqmasdan ularga qarshi chiqishga da'vat yetadi¹⁰⁰.

«Zarafshon» gazetasining 1923 yil 12 aprel sonida «Yasama vakillar» nomli katta maqola yozib, gazetaning birinchi sahifasida bostiradi. Maqolada davlat organlariga saylangan yoki tasdiqlangan soxta, besavod, ko'zbuyamachi va poraxo'r, ta'magir rahbarlar hamda ularning joylarga borganda qilgan xurmacha qiliqlarini ochiq-oydin fosh qildi. «Ular

⁹⁸ Ализода Ф.Т. Мўъжиза институти. — “Зарафшон” газетаси, 2008, 28 январь.

⁹⁹ Қодир У. ва Ализода Ф. "Ассалом. аҳли замон!" (Здравствуйте, современники). - Самарқанд. 2002.

¹⁰⁰ Тошев Фармон . “Мен Фарҳод Ализодаман”. - “Зарафшон” газетаси, 2006 йил 28 декабрь, 4-бет. №160-161.

ishchi-dehqonlarning po'stiga kirib, qonini kanaday so'rishdan boshqa ishi yo'q», - deydi. Gazetaning 15 aprel sonida S. Alizoda Turkiyadagi «Siyon-Rumo» konferensiyasi xususida so'z yuritadi. Bu tadbir Anqarada 1920 yil 20 aprelda bo'lib o'tgan va unda «Dardanel va Bosfor» ko'rfazlari kimga tobe bo'lishi muammosi qurib chiqilgan. Buning uchun Turkiya va Gresiya davlatlari rahbarlarini yarashtirish chorasi ko'rilgan. 1918-1920 yillardagi ocharchilik va ko'p o'tmay vaboning tarqalishi aholini og'ir holga keltirgan. Alizoda o'zining «Turkistonni g'alla bilan ta'min qilaylik» (1923 yil 1 aprel) sarlavhali maqolasida xalq turmushini yaxshilashning birdan-bir yo'li g'alla yetishtirishni ko'paytirish yekanligini ta'kidlaydi. Turkistonda uni ko'paytirish yo'l- yo'riqlarini tavsiya yetadi. «Zarafshon» gazetasining 1924 yildagi deyarli har 2-3 sonida Alizodaning maqolalari ye'lon qilib borilgan. Masalan, «Pushkinning 125 yilligi», «Germaniya bizning Berlindagi savdo vakolatxonamizga bostirib kirdi», «Milliy chegaralash», «Bir yo'lga kiraylik», «Yoshlar uchun kutubxona zarur» va shunga uxshash unlab maqolalar yozilgan¹⁰¹. Bulardan shu xulosaga kelish mumkinki, Sayid Rizo Alizoda o'z Vatanidagi hayotdan yaxshi xabardor bo'lishi bilan birga qo'shni mamlakatlar, dunyo voqyealari bilan ham qiziqkan. Besh-olti tilda xorij matbuotini muntazam o'qib turgan, ularni sharhlab borgan¹⁰². «Samarqand yeroniylari» maqolasida Samarqand yeroniylari tarixiga to'xtalib yozadi: «Samarqand yeroniylari aslida Bayramalixonning sarbozlari bo'lgan (sarboz - askar va zobitlar). 1740 yilda Buxoro amiri Shoh Murod ularni Marv (Mari) shahridan Buxoroga keltirib, u yerdan Turkiston shaharlariga tarqatgan. 1911 yilning statistikasida Samarqand yeroniylari ro'yxat bo'yicha 7 ming, 1917 yilda yesa 10 mingni tashqil yetganlar. Yeroniylar Turkistonda qadim zamonlardan yashaganlar Lyudmila Saldadze «Ibn Sina (Avisenna)» kitobinin (G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1983 yil) 98-betida, jumladan, yozadi (matn rus tilida bo'lgani uchun uni aslicha keltirdik): «Desyatiletiya ot arabov dorogo, odnako, stoilo Sogdu: было perebito pochtı vse naseleniye. Arabskiy polkovodes Nasr ibn Seyir ushel v Xorasan, chtoby nabrat tam novuyu armiyu iz persov, prignal yeye v Sogd - ne stolko

¹⁰¹ Микаилов Шамистон. «Самарқанд донишманди» — «Зарафшон» газетаси. 2007 йил 25 октябрь, 2-бет. №129.

¹⁰² Ализода Ф.Т. Мўъжиза институти. — «Зарафшон» газетаси, 2008, 28 январь.

dlya boyev (voyevat uje bylo ne s kem), skolko dlya podderjaniya naroda: ot persov i sogdian obrazovalsya novyy yetnos...». Bu fikrni asoslash uchun L. Saldadze L. Gumilyovning «Yetnogenez i biosfera jizni (Выпуск один. Leningrad, 1979. S. 70) kitobidagi qaydlariga tayangan. Samarqand yeroniylari asosan Yeronning Xuroson viloyatidandirlar. Ular «Qizil boshlar» deb ataladigan urug'dan bo'lib, hozirgi kunda Yeronda 100 mingga yaqin «Qizil boshlar» yashaydi. Bundan tashqari, «Qizil boshlar» Ozarboyjon, Turkiya, Afg'oniston, Pokiston, Suriya va Irokda ham uchraydilar. Samarqand yeroniylari ozchilikni tashqil qilgani uchun bular ona tilini, tarix, san'at va adabiyotlarini yo'qotganlar. Ammo din va mazhablarini saqlab qolishgan, qadimiy ona tillaridan hozirgi kunda unlab so'zlar saqlanib qolgan. Masalan: dada, boji, qardosh, nana, galdim, getdim, opar, oxsham, doyi, geja, u, galin, domot va boshqalar»¹⁰³.

1925-1930 yillarda Samarqand shahri O'zbekistonning poytaxti bo'lib, Bog'ishamol Samarqand yeroniylari tumani deyilib, bu tumanda ularga o'z tillarini, urf-odatlarini tiklash uchun milliy imkon berilgan. Hatto, tuman rahbarlari maxalliy yeroniylardan saylangan. Masalan: A. Rahimboyev, M. Yusupov, F. Odilovlar tuman partiya va ijroqo'm raislari qilib tayinlanganlar. 1930 yilning iyul oyida Yeron rayoni Bog'ishamol tumaniga aylantirilgan. Bu haqdagi 1930 yil hujjatlari Moskva arxivida saqlanib qolgan. Umuman, Buxoro va Samarqand yeroniylari tarixi bilan 1960 yillarda rus tarixchi olimlaridan Saxarova shug'ullanlangan. Bu hujjat ham Moskvada bor. Hozirgi kunda yeroniylarning ko'pchiligi o'zbeklar bilan qon-qarindosh bo'lib bir tan-bir jon bo'lib yashamoqdalar. Bag'rikeng o'zbek xalqi yeroniylarning jonajon O'zbekistonimizda turli sohalarda o'zbeklar bilan yonma- yon xizmat qilib, ilmda, madaniyatda va mehnatda nom qoldirganlarini qadrlab, Samarqanddagi bir necha ko'cha, mahalla va maktablarni ularning nomiga qo'yganlar. Masalan: Farajullo Mahmudov, Fatto Odilov, doktor Farhodi, Rahimboyev, Hoji Mo'min, Avazmahammad o'g'li, Hasan Obiddinov, Mir Yoqub Ibrohimov, Hasan Rajabzoda, Rizo Hoshimov, Hodi Shukurov va boshqalar shular jumlasidan- dir.

¹⁰³ Микаилов Шамистон. “Самарқанд донишманди” — “Зарафшон” газетаси. 2007 йил 25 октябрь, 2-бет. №129.

II.3. Sayid Rizo Alizoda hokining Samarqandga keltirilishi.

Sayid Rizo Alizoda hokining Samarqandga keltirilishi bevosita uning nabirasi Farhod Alizoda faoliyati va tashkabbusi bilan bog'liqki, u bu haqda quyidagilarni hikoya qiladi; 1977 yilning 27 aprelida kechasi bir tush ko'rdim. Tushimda Sayid Rizo Alizoda bobom, yenlarida oq ko'ylak- lozim, menga yaqinlashib, Farhodjon, sen yeski shaharga borib, falon xonadondan mening kitoblarimni uyga keltirib qo'y, men o'zim yaqinda qaytib kelib bu kitoblarni o'qiyman, dedilar. Men bobomni ko'rmaganman, ammo uydagi rasmlardan tushimda ko'rgan odam bobom yekanlarini aniq bildim. Yertalab hayron bo'lib turdim, bu tushni otamga aytdim va otamni mashinaga o'tkazib o'sha tushimda ayon bo'lgan xonadonga bordik. Otam o'sha yili og'ir kasal yedilar va avgust oyida olamdan o'tdilar. Biz xonadonni topib, qo'ng'irog'ini bosdik, uy bekasi chiqdi. Men ko'rgan tushimni aytib berdim, u ko'zlari ojiz umr yo'ldoshini chaqirib chiqdi, suhbatimizni tinglab turib, dedi: «To'g'ri, otam bobongizni ko'p ta'rif qilardilar, ammo otamning kitoblari shkaflar ortidagi javonda saqlanadi. Biz yesa devor bo'ylab shkaflar qo'yganmiz. Shkaflarni oldinga tortmay turib, devor orasidagi kitoblar turgan oynali javonlarni ochib bo'lmaydi», deb, bizlarni uyiga kiritishga ro'yxush bermadi. Noiloj, rahmatlik otam bilan uyga qaytib keldik¹⁰⁴.

Yertasiga yana shu voqyeani tushimda ko'rdim. Yertalab otamga tushimni ta'riflab berdim va bugun nima bo'lsa ham ichkariga kirib, shu kitoblarni ko'rishimiz lozim yekanligini aytdim. Bu safar uy yegasi bizlarni ichkariga taklif qildi. Shkaflarni bir amallab oldinga bir metr surdim. Devor bo'ylab oynalik javonlar ko'rindi. Otam arab imlosini yaxshi o'qir yedilar. Men u paytda arabchani o'qiy olmas yedim. Xullas, yertalab soat 10⁰⁰ dan to kechqurun 18⁰⁰ gacha oynali javonlarni ochib, u yerda saralab terilgan kitoblarni ko'rib chiqdik. Bu kitoblarning ichida bobomning yettita kitoblari va ikki jilddan iborat «Birinchi mukammal ruscha-tojikcha lug'at»ni topdik. Yeng kizig'i va hayajonlisi shunda yediki, bir kitobning ichidan 1945 yil 24 avgustda Vladimir turmasi boshlig'i buyrug'i bilan Samarqandga, Sayid Rizo Alizoda xonadoniga yuborilgan «Xabarnoma» (извещения)

¹⁰⁴ Ализода Фарход “Сухбат дафтари” № 1 2013 йил 3-октябр.

chiqdi. Bu xabarnomada «Vladimir» turmasida saqlanayotgan mahbus Sayid Rizo Alizodaga har kuni oziq-ovqat keltirib berishga ijozat yetilgani yozilgan yedi. Yana shu yerda mahbusni har kuni yertalab soat 9⁰⁰ dan kech soat 17⁰⁰ gacha ko'rish mumkinligi ham bildirilgandi. Bu so'zlarni o'qib, otam bilan mening boshimizdan qaynoq suv quyilgandek bo'ldi. Bizlarni birdan ter bosdi. Ikqalamiz ham bir-birimizga qarab, rangimiz uchib ketdi¹⁰⁵.

Biroz o'zimizga kelgandan keyin topgan kitoblarni xaltaga solib, benihoya mutaassir bo'lib, xonadonni tark yetdik. Yertasiga bu xabarnomani olib, shahar urush va mehnat faxriylari raisi Rahim Shokirbekovning huzuriga bordim. U ham uzoq yillar sho'ro lagerlarida o'tirgan yedi, shu sababli undan bu xabarnoma nimadan darak berishini so'radim. U vaqtda urush tamom bo'lmagan, Stalin va Beriya hayot yedi, ingliz josusiga «aylantirilgan» zotga bunday hurmatning boisi ne, deb qiziqdim. U: «Bu bir mo'jizaga o'xshaydi. Bu voqyea hyech bir aqlga sig'maydigan hodisa. Farhodjon, men o'n yetti yil Sibir lagerlarida mashhur rus, belarus, ukrain, arman va boshqa olim, yozuvchi, injenerlar bilan bir barakda bo'lganman, ammo hyech kimga bunday xushxabar yuborilmagan», dedi.

Yertasiga Il-18 samolyotiga o'tirib, Samarqanddan Moskvaga uchdim. 1 may kuni yedi. Moskvaga kelib, Shyolkovo degan maydondan taksiga o'tirib, Vladimir shahriga jo'nadim. Kechasi shaharga kirish oldidan knyaz Vladimir X asrda qurdirgan, tarixda «Zolotyie vorota» nomi bilan yuritilgan darvozadan o'tib, Frunze ko'chasiga kirib keldik. Taksini to'xtatib, yo'lovchilardan turma qayerda, deb so'radim. Turma shu kuchaning adog'ida yekan. Ko'p o'tmay, soat 9⁰⁰da dunyoga taniqli «Vladimirskiy sentral» turmasi yonida taksidan tushdim. Turma darvozasi yonida turgan kapitan va ikki serjant milisionerga yaqinlashdim. Ulardan turma boshliqlari bayramdan keyin qachon ishga chiqishlarini so'radim.

Ular mening qayerdan yekanligim bilan qiziqishdi. Samarqanddan kelganligimni aytdim. «Boshliq va turma ishchilari 3 mayda ishga chiqadi», - dedi kapitan. Haydovchidan meni biror yaqinroq mehmonxonaga olib borib qo'yishini so'radim. U meni o'sha yuqorida qayd yetilgan «Vladimirka» mehmonxonasiga olib borib tushirdi.... Mehmonxona gavjum

¹⁰⁵ Ализода Фарход “Сухбат дафтари” № 1 2013 йил 10-октябр.

..., odamlar xush kay- fiyatda. 2-kavatdan bir xonani olib joylashdim. Vannada cho'milib, soqolimni olib, restoranga ovqatlanishga tushdim. Restoran odamlar bilan lik to'la, musiqa tovushlari yangraydi... . Meni yesa bir fikr tinch kuymaydi: nima uchun xabarnoma bizga kelib yetmagan, buning siri nimada? Yana bobom Sayid Rizo Alizoda yakkashin xonada jon berib-jon olib yotgan paytda u qanday qilib Stalinning yodiga tushgan yekan. Axir u Samarqand, Toshkent, Chelyabinsk, Omsk, Tobolsk va Vladimir turmalaridan xalqlar dohiysi (Gori seminariyasidan haydalgan gurji bola) ga sho'ro xalqlarini ingliz bosqinchi-mustamlakachilar imperializmidan qutulish uchun ularga qarshi bir tan-bir jon bo'lib kurashish lozimligini bir necha bor gazeta-jurnallarda yozib jahonga yetkazgan yedi- ku. Nega yendi sakkiz yil chekkan azobdan keyin S. Alizoda uning yodiga tushdi yekan? Xatlar kelib yetmadimikin yoki yana S. Alizoda ustidan tuhmat qilgan odamlar ichki ishlar organlari xodimlari bilan til biriktirib, dohiyga yozilgan haqqoniy faktlardan cho'chib, xatlarni yo'q qilishdimikin? Ichki ayg'oqchi-dushmanlar o'zlaridan qo'rqib, hych qanday qabihlikdan qaytmasliklari ma'lum.

Sayid Rizo Alizoda keyingi yillarda turmadan xatlarni Samarqandga yemas, Jizzaxga yozgan. Jizzaxda 1939-1954 yillarda katta qizi Samarqand qishloq xo'jalik instituti «Zooveterinariya» fakultetini bitirib, og'ir yillarda oyog'ida yetik, yegnida uzun charm kamzul, qo'lida qamchi, katta qora otni minib kecha-kunduz, yaqin va olis qishloqlarda qurilgan qoramol fermalarida ishlagan. Bobomning Jizzaxga yozgan xatlaridan biri bizga kelib yetgan (bu.xat S. Alizoda uy-muzeyida saqlanadi). Xatda bobom kuyinib yozadiki: «Men Samarqandga deyarli 100 dan ortiq xat yozganman, ammo javob yo'q- Bilmayman, nima bo'ldi sizlarga». Yendi ma'lum bo'ldiki, haqiqatan uning dushmanlari va organ xodimlari pochta idorasi bilan kelishgan holda Sayid Rizo Alizoda yozgan xatlarni Samarqandda ushlab qolganlar. Sayid Rizo Alizoda uy-muzeyida saqlangan «Xabarnoma» ham yeski shaharga, boshqa manzilga yuborilgan¹⁰⁶.

Bu alg'ov-dalg'ov fikrlar miyamda g'ujgon o'ynab, «Vladimirka» mehmonxonasi restoranida mening stolimdan narida, derazaning tagida o'tirgan uch nafar qora sochli va mo'ylovli yigitlarga ko'zim tushdi. Sariq sochli, iltifotli ofisiantkalardan birini chaqirib..., undan deraza yonida o'tirgan qora sochli yigitlarning stoliga bufetdan bir shisha konyak

¹⁰⁶ Ализода Фарход "Сухбат дафтари" № 2. 2013 йил 17-октябр.

bilan bir plitka shokolad olib borib qo'yishini iltimos qildim va pulini o'zim to'lashimni aytdim. Ofisiantka men aytgandek qildi. Yigitlar ofisiantkadan so'ragan bo'lsa kerak, bir yigit stoldan turib mening oldimga keldi. Ruschalab, sizni o'rtoqlarim biz o'tirgan stolga taklif qilishyapti, dedi.

Tashakkur aytib, yigitlar o'tirgan stolga bordim... . Yigitlar asli abxaziyalik yekan. Stol ustida turgan ikki shisha «Stolichnaya» arog'idan biri ochilib, ozgina ichilgan. Yigitlarning kattasi Yuriy Chichikovich Gavriiliya shishani olib, hammamizga qadahlarini to'ldirib aroq quydi va o'zi qadahni ko'tarib, bu qadahni Samarqanddan kelgan hurmatli mehmon uchun olamiz, dedi. Shu paytda yigitlardan biri: «Aytingchi, hurmatli mehmon, sizni bu shaharga qanday shamol uchirib keltirdi», - deb so'radi. Shunda men ularga qarab: «Ye, aziz do'stlar, bu kun bahor bayrami, keling- lar, shu qadahni bayram uchun ko'taraylik. Bu shaharga kelishim sababi yesa bayram shodligiga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun, kelinglar, bu kechamiz shodlikka aylansin», - dedim.

Shunda yigitlarning uchalasi ham qo'llaridagi qadahlarini ichmasdan stol ustiga qo'yishdi, men ham qo'ydim. «Ayting, Farhod Tagiyevich, nima sabab bilan kelgansiz, balki sizga yordamimiz tegar», - deyishdi. Keyin ma'lum bo'lishicha, bularning ikkitasi KGB xodimlari, Gavriiliya yesa shahardagi «Nerl» nomli restoranda direktor muovini bo'lib ishlar yekan. «Bilasizlarmi, mening Vladimirga kelish sababim mana bu xabarnomada», - deya chuntagimdan pasportni chiqarib, ichidagi «Xabarnoma»ni boyagi savolni so'ragan yigitning qo'lga tutqazdim. Xabarnomani o'qib, kulib, chehrasi ochilib o'tirgan yigitlarning rangi bir zumda o'zgardi. Qog'ozni hammasi o'qib bo'lganlaridan keyin bulutning ostidan quyosh chiqqandek yana yuzlarida kulgi nishonasi paydo bo'ldi. Qog'ozni menga qaytarib berib: «Baxtli odam yekansiz, aziz mehmon», - dedi Gavriiliya. «Yendi qadahlarini olinglar, yaqindan tanishganimiz uchun ichaylik». Men ichmay qadahni qaytarib stolga kuydim. «Baxtli yigit, deganingizni qanday tushunsa bo'ladi», - deganimda u menga shunday javob berdi: «Bilasizmi, do'stim, men bobongiz o'tirgan shu turmada 5 yil boshliq o'rinbosari bo'lib ishlaganman. Turma boshlig'i Zavyalovning oziq-ovqat yetkazib berish bo'yicha muovini yedim. Bayramdan keyin 3 mayda o'zim turmaga propusk oldirib, boshliqqa olib kiraman. Qanaqa iltimoslaringiz bo'lsa yordam beraman», - dedi. Men undan juda minnatdor bo'ldim. Yendi bu kechani yaxshi o'tkazaylik, deb

qadahlar ko'tarildi. 3 mayda Gavriiliya mehmonxonaga kelib, o'zining «Volga» maʼinasiga mindirib, turmaga olib bordi. Turma boshlig'i Zavyalov odamohun inson yekan. Gavriiliya meni u bilan tanishtirib: «Bu kishi mening hamyurtim bo'ladilar, hozir Samarqandda yashaydi. Sizga ishi tushib kelgan», - dedida, menga haligi «xabarnoma»ni boshliqqa bering, dedi. Men hujjatni Zavyalovga uzatdim. Polkovnik «xabarnoma»ni sinchiqlab o'qidi. «To'g'ri, bu biz yuborgan «xabarnoma», buni mendan oldin ishlagan boshliq Jivago yuborgan, agar o'sha vaqtda bir-ikki kishi Samarqanddan kelganda, bobongizni asta chiqarib yuborsa bo'lar yedi. Chunki u kishi og'ir kasal bo'lgan, o'zi yurolmaydi, pasporti Samarqandda, NKVDda qolgan, pasporsiz poyezdda ketib bo'lmaydi, vagonlar urushdan qaytganlar va yaradorlar bilan to'la. Afsuski, bu «xabarnoma»ga ko'ra hyech kim Sayid Rizo Alizodani ko'rishga kelmagan», - dedi. Men polkovnikdan: «Aytingchi, bobomdan boshqa mahbuslarga ham shunday imtiyoz berilganmidi?» - deb so'radim. «Yo'q, bu necha mingdan bir kishiga berish mumkin bo'lgan imtiyoz, u ham bo'lsa turma boshlig'i buyrug'i bilangina berilishi mumkin. Hoynahoy, S. Alizoda shu 8 yilda biron marta xayfsan yoki jarima olmagan va turma qonun-qoidalarini buzmagani ko'rinadi». Shunday deb, stol ostidagi qo'ng'iroq tugmasini bosib, kotibasini chaqirdi va turma arxivariusi Olga Semyonovaga aytib, Sayid Rizo Alizodaning delosini olib kelishni so'radi. Ko'p o'tmay keksa ayol qo'lida sarg'ayib ketgan qalin bir deloni boshliq kabinetiga kelib, polkovnikning qo'liga berdi. Polkovnik arxivariiusdan: «Aytingchi, siz Sayid Rizo Alizodani ko'rganmisiz?», - deb so'radi. Ayol javob berdi: «Albatta, men u bilan turma kutubxonasida uchrashganman. U o'zbek yozuvchisi Oybek qalamiga mansub bir kitobning ruscha tarjimasini mendan kartochkasiga yozdirib olgani yaxshi yesimda. Men u vaqtda turma kutubxonasida ishlar yedim. U olgan kitobni 2-3 kunda o'qib tushirar, yana qurolli nazoratchi bilan kelib, kutubxonadan boshqa kitob olardi. Juda ham ziyoli odam bo'lib, chuqur ilmga yega yedi, turmada rus tilini undan yaxshi biladigan odam yo'q yedi. Turma arxiviga o'tganimdan keyin boshliq Jivago meni tez-tez chaqirib, S. Alizodaning Stalin, Molotov, Kaganovich, Voroshilov, hatto Kalininga yozgan xatlarini S. Alizodaning delosiga tikib qo'ying, deb menga berar yedi. Men bu xatlarni deloga tikishdan oldin qiziqib o'qirdim, so'ngra tikib qo'yardim. S. Alizoda yozgan xatlarni o'qib, hayron qolgan yedim. Avvalo u ko'p tillarni

bilar, keyin butun dunyo tarixidan yaxshi xabardor yedi. Rus tilida Stalinga chunonam xatlar yozganki, odam hayron qoladi. Bilmayman, nega shunday bilimdon olimni turmaga qamagan yekanlar. Uni boshliq, posbon va turma shifokori juda hurmat qilishardi. Mana shu deloda S. Alizoda yozgan o'sha xatlarning hammasi tikib qo'yilgan», deb Olga Semyonova kabinetdan chiqib ketdi. Polkovnik deloni ochib, alohida tiqilgan konvertning ichidan S. Alizodaning 3-4 dona rasmini chiqarib ko'rsatdi. Bulardan bittasi uning o'limidan oldin olingan rasm yekan. Bu rasmda bobom rahmatlining qovurg'a va jag' suyaklari qabarib chiqqan. Shu darajada ozib qolgan yekanki, faqat suyak bilan teri qolgan, holos¹⁰⁷.

Men bu sur'atni ko'rib o'zimni to'xtata olmadim, yig'lab yubordim. Bir amallab o'zimni qo'lga oldim va boshliqqa: «Shu rasmlardan birini menga bering», - dedim. U mumkin yemasligini aytdi. Men yonimda rangi o'chib o'tirgan Gavriiliyaga qarab, siz ayting, bitta rasmni bersin, dedim. Polkovnik menga: «Agar bu rasmni 15 yil ichida hyech kimga ko'rsatmasangiz beraman», - dedi. Men o'rnimdan turib, ikki qo'limni ko'ksimga qo'yib, qasam ichdim. Shunda u menga rasmlardan bir donasini berdi. (Men o'z so'zimda turib, to sho'ro davlati parchalangunga qadar rasmni hyech kimga ko'rsatmadim.) Keyin polkovnik bobomning delosida saqlangan, Stalin, Molotov va Voroshilovlar nomiga yozilgan bir necha xatlarini o'qimasdan ko'rsatdi. Shunda men yana o'zimni yo'qotib kuydim. Polkovnik darhol deloni yopdi. Gavriiliya meni ochiq havoga olib chiqdi. Mashinaga o'tirib, mehmonxonaga bordik. U yerda dam olib, Gavriiliya bilan yertasiga uchrashishni kelishib oldik. Yertasi kuni yertalab Gavriiliya yana keldi, men undan: «Bobomning qabrini qanday qilib topsak yekan», - deb so'radim. U Vladimir shahar dafn marosimlari bilan shug'ullanuvchi byurosiga telefon qildi. Ular: «Biz turmada o'lgan mahbuslarni ro'yxatga olmaymiz, ularni turma ma'muriyatining o'zi ro'yxatga oladi», - deyishdi. Biz yana turma boshlig'i idorasiga keldik. Gavriiliya boshliqqa maqsadimni aytdi. Boshliq kadrlar bo'limi boshlig'ini chaqirtirdi. Ko'p o'tmay bir kapitan kirib keldi. Polkovnik unga 1940-1950 yillarda turmada ishlagan shifokor, hamshira, posbonlarning manzilini topib keltirishni buyurdi. Ayni paytda uning ish stoli ustida bobomning delosi ochiq turar yedi. Polkovnik ajablanganimizni payqab: «Kecha sizlar ketgandan keyin men bu deloni

¹⁰⁷ Ализода Фарход "Сухбат дафтари" № 3. 2013 йил 20-октябр.

boshdan-oyoq o'qib chiqdim. Haqiqatan ham bobongiz 8 yilda birorta ogohlantirish olmagan yekanlar. Keyin bobongiz Stalinga yozgan bir xatida Ozarboyjonning atoqli bastakori, «Arshin mol-olon» operettasi muallifi, bastakor O'zeir Hojibekov bilan qarindosh yekanligini yozadi. (Stalin Hojibekovni juda ham hurmat qilgan, O'zeir Xrijbekov ikki marta Stalin mukofotiga sazovor bo'lgan, F.A.) Bobongiz Stalinga yo'llagan yana bir xatida Pushkin, Tolstoy, Gogollarning asarlarini o'zbek va tojik tillariga o'g'irganini yozgan. Shunga o'xshagan xatlar Molotov, Voroshilov va boshqalarga ham yo'llangan. O'g'li Sayid Tagi Alizoda 1930 yilda VKPBning XVI qurultoyiga O'zbekistonning 1925-1930 yillardagi 5 yillik g'alaba raportini do'sti Yusupov Sayidqosim bilan bir oy velosipedda yo'l bosib, 31 mayda Moskva Bolshoy teatri binosida bo'lib o'tadigan anjuman hay'atiga topshirgan. Ular qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan¹⁰⁸.

Mana bu ma'lumotnomada S. Alizoda bobongizning vafoti va qaysi qabristonda dafn yetilgani hamda qabr ustiga yozib qo'yilgan raqami keltirilgan. Turma shifokori va boshqa turma ishchilari dafn marosimida ishtirok yetganlari yozilgan. Agar kadrlar boshlig'i nomlari yozilgan odamlarning manzilini topib sizga bersa, shaharda ularni qidirib topib, ular orqali bobongizning qabrini topsa bo'ladi», - dedi.

Ko'p o'tmay turma kadrlar bo'limi boshlig'i o'zlarining arxividan bobom turmada bo'lgan yillarda ishlagan shifokor Bogatova Yekaterina Ivanovna, hamshira Yegoricheva Marusya, posbon Smirnov va Kuznesovlarning uy manzillarini topib keltirdi. O'rtoq Zavyalov bu manzillarni menga berib: «Agar yana qandaydir muammolar tug'ilsa, marhamat, kelinglar», - dedi xayrlashaturib.

Qizig'i shundaki, o'sha deloda bo'lgan xatlardan bir nechasini so'raganimda u bermadi. 1986 yilda borganimda, Zavyalov nafaqaga chiqib ketgan yekan. Deloni so'rab ko'rganimizda, ularning ichida birona xat yo'q yedi. Xatlarning hammasi Moskvaga, maxfiy arxivga yuborilgan bo'lsa ajab yemas.

Yertasiga Gavriiliya bilan mashinaga minib, Vladimir shahrida urush yillarida shu turmada shifokor, hamshira, nazoratchi bo'lib ishlagan va turmada o'tirgan boshqa odamlarni topdik. Bularni mashinaga mindirib, turma devori orqasidagi ko'hna qabristonga olib

¹⁰⁸ Ализода Фарход “Сухбат дафтари” № 4. 2013 йил 27-октябр.

keldik. Qabristonga 100-150 yil burun yekilgan qayin, lyon, lipa, qarag'ay, dub, akasiya, yel va boshqa turli daraxtlar soya tashlab turibdi. Bu daraxtlar go'yoki qabrlarning ustiga gul keltirib qo'ygandek tuyulardi. Quyosh charaqlab, daraxtlarga yorug'lik va issiq harorat berib turipti. Ochig'i, bu qabriston yemas, xuddi gulistonga o'xshab ketardi. Daraxtlar chiqargan xushbuy hid butun qabriston bo'ylab taralgan yedi. Biz turma boshlig'i aytgan joy, ya'ni mahbuslarimiz azaldan turma devori orqasida ko'milgan, degan yerga qarab bordik. Bir payt bizdan 20-30 qadam oldinda qo'lida 4-5 dona bahor gullari tutgan bir cholni uchratdik. U borib, devor ostidagi bir qabrning ustiga qo'lidagi gullarni qo'yib o'tirdi. Bizlar yaqinlashganda haligi soqollik kishi biz bilan kelgan ayolni tanidi. U salom berib, ayoldan, meni tanidingizmi, deb so'radi. Ayol birpas xayolga berilib, «Siz Fyodor Ivanovich yemasmisiz?» - deb so'radi.

«Ha, men o'sha Richago Fyodor Ivanovichman, siz turmada vrach bo'lib ishlagan yillari men nazoratchi bo'lib ishlar yedim». Bogatova Yekaterina Ivanovna: «Sizni yendi yesladim», - dedi va Fyodor Ivanovichdan: «Qabristonda nima qilib yuribsiz?» - deb so'radi. «Yodingizdami, 2-korpusda 17-nomerli kameraning posboni yedim. Bu kamerada olim, rus tilining bilimdoni Sayid Rizo Alizoda saqlanar yedi. Men hamma yotgandan keyin kamerani ochib, uning oldiga kirar yedim. Undan ko'p narsalarni, jumladan, Qadimgi Rus, Yevropa, Yaponiya, Xitoy va Turkiston tarixini yeshitgan yedim. U ajoyib inson yedi. O'lishidan bir necha kun oldin menga: «Qabrimni yo'qotmanglar, vaqti kelib, avlodlarim qabrimni izlab keladi», - degan yedi. Men bu gapni turma boshlig'idan ham yeshitgan yedim. O'shanda boshliq Jivago Alizoda o'lgandan keyin uning jasadini ko'mgan komissiya a'zolariga Sayid Rizo Alizodaning qabri ustiga kamera nomerini yozib kuyinglar, degan yedi. Dafn marosimida o'zim ham ishtirok yetganman, hozir sizlar turgan qabr ana shu», - deb aytdi. Shunda men bobomning qabrini quchoqlab: «Bekafanu beg'assol olamdan ko'z yumgan bobom», - deya yig'ladim. Atrofimda turganlar bundan hayratda qoldilar. Do'stim Gavriiliya qo'limdan ushlab, ko'tarib yupatdi.

Ularning hammasini restoranga taklif yetib, xristian odati buyicha choy tashkil qilib berdim. Restoranda Fyodor Ivanovich: «Men bobongizning vasiyatlarini bajo keltirish uchun har 5-6 oyda qabristonga borib, u kishining qabrini yovvoyi o'tlardan tozalab qaytaman», - dedi. «Yaratgan yegam u kishini rahmat qilsin, men 40 yildan ko'proq

nazoratchilik qilganman, ammo Alizodadek olijanob insonni ko'rmaganman», - deb ko'z yoshi qildi¹⁰⁹. Undan keyin vrach Bogatova Yekaterina: «U kishini sizlardan ko'proq men bilaman, chunki u mening lazaretimda (kasallar davolanadigan xona) 32-sonli kamerada og'ir kasal bo'lib bir necha oy yotdi va mening yonimda jon berdi. Siz aytgan gaplarni Alizoda menga ham aytgan yedi. Boshliq millatiga ko'ra yaxudiy bo'lgan, Alizoda qadimgi yaxudiylarning tarixini va tilini yaxshi bilar yedi. U lazaretga bir necha marta kelib, Alizodaning karavoti yoniga taburetka qo'yib, bu kishiga iloji boricha yaxshi dorilarni bering, derdi. Jivago ishdan bo'shagandan keyin yeshitishimizcha, u hatto ishdan keyin, kechalari Alizodaning kamerasiga kirib, undan «ibroniy» tilini ham o'rganar yekan», - degan gaplarni aytdi. So'ng Yekaterina Ivanovna: «Siz hozir bizlarga ko'rsatgan «xabarnoma»ni Samarqandga yuborishni Jivago men bilan ham maslaxat qilgan yedi. Afsus, bizlar yuborgan «xabarnoma» buyicha Samarqanddan xech kim kelmadi. Shundan keyin Alizodaning sog'ligi kundan-kunga orqaga ketdi. Ammo u chindan kimdir kelib, uni olib ketishiga ishongan yedi. Olloh rahmat qilsin, tuprog'i yumshoq bo'lsin», - deb qadahni ko'tardi. Ammo turmaning sobiq posboni Smirnov: «S. Alizoda qarindoshlari kelib, uni vataniga olib ketmasa-da, o'lganidan keyin qachon bo'lsa ham albatta hokini u sevgan Samarqandga ko'chiradilar, deb ishonganligi bejiz yemas yekan», - deb qo'lidagi ryumkasini urishtirmasdan ko'tardi. Suhbat oxirida men ularning hammasiga bobom tirikligida qilgan xizmatlari hamda unga ko'rsatgan yextiromlari uchun o'z tashakkurimni bildirdim va Samarqandga mehmonga taklif yetdim. Keyin abxaziyalik do'stim bilan turma boshlig'iga uchrab, unga yana bir bor rahmat aytib: «Yendi so'nggi bor yordam bering, u ham bo'lsa, S. Alizodaning qabrini ochib, uning qoldiqlarini vataniga olib borish uchun ma'lumotnoma yozib bersangiz», - dedim. Polkovnik Zavyalov: «Shu masala bo'yicha kelishlaringizni bilar yedim. Shuning uchun shahar «dafn marosimlari byurosi» boshlig'i Spiridonovaga telefon qilib so'radim. U menga bu masalada shahar hokimiga uchrash lozimligini aytdi», - dedi. Yertasi kuni shahar hokimi Magazin Robert Karlovichga uchradik. U bizni yaxshi qabul qildi va iltimosimga: «Siz Samarqand rahbarlaridan bitta «iltimosnoma» olib keling, qolgan ishlarni menga kuyib bering», - dedi. Magazin Robert Karlovichga qulluq qilib, kabinetidan chiqdik. Yertasi kuni Yuriy

¹⁰⁹ Ализода Фарход «Сухбат дафтари» № 5. 2013 йил 1-ноябр.

Chichikovich Gavriilya meni Moskvaga kuzatib qo'ydi.

Moskvadan samolyotga minib Bokuga keldim, u yerda Mursal Mursalov bilan uchrashdim, u yertasi - 9 may G'alaba bayramiga meni mehmonga chaqirib, uyida dog'iston xalq shoiri Rasul Gamzatovning amakivachchasi bo'lmish yozuvchi Rasul Rasulov bilan tanishtirdi. Men bularga Vladimirga borganimni va bobom Sayid Rizo qabrini topganimni so'ylab berdim. Ular aytgan gaplarimning hammasini magnitofon lentasiga yozib oldilar. Rasul Rasulov bobom ijodini birinchi marta yeshitgani uchun juda ham qiziqib qoldi¹¹⁰.

Rasul Rasulov men yaqin oylarda Toshkentga borishni rejalashtirganman, u yerda mening bir kitobim nashr bo'lishi kerak, dedi. Shunda men Toshkentdagi yozuvchi do'stlarim bilan uchrashib, hozir siz naql qilgan tarixni ularga aytib beraman, dedi. Ammo ko'p o'tmay Rasulov yurak xuruji sababli olamdan o'tdi.

Samarqandga qaytib, to'g'ri viloyat rahbarlaridan biri rahmatli Telman Rustamovich Abdushukurov huzuriga bordim. Unga Vladimir va Bokuga safarlarim tafsilotlarini to'liq aytib, Vladimir shahar hokimiyati nomiga bir «iltimosnoma» beringlar, deb iltimos qildim. Telman Rustamovich olijanob inson, ko'pni ko'rgan olim yekan. Stol ustida yozib o'tirgan qog'ozlarini chetga surib, telefon go'shagini ko'tardi va shahar hokimini so'radi. Hokim joyida yo'q yekan. Telman aka hokimning muovini Roza Husainovnani so'rattirdi. Roza Xusaynovna bilan Telman Rustamovichning suhbatlarini noiloj yeshitib turishimga to'g'ri keldi. «Yoningizga Sayid Rizo Alizodaning nabirasini yuboraman. Vladimir shahri hokimiga S. Alizodaning qabrini Samarqandga ko'chirish uchun iltimosnoma yozib beringlar, bu gapni hokimga mening nomimdan ayting. Yana Farhod Alizodaga ikki kishini qo'shib Vladimirga yuboringlar. Sayid Rizo Alizoda mashhur olim bo'lgan, bularning uchalasiga ham xizmat safari uchun pul ajratib beringlar», - deb go'shakni qo'ydi Telman Rustamovich. Uning bunday g'amxo'rligidan boshim osmonga yetdi. Zudlik bilan shahar hokimiyatiga bordim. Ammo bu masala... o'n yilga cho'zildi¹¹¹.

Tinib tinchimas F. Alizoda bobosining xokini Samarqandga keltirganligi to'g'risida quyidagicha hikoya qiladi;

¹¹⁰ Ализода Фарход "Сухбат дафтари" № 6. 2013 йил 8-ноябр.

¹¹¹ Ализода Фарход "Сухбат дафтари" № 7. 2013 йил 25-ноябр.

Pirovardida bir o'zim 1986 yilning 28 sentyabrida Vladimir shahriga ikkinchi bor, o'z hisobimdan bordim.¹¹² U so'rab surishtirib do'sti Gavriliyani izlab topadi va keyingi bo'lgan voqyealarni quyidagicha hikoya qiladi;

Xonadon qo'ng'irog'ini bosdim, birpasdan keyin ichkaridan sochlari oqargan o'sha qadrdon do'stim Gavriliya chiqib, men bilan kuchoklashib ko'rishdi va ichkariga taklif qildi... . Kechasi soat 03³⁰ bo'lganligiga qaramay, Gavriliya rafikasi Nina bilan meni yeng aziz mehmonidek kutib olishdi. Yertasiga shahar hokimiyatiga bordik. Magazin Robert Karlovich meni tanidi. U bilan xuddi aka-ukadek quchoqlashib ko'rishdik. U darhol dafn yetish byurosiga qo'ng'iroq qilib, kerakli topshiriqni berdi. Yertasi yertalab soat 10⁰⁰ da olti nafar ishchi qabristonga kelishdi. Men, Gavriliya va hokimiyat vaqillari, dafn yetish byurosidan mutasaddilar to'planib, qabristonga keldik. Bobomning qabrini kavlash boshlandi, o'tgan 41 yilda qabr tuprog'i toshga aylangan yekan, ishchilar lom va kirka bilan qabrning ustki qavatini qiyinchilik bilan ochdilar. Shivalab yog'ayotgan yomg'ir bora-bora sharillab quya boshladi. Qabr yonida turgan suratkash ham shalabbo bo'ldi. Men ularga: «Qabristonga kirishda qorovulxona bor, borib o'sha yerda biroz kiyimlarni quritinglar. U yerda men qorovulga ichida kolbasa, pishloq, non, suv va aroq solingan xalta qoldirganman. Tamaddi qilib olinglar, bo'lmasa sovqotib qolasizlar», - dedim. Qabr boshida men va Gavriliya qoldik. Ikki ishchi qabr qaziyapti, qolgan to'rt nafari qorovulxonada, har yarim soatda ishchilar almashib turishdi. Soat 17⁰⁰ da yomg'ir to'xtadi. Gavriliya bilan mening yegnimizdagiplash, boshimizda shlyapa jiqqa ho'l bo'lib ketgandi. Ammo ikkimiz ham qabr yonidan bir qadam ham chetlashganimiz yo'q. Keyin birdan quyosh charaqlab chiqdi. Shunda qabr ochadiganlardan biri qichqirib: «Mana, bel tobutning taxtasiga tegyapti», - dedi. Men qabrning labiga kelib: «Yigitlar, boxabar bo'linglar, bel suyaklarga tegmasin», - deb ogohlantirdim. Ular tobutning ustidagi tuproqning hammasini avaylab tashqariga chiqarib tashlashdi. Tobut yoqochlari umuman chirib ketgan yekan. Uning parcha-purcha taxtalarini ham ishchilar chiqarib tashlashdi. Shu vaqt bobomning bosh suyaklari ko'rinib qoldi. Men ishchilardan qabrdan chiqishlarini so'radim. Qorovulxonadan yigitlar maxsus tayyorlangan tobut-qutini keltirishdi. Bir payt yonimda shahar hokimi, yahudiy Robert Karlovich ikki nafar ishchilari bilan paydo bo'ldi.

¹¹² Ализода Фарход "Сухбат дафтари" № 8. 2013 йил 17-ноябр.

Tobut-kutini ochib, ichidan o'zim bilan qabristonga olib kelgan 10-15 metr oq bo'z va 1-2 kg paxtadan olib, qabr ichiga tushdim. Boshim ustida Robert Karlovich bilan Gavriiliya turishibdi. Avval paxta bilan bobomning yuzlaridan butun tuprokni to oyoq uchigacha tortib, jasadni tozaladim. Keyin «bismillahir rohmanir rohiym» deb bobomning boshlarini ko'targanimda, bosh tanadan ajraldi. Boshlarini shundoq, ko'tarib, qabr ichida peshonalaridan o'pdim. Og'iz bo'shlig'i ochiq, ichkarida yeng keyingi, bir dona qoziq tish qolgan. Men bu tishni shahar hokimi bilan Gavriiliyaga ko'rsatdim. Bobom shu bir dona tish haqida o'sha turmada lattalarga bitgan xatida quyidagicha yozgan yedi: «Meni tergovchilar sen Angliya josusisan, deb uradilar, men xushdan ketaman, o'zimga kelganimda qonga belangan holda yotgan bo'laman». Mana, o'sha qonxo'r tergovchilarning mushtiga bardosh berib, 41 yildan buyon necha botmon tuproqning tagida saqlanib qolgan tish shu bo'ladi. Asta-sekinlik bilan bobomning bosh, qo'l, umurtqa va oyoq suyaklarini qabrdan terib, tobutga solingan oq kafanlik ustida yopilgan paxtaning ustiga terdim. Qabr ichidagi tuproq, tobut parchalari va zanglab ketgan mixlarning hammasini yig'ib tobutga soldim. Undan keyin qabrni ishchilarga aytib yana ko'mdirdim. Tobutni qabristondan mehmonxonaga keltirib, yuklarni saqlash bo'lmasiga topshirdik. Keyin o'zimiz xonaga chiqib yuvinib, restoranga tushdik. Ishchilar va biz bilan qabrni ochishda qatnashgan odamlarga dasturxon yozib, bobomning ruhlarini yod yetdik. Robert Karlovich ajoyib so'zlarni aytdi. Jumladan: «Shu yoshga kirib, shunday hodisani birinchi ko'rishim. Albatta, bu voqyea ruslar va musulmonlar hayotida abadiy bir tarix bo'lib qoladi. Men to hayotman, qayerda yashashim va ishlashimdan qat'i nazar, bu mo'jizani har yerda aytaman», - deb tugatdi... . Shu tariqa bobomning hokini o'zi sevgan shahriga olib keldim. Uni dafn qilish uchun birinchi bo'lib sevimli shoiramiz Zulfiya xonimning Ozarboyjondagi qalamkash dugonasi, yozuvchi, filologiya fanlari doktori, Ozarboyjon Davlat universiteti professori, shoira Aziza Xonim Ozar yozuvchilari uyushmasi nomidan katta gulchambar bilan tashrif buyurdi. Bobomning hoki uning otalari yotgan «Panjob» qabristonida qayta dafn qilindi¹¹³.

Xorazmning Xonqasida tug'ilgan, keyin Samarqandda yashagan xushovoz xonanda Hojiboy Masharipov bobom haqidagi xikoyalarni yeshitib, o'qib g'oyat ta'sirlangan va bir

¹¹³ Ализода Фарход “Сухбат дафтари” № 9. 2013 йил 24-ноябр.

she'r yozgan yekan¹¹⁴. Gazetada bosilgan she'rga O'ktam Niyozov musika bastalagan, ilk bor o'zi ijro yetgan. Mana o'sha she'r:

Alizodaman

Ro'shnolik ko'rsin deb yelim-yelatim,
Ko'p savdoga tushdi qisqa hayotim,
Parvoz qilar chog'da sindi qanotim,
Dili tula armon Alizodaman.

Vatan yodi yonib bag'ri, dilimda,
Halovat bo'lmadi tunu kunimda,
Bemalol gaplashib o'n to'rtta tilda,
Misoli bezabon Alizodaman.

Yo'qotmoqchi bo'lib ona tilimni,
It kuniga solib tunu-kunimni,
Yuz pora qildilar bag'ri-dilimni,
Xalq, uchun bergan jon Alizodaman.

Yig'lab qoldi farzandlarim izimdan,
Xabar yo'qdir yoru o'g'il-qizimdan,
Yosh o'rniga qonlar oqdi ko'zimdan,
G'aribu notavon Alizodaman.

Bevaqt so'ndi ro'shno bergan chirog'im,
Yelda ziyo berdim shuldir gunohim,
Boshim zindon ichra, go'rda oyog'im,
Jismim bandi zindon Alizodaman.

Xalqim uchun qabrimda ham yo'q tinchim,
Turay desam lahad ichra yo'q kuchim,
Yel g'amidan bo'lak mening yo'q ishim.
Ochilganda xazon Alizodaman.

Yellik sakkiz yoshda yumildi ko'zim,
Aytilmay ichimda qoldi ko'p so'zim,
Ammo yel oldida yorug'dir yuzim,
Yelga bir tan, bir jon Alizodaman.

¹¹⁴ Ализода Ф.Т. Мўъжиза институти. — “Зарафшон” газетаси, 2008, 28 январь.

Suyagim yegasi nabiram Farhod,
Jismimga jon bo'ldi bog'ladim qanot,
Samarqand, «Panjob»da mozorim obod,
Bugun qadrin topgan Alizodaman.

Hojiboy Masharipov

1992 yil 6 iyunda Sayid Rizo Alizodaning byusti Samarqand shahar Temiryo'l tumanidagi 14-o'rta maktabning hovlisiga o'rnatilib, uning ochilish marosimi o'tkazildi¹¹⁵. Bu byustning ochilish marosimiga Ozarboyjon, Yerondan mehmonlar va Toshkentdan mavlono, olim, yozuvchi Faybullo As-Salom hazratlari tashrif buyurdilar. Tuman, shahar hokimlari va viloyat hokimi muovini Akram Xudoyqulovichlar hozir bo'lishdi. Hokim muovinidan keyin yozuvchi, shoirlar, urush va mehnat faxriylari birma-bir so'zga chiqishdi. G'aybullo as-Salom o'z nutqida: «Hali vaqti keladi, xalqimizning bu jonkuyar ma'rifatparvariga Toshkentda ham haykal o'rnatiladi», - dedi. Shoir G'ulom Xusayn Ismoilov S. Alizodaga bag'ishlab yozgan she'rini o'qidi. Byustning ochilish marosimi katta anjumanga aylanib ketdi.

Sog'inib keldim sizi

(O'z vaqtida o'qilmagan marsiya)

Och yuzimni, yey g'assol, yoronlarimni bir ko'ray,
Hajri padar dog'indagi tuvg'onlarimni bir ko'ray.
Darbadar kezdin jahonda, bo'ldim baloga muhtalo,
Meni deb zardob qusgan gulbandlarimni bir ko'ray.
Aytib-aytib yig'lashib, kelmish yemish xeshu tabor,
Bandi-bandiga tutash, tirbandlarimni bir ko'ray.
Sho'rishi savdo bilan bo'lmisham jaloyi vatan,
Ustod ham shogird ahli hayronlarimni bir ko'ray.
Nechani boshin silab, bo'ldim alarga dildazir,
Mavtima zor siqtagan giryonlarimni bir ko'ray.
G'urbatu furqat aro zohir bo'lolmay o'ngida,

¹¹⁵ Қодир У. ва Ализода Ф. "Ассалом. аҳли замон!" (Здравствуйте, современники). - Самарқанд. 2002.

Sayyid Rizoni tushida ko'rgonlarimni bir ko'ray.
Yey tag'ofillar qarab zinhor kulmang holima,
Shum niyatlariga yetgan yag'molarimni bir ko'ray.
Bul fano mulkida yo'qmen, qoldimu mendin asar?
«Tarixi islom», «Vojib», tamg'olarimni bir ko'ray.
Izlarima zor o'lan bormu bir bag'ri butun,
Diydau, qoshu, qabogu, mujgonlarimni bir ko'ray.
Men banda bandargohmen, ikki jahon avvorasi,
Zor yig'layub shomu sahar, yurgonlarimni bir ko'ray.
Laxcha-laxcha qon yutub nobakor agyor dastidin,
Roziyu Rizo tilab turgonlarimni bir ko'ray.
Assalom ahli zamona, sog'inib keldim sizi,
O'n baloga bir qazo, so'zonlarimni bir ko'ray.
O't tushub bag'rim tutoshti, sotmadim hyech kimsani,
Behayoyu bevafo, beboklarimni bir ko'ray.
Qabrdin bosh ko'tarib, keldim bu yona yona men,
Shum raqibu noraso, zahhoklarimni bir ko'ray.
Boqma qayon - chiqmish chayon alvon mehrob chokidin,
O'tgan ul kunlar, hoku turoblarimni bir ko'ray.
Sayyido tashrif buyurdung shomu shabistoningdakim,
Baxtiyor, Gulruh, Farruh, Farhodlarimni bir ko'ray.
Sidqi dildin notavon yozmish G'aybo'lloh as-Salom,
G'olibo, sohibi davron, as'hoblarimni bir ko'ray¹¹⁶.

G'aybullo as-Salom

¹¹⁶ Ғайбулло ас-Салом Эзгуликка чоғлан, одамзод. Тошкент, «Шарк» нашриёти, 1997 йил.

III-BOB. SAYID RIZO ALIZODA UY MUZEYINING TASHKIL YETILISHI

III 1. SAYID RIZO ALIZODA UY MUZEYINING TASHKIL QILINISHI VA YOSh AVLODNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Sayid Rizo Alizoda uy-muzeyining tashkil qilinishi allomaning nabirasi F. Alizodaning ko'p yillik mashaqqatli izlanishlari va betinim mehnati mahsulidir. U o'z asarida uy muzeyning yuzaga kelishi tarixi haqida quyidagilarni keltiradi;

Ko'p yillardan buyon tilga olingan tadbir va anjumanlardan tashqari, bobomning asarlari, uy anjomlari, shaxsiy buyumlarini to'plab yurib, bir-ikki xona qurib, o'sha yerga qo'ysam, deb niyat qilar yedim. Buning ustiga, qo'shnimiz uyiga hasharchilarni chaqirib, yerto'lani tozalashganida bir temir kuti topib olishgan. Hasharchilar quvonib, uy yegasining ajdodlari bor davlatini yertuladagi shu qutiga solib qo'ygan yekanda, deb sarosimaga tushishgan. 60 yil yer ostida yotgan temir sandiqchani bir amallab ochsalar, 7-8 ta kitobdan boshqa hyech narsa yo'q. Hasharchilardan biri tojikistonlik yekan, u tojik maktablarida arab imlosini o'rganganligi tufayli kitoblarni o'qiy olgan.

Bu kitoblarning muqova qismida Sayid Rizo Alizoda, deb yozilgan yekan, hasharchilar topilgan kitoblarni uy bekasiga ko'rsatishgan. Qo'shnimiz meni chaqirib, bu kitoblarni berdi. Bundan tashqari, 1930-yillarda bizning mahallada yashagan bir keksa odam bir kuni uchta kitob ko'tarib keldi. «O'g'lim, men tushimda Og'oni ko'rdim, Og'o menga qarab: «Siz mendan olgan kitoblarni hovliga yeltib bering», - dedi. Shuning uchun bobongizdan olgan kitoblarni keltirdim, mana», - deb ularni qoldirib ketdi¹¹⁷.

Rahmatli bobom turmadan yozgan xatlaridan birida yozganlar: «Muhammad Alinikiga va Ismoilning hovlisiga olib borib qo'ygan kitoblarni uyga keltirib qo'yinglar». Ular olib borgan qo'lyozma va tarjimalar hamda boshqa kitoblar molxonalariga chuqur qazib ko'mib qo'yilgan. Natijada bir necha qopga solingan kitob va qo'lyozmalar tuproqning tagida chirib ketgan. Shularning hammasini o'ylab, topilgan asar va hujjatlarni muzey

¹¹⁷ Ализода Фарҳод “Сухбат дафтари” № 9. 2013 йил 28-ноябр.

qurib, muzeyga qo'ysam, degan maqsadda shahar rahbarlariga murojaat qildim. Umrим bo'yi bir xayrli ishga qo'l ursam, shu ishni nimaning yevaziga bo'lsa ham amalga oshirganman. Bir kuni Sharofat ammamning nabiralari Komil bir yigit bilan hovliga keldi. Salomlashib: «Tog'a, nega kayfiyatingiz pastroq ko'rinadi», - deb so'radi. «Xavo issiq, kranda suv ham qurigan, iyul oyi mening uchun bir oz og'ir o'tayapti. Bu yigitni men bilan tanishtirmading», - dedim. «Bu kishining ismlari Ahmad, Yerondan kelganlar», - javob berdi Komil. «Bu kishi qayerda yashayaptilar?» - deb so'radim. «Sayid Ulmas Bagirovning qarindoshi bo'ladi, shu kishinikida turibdilar. Men Yeronga borganimda Mashhad shahrida Ahmad Og'olarning uyida yashaganman», - dedi Komil. «Juda yaxshi, men hozir sizlarga choy damlayman», - deb uyga kirdim. Stol ustida Nosir Takmil Xumoyunning maqolasi bosilgan jurnal turgan yedi. Choynakni olovga qo'yib, jurnalni olib chiqdim. Yerondan kelgan Ahmad Og'oga: «Bu jurnal sizlarda chiqqan. Mana bu maqolani o'qib ko'ring-chi», - dedim. U: «Bizlar asli Samarqandlikmiz, ota-bobolarimiz 1920-yillarda Yeronga ko'chib ketganlar. Bu yoqlardan ko'p yillardan buyon xabarimiz bo'lmagan. Sayid O'lmas Og'o menga tog'a bo'ladi, mustaqillikning sharofati bilan yo'l ochildi, hozir Samarqanddan Yeronga, bizdan yesa Samarqandga ko'p odamlar kelib, uzoq yillar xat-xabar bo'lmagan qarindoshlarini ko'rib ketayaptilar», - dedi. Shu damda dasturxon yozib, choy damlab keldim. Bir piyola choy ichib, kallamga bir fikr keldi. «Ahmadjon, sizni Ollohning o'zi yubordi. Yeronga qachon qaytasiz?» - deb so'radim. «Juma kuniga poyezdga bilek olganman, yumushingiz bo'lsa aytavering, bemalol», - dedi u takalluf bilan. Unga doktor Takmil Humoyunga xat yozib bermoqchi yekanligimni, Mashhadga borganidan keyin Tehronga, Humoyunning uyiga pochta qutisiga tashlab qo'yishini iltimos qildim. Mehmon bajonidil rozi bo'ldi va agar xat jiddiy bo'lsa, mashinasiga minib, Tehronga borib, Takmil Humoyunni topib, o'z qo'luga topshirishi mumkinligini aytdi. Xat haqiqatan jiddiyligini aytdim. Unga ko'p yillardan buyon bobomiz Sayid Rizo Alizodaning merosini to'plab kelishimni bildirdim. Kelasi yil bobomning tug'ilganlariga 110 yil to'lishini, shuning uchun Yeron davlatidan muzey qurish uchun ko'mak so'ramoqchi yekanligimni aytdim. «Juda yaxshi fikr», - deb avval Komiljon mening fikrimni qo'lladi. Ahmad Og'o biroz o'ylab turib: «A'lo, niyatingizga yeting, unday bo'lsa, men Tehronga Takmil Humoyunga yemas, prezident janob Hoshimi

Rafsanjoniya yetkazaman. Buning savobi butun Samarqandda yashaydigan yeroniyarga borib yetadi», - dedi. Men xatni prezident janob Xoshimi Rafsanjoni nomiga yozdim. Ahmad Og'o xatni olib, o'zi aytganidek, juma kuni Yeronga jo'nab ketdi. Chamas 15-20 kun o'tgandan keyin, bozor kuni yertalab soat o'nlarda darvozamizning oldida ikkita mashina - biri «Mersedes», ikkinchisi «Jip» kelib to'xtadi. Mashinalardan 4-5 qora soqollik yigitlar tushib, fors tilida menga qarab, bizlar Texrondan keldik, siz xat yozgan yekansiz, unga javoban kelganmiz. Men, marhamat, marhamat, xush kelibsizlar, ichkariga marhamat qilinglar, deb, mehmonlarni ichkariga oldim. Birining qo'lida katta telekamera, hovlini suratga ola boshladi. Hovli olimning hovlisiga o'xshamas, yeski paxsa (loy)dan qurilgan devorlar, uylar ham 50-60 yillarda xom g'ishtdan qurilgan va hokazo. Tehrondan kelgan jurnalistlar bilan birga Yeroning O'zbekistondagi yelchisi janob Muhsin Pokoyin ham kelgan yedi. Janob Pokoyin: «Muzey qurish uchun qancha mablag' kerak?» - deb so'radi. Men yelka kisdim. U yesa: «Bo'lmasa gap shunday, u Og'olar janob prezidentning buyrug'i bilan kelishgan, siz muzeyning loyiha-smetasini Toshkentdagi yelchixonaga, menga keltirib bering. Smetaga qarab sizga pul ajratamiz», - dedi.

Zudlik bilan loyiha va smetani tayyorlab, Toshkentga olib bordim. Shu bilan muzey qurilishi boshlandi. Qurilish bir yil davom yetdi. Har 15-20 kunda yelchi janoblari yoki uning muovini janob Akbari kelib xabar olib ketishar yedi. Muzey qurilganidan keyin uni jihozlash kerak yedi. Men janob Pokoyinga yendi mebel kerakligini aytdim. Bir xafta ichida fransuz mebeli va ikkita Isfahon qalin gilamini olib kelishdi. Xonalarga lyustra va televizor, magnitofon ham kerak, dedim. Men aytganlarning hammasini Toshkentdan keltirib berishdi. Hovlining obodonchilik ishlarini, ko'cha asfaltini hamda katta yog'och darvozani shahar rahbarlarining topshirig'i bilan Temir yo'l tumani ma'muriyati amalga oshirdi. Shahardagi mebel fabrikasi yesa podium bilan devordagi oynali ramkalarni yasab berishdi. Muzey yeksponatlarini devorlarga shahar hamda viloyat muzeylarining xodimlari osdilar. Xullas, Sayid Rizo Alizoda uy-muzeyi shu tarika 1998 yilning noyabrida ochildi. 1970-1980 yillarda Samarqand, Buxoro, Toshkent va Dushanbe kutubxonalarida Sayid Rizo Alizodaning birorta asarlarini topish yer osti qazilma boyliklarini izlab topishdek kiyin yedi. Samarqand shahridagi Akmal Ikromov nomli ulkashunoslik mo'zeyida 5-6 ta maqolalarini topdim. 1920-1930 yillardagi gazeta va jurnallar taxlamini so'raganimda

muzey fondi boshlig'i, ikkinchi jahon urushi invalidi Popov menga: «Bilasizmi, siz so'ragan yillardagi gazeta-jurnallarning hammasi odamlarga sotilgan», - dedi. Bizda faqat 2-3 «Oyina» jurnali, bir dona «Shu'lai inqilob» jurnali, 2-3 dona «Mashrab» jurnali va tojik tilida 5 dona «Mulla Mushfiqi» jurnali bor. Gazetalardan 2 dona «Mehnatkashlar tovushi» va 1-2 dona «Zarafshon» gazetasi qolgan. O'sha vaqtlarda viloyat arxivi direktori Gudz ismli rus ayoli yedi, ularda rus tilida 4-5 dona «Svobodный Samarkand», 1-2 dona «Golos Samarqanda» va «Proletariy» gazetolari bor yedi, xolos. Men o'shanda juda ajablangan yedim, chunki Boku, Moskva va Leningrad arxivlarida butun matbuot va tarixiy asarlar saqlangan, bizda yesa ahvol achinarli darajada. Bu holat sirini bir kuni menga universitet o'qituvchisi rahmatli Ma'rupov ochib berdi. 1960-yillarda qo'shni respublikalarda guruhlar paydo bo'lib, Samarqand shahar, viloyat kitob va davlat arxivlaridan, hatto SamDU va boshqa oliy o'quv yurtlarining arxivlaridan, jumladan, SamDU ning sharq bo'limi kutubxonasidan ularni qiziqtiradigan kitoblar, gazeta-jurnallar, qo'lyozmalar, maktublar va kerakli hujjatlarni arxiv ishchilari bilan kelishgan holda sotib olib ketgan yekanlar.

1980 yilning o'rtalarida ingliz tili tarjimoni, shahrimizda tanilgan alizodashunos olim Hamdam Ne'mat bilan yeski shaharga bordik. Kolxoz bozorining yonida bir shoir yashar yekan. U kishi bizlarni yaxshi qabul qildi. Uning shaxsiy arxivida «Shu'lai inqilob» jurnali borligini yeshitib borgan yedik. Suhbat orasida men u kishiga «Otaxon, yeshitishimizcha sizda «Shu'lai inqilob»ning 93 ta nusxasi, ya'ni shu xaftalik jurnalning hammasi bor yekan. Sizdan iltimos, men suratkashni olib kelib, shu jurnallarning suratini oldirsam, qancha xizmat haqqi so'rasangiz beraman», - dedim. «To'g'ri, menda bu jurnallarning hammasi bor, ammo men shu 4-5 kunda Buxoroga bormoqchiman, qaytgandan so'ng kelsalaring, beraman», - dedi. Shu tariqa ikki yil ovora bo'ldik, bermadi.

Men Ozarboyjonda yashagan yillarimda, otam rahmatli kasal yotganida SamDUning bir o'qituvchisi bizning uyimizdan S. Alizoda kutubxonasida bo'lgan kitoblardan 8-10 tasini olib ketgan. Bokudan qaytganimdan keyin u kishiga kitoblarni qaytarib berishi haqida xabar yubordim. Ammo u qaytarib bermadi. Universitetning sharq kutubxonasi keksa xodimlaridan biri ham mendan olgan kitobni qaytarmadi. Bu kabi misollar juda ham ko'p. Men «Zarafshon» gazetasida va viloyat televideniyesida shaharliklarga necha marta

murojaat qilib, kimda S. Alizoda haqida ma'lumot bo'lsa, bizning manzilga xabar qilishlarini so'radim. Hatto mukofot ham va'da qilganman, ammo xaligacha darak yo'q¹¹⁸. O'zimizda hech nima topilmaganidan keyin oxiri Moskvaga bordim. Moskvadan 15-20 km uzoqlikda «Ximki» shaharchasi bor. Rossiya davlat arxivi shu yerdagi 9 qavatlik binoda saqlanadi. Sho'ro ittifoqi va undan oldin Rossiya podsholari davrida O'rta Osiyo va Kavkazda chop yetilgan gazeta va jurnallar hamda kitoblar ham shu yerda saqlanadi. Shuningdek, ularni Sankt-Peterburgdagi «Publichnaya» kutubxonasidan ham topsa bo'ladi. Bu arxivlarda kerakli maqola va hujjatlarni kishi o'zi ko'chirib olishi yoki ulardan kseroks nusxa kuchirishi mumkin, faqat pulingiz bo'lsa bas.

Yuqorida aytganimdek, Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon kutubxonalari, Yeron milliy kutubxonasi, Pokiston, Lohurda 1884 yildan ish boshlagan «Panjob» kutubxonalaridan S. Alizodaning o'nlab asarlari, 50 dan ortiq maqola va feltonlarini izlab topganman. Albatta, bu ishlarni amalga oshirish uchun birinchi galda qunt, tarixga muhabbat, kindik qoni to'kilgan vatanni, uning xalqini sevish va ye'zozlash kerak. Yendi Pokiston safari haqida; 1977 yil may oyida Moskvadagi yeng katta kutubxonaga borib, bobomning asarlarini izlagan chog'imda ZV/110 17-1 shifri ostida saqlanayotgan «Bibliografiya persidskix pechatnyx knig» («Forscha bosma kitoblar bibliografiyasi») kitobiga ko'zim tushdi. Yeronning 1867-1967 yillarda dunyo bo'ylab fors tilida nashrdan chiqqan asarlari ma'lumotnomasini qiziqib varaqladim. Ushbu yensiklopediyada Sayid Rizo Alizodaning 1923-1934 yillarda Hindistonning Lohyp shahrida (hozirda bu shahar Pokistonda) «Islom madaniyati», «Moroselot» va Bartoldning «Turkiston» asari fors tiliga tarjimasi chop yetilgani yozilgan yedi. Samarqandga qaytgandan keyin Toshkentga, professor Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar institutiga xat yozib, bobomning Lohurda chiqqan o'sha asarlarining muqovasidan nusxa olish uchun yordam so'radim. Ammo nido bo'lmadi. Keyin bir necha yil Pokiston prezidenti Ayubxon, Afg'oniston prezidenti Mahammad Dovudga shu asarlarni olishda kumak berishni so'rab murojaat qildim, yana javob bo'lmadi. Xullas, yana Moskvaga borib, harbiy-siyosiy akademiya talabasi mayor Farruh bilan tanishib: «Sizlarda ham S. Alizodaning asarlari saqlanadi, iltimos, shu kitoblarning muqovasidan nusxa olishga yordam ber», dedim. U bilan Moskvada

¹¹⁸ Ализода Фарҳод “Сухбат дафтари” № 11. 2013 йил 2-декабр.

tog'amning o'g'li Rahimov Ali orkali tanishgan yedik. Ali 1970 yilda shu harbiy akademiya tugatib, falsafa bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi yoqlab, mazkur akademiya dars berardi. Bu afg'on do'stimizdan ham najot bo'lmadi. Sho'ro davlati parchalanganidan keyin Toshkentda Pokiston yelchixonasi ochildi. U yerga ham ikki marta borib, xat bilan murojaat qildim. Pokiston yelchisi muovini Vasim Ashraf (2-kotib) xatimga rasmiy javob berdi va yordam qilishini bildirdi, ammo bundan ham hych kanday natija chiqmadi. Yillar o'tdi. Biroq bobomning Pokistonda chop yetilgan asarlarini topish istagi menga hych tinchlik bermasdi. Chunki ko'zim ochiq yekan, bobomning vasiyatlarini bajo keltirishim kerak yedi. Moskvada Sharqshunoslik institutiga borib, Abulqosim Lohutiyni qizi Leyla Xonim bilan tinisdim, u bilan ishlagan yeronshunos va pokistonshunos olimi Natalya Ilinichna Prigarini: «Sizning Moskvadagi izlanishlaringizni yeshitgan yedik. Mana yendi sizni ko'rib tanishganimizdan nihoyat xursandman», - degan so'zlari ko'nglimda umid uchqunlarini uyg'otdi. Men undan: «Bobomning Pokistonda 1920-yillarda chop yetilgan asarlarini qanday qilib olsak yekan», - deb so'radim. U menga: «Pokistonda yaxshi qalamkash tanishlarim bor, 2-3 kundan keyin telefonlashib, institutga keling, sizning nomingizdan xat yozib yuboramiz», - dedi. Ko'p o'tmay olimi aytgandek xat yozib yubordik, ammo 2-3 oy o'tdi hamki, xatimizga javob kelmadi. Uylab-uylab, oxiri Pokiston yelchixonasiga bordim. Yelchi muovini janob Bajva Gulam Xazzor bilan uchrashib, tanishib oldim. Yelchixonaga kelish maqsadimni aytdim. U menga: «Kelasi hafta Pokistondan bir guruh davlat arboblari, yozuvchilar va diplomatlar Moskvaga keladi. Ular bilan Rossiya diplomatlari, yozuvchilari va jurnalistlari «Varshava» mehmonxonasida uchrashuv o'tkazadilar. Siz ham shu uchrashuvga keling, mehmonxona yeshigi yonida men sizni kutib olaman va ichkariga o'zim kiritib yuboraman. Sizni Pokistondan kelgan mehmonlar bilan tanishtiraman. Mamlakatimizdan kelgan yozuvchi va jurnalistlarga gapingizni aytasiz. Ular ingliz tilida gapirishadi, ammo tarjimonlar siz aytgan gaplarni ularga tarjima qilib tushuntiradilar», - dedi.

Ish janob Gulam Xazzor aytganidek bo'ldi. Yertasiga janob Bajva uyga telefon qilib: «Janob Alizoda, siz Pokiston prezidenti janob Parviz Musharrafga xat yozib, o'sha kitoblarning nomini keltiring. Bu so'zni diplomatlarimiz aytdi. Siz keltirgan xatni men bularga berib yuboraman», dedi. Aytilganidek qilib xat yozib berdim. Ikki oylar

o'tganidan keyin Janob Gulam Xazzor Bajva uyga telefon qilib: «Janob Alizoda, yelchixonaga keling, sizga xushxabar bor», - dedi.

Borsam, menga viza kelgan yekan. Janob Bajvaga, mumkin bo'lsa, o'zim bilan Rossiya televedeniyesidan ingliz tilini biladigan jurnalist va teleoperatorni o'zim bilan olib borishim zarurligini aytdim. Ular Sayid Rizo Alizodaning 80 yil oldin Pokistonda chop yetilgan kitoblari menga topshirilishi marosimini hamda Pokiston olimlarining bu kitoblarga bergan baholarini, mening Pokiston olimu ziyolilari bilan bo'ladigan mulokot va uchrashuvlarimni tasvirga olishi kerak yedi...

Men bu xakda oldinrok Rossiya televedeniyesi mas'ullari bilan gaplashgan yedim. Chunki 2003 yil dekabrda Rossiya televideniyesi ijodiy guruhi men bilan «Vladimir Sentrali» turmasiga borib, S. Alizodaning oxirgi kunlari haqida 30 daqiqalik hujjatli film olishgandi. Bu filmni Rossiyaning «Musulmane» kanali ikki marta yefirga ham uzatgan yedi. Filmni o'zbekistonliklar va ozarboyjonliklar ko'rib, menga Moskvaga qo'ng'iroq qilib, o'z quvonchlarini izhor qilgan yedilar. 2004 yil 6 iyunda Moskvadan Pokistonning poytaxti Islomobod shahriga uchib keldik. Birinchi kuni Islomobod kitob do'koniga bordik. Bu do'konda yangi kitoblar bilan birga yeski kitoblar ham sotilar yekan. Men sotuvchidan tarjimon orqali Sayid Rizo Alizoda haqida yeshitganmisiz, deb so'radim. U: «Bo'lmasachi, bundan ikki kun oldin S. Alizodaning urdu tiliga o'girilgan Xiva va Buxoro tarixi kitobini bir muallimga sotdim», - dedi. O'sha tarix kitobining qachon chop yetilganini so'ragan yedim, u: «Menimcha, 1927 yilda Lohurda chop yetilgan kitob yedi», - dedi. Shu kuni Pokiston madaniyat vazirligi tuzgan reja bo'yicha shaharning yana bir necha tarixiy yodgorliklarini borib ko'rdik.

Ikkinchi kuni bizlarni Pokiston Islom universitetiga taklif yetishdi. Universitetni tomosha qilib, mudarris va shogirdlar bilan uchrashdik. Keyin yesa oliygoh rektori doktor Al-Rahmon janoblari qabulida bo'ldik. Janob Al-Rahmon oliygoh tarixidan, bu oliygohda o'qiydigan talabalar hayotidan gapirib, so'zining o'rtasida Alyona Jarovskaya savoliga javoban Sayid Rizo Alizoda ijodiga o'tdi. U: «Sayid Rizo Alizoda Pokiston tarixida alohida o'rin tutadi, uning bizda chop yetilgan asarlarini o'rta va oliy maktablarda talabalar yillar davomida o'qigan», - dedi. Alyona Jarovskaya jurnalist sifatida sharq adabiyoti va tarixini bilish bilan bir qatorda islom tarixidan ham xabardor yekan. Shuning

uchun u rektorga: «Aytingchi, S. Alizodaning qaysi asarini shoh, asar deb bilasiz?» - degan savolni berganida Al-Rahmon janoblari o'ylanib o'tirmasdan: «Islom tarixi» va «Islom madaniyati», - deb javob berdi. Rektor: «Bilasizmi, hurmatli jurnalist, 1950 yilda Pokiston davlat konstitusiyasi yozilganda men yuqorida aytgan ikki asardan foydalanilgan», - deya qo'shib qo'ydi. Bu savol-javoblarni Sasha telekameraga tushirib, o'zi ham savol berdi: «Aytingchi, janob rektor, hozir shu kitoblarni topsa bo'ladimi?» «Albatta, Pokistonda barcha kutubxonalarda mavlono Sayid Rizoning asarlari buyuk yehtirom bilan saqlanadi. Bu kitoblarga bizda talab katta, yaqinda Pokiston Akademiyasida bo'lgan yig'ilishda shu masala ko'tarilgan yedi, ya'ni olimlarimiz tarafidan S. Alizodaning bir necha asarlari qayta chop yetilsin, degan istak tez-tez bildiriladi. U Muhammad Iqbol bilan ham yaqindan do'st bo'lgan, deb bizlarga javondan shu kitoblarning bir nechtasini olib taqdim qildi. 10 iyunda Islomobodni tark yetib, 3 ming yillik tarix- ga yega bo'lgan Lohyp shahri tomon yo'l oldik... . Ikkinchi kuni bizlarni Lohurdagi tarix muzeyiga olib borishdi. Meni qiziqtirgan bu muzeyda Muhammad payg'ambarimizning hassalari, kavush hamda yaktaklari saqlanadi, bundan tashqari, nabiralari Imom Husaynning kiyimlari ham bor. Bularni ko'rib hayron bo'ldim. U yerdan chiqib, Shoh Jahon va Akbarning maqbarasini ziyorat qildik. Bu maqbaralarni ko'rganda insonning hushi boshidan uchadi. Naqadar chiroyli naqshlar bilan bezatilgan, dunyodagi yeng qimmatbaho toshlardan qurilgan. Loxurlik tarixchilar yozishicha, bu maqbarani Hindistondagi «Toj mahal»ni qurgan ustalar qurishgan. Bu mo'jiza binolarni ko'rganda kishi beixtiyor Temuriylar davrini ko'z oldiga keltiradi. 14 iyun kuni yertalab nonushtadan so'ng Ali: «Soat 10⁰⁰ da sizlarni «Panjob» nomli qadimiy davlat kutubxonasida Pokiston davlati kutubxonalarining bosh direktori doktor Ashkar Geloniy kutadi», - dedi. 1884 yilda inglizlar qurgan davlat kutubxonasiga aytilgan vaqtda yetib bordik¹¹⁹.

Ajoyib ikki kavatli bino, uning atrofida turli subtropik daraxtlar va gullar yeqilgan. Mashinadan tushganimizda bizlarni ko'pchilik kutubxona rahbarlari, Lohur shahrining madaniyat xodimlari va janob Ashkar Geloniy kutib oldilar. Pokiston va Rossiya jurnalistlari bu tarixiy uchrashuvni tasvirga olishdi. Doktor Ashkar Geloniy katta hurmat bilan bizlarni ichkariga taklif qildi. Ichkari xonalarda stollar qo'yilib, dasturxon yozilgan.

¹¹⁹ Ализода Фарҳод “Сухбат дафтари” № 12. 2013 йил 10-декабр.

Dasturxonga turli salqin ichimliklar, mevalar va boshqa noz-ne'matlar tortilgan. Shu payt kutubxona xodimlaridan bir yigit bir dasta kitob keltirib, janob Ashkar Geloniyning stoli ustiga qo'ydi. Buni qarangki, 1977 yildan buyon izlab yurgan uchta yemas, naqd o'n beshta kitobni janob Ashkar Geloniy gulduros qarsaklar ostida menga topshirdi. Bu qadimiy davlat kutubxonasida to'plangan hamma odamlar oyoqqa turishdi. Shu onda kitoblarni bosh direktor qo'lidan olar yekanman, avvalambor Pokiston davlat rahbarlariga, Prezident general Parviz Musharrafga, Bajva Gulam Xazzorga, Janob Geloniy va butun kutubxona xodimlariga o'z tashakkurimni izhor qildim. So'zimning oxirida, jumladan: «Bobom Sayid Rizo Alizodani o'sha 1920 yilda Hindistondan Samarqandga kelgan mashhur yozuvchi olim Barakatullo Lohypra taklif qilgan, ammo bobom o'zlari kela olmasdan, meni diyoringizga yubordilar. Barchangizga bobom Sayid Rizo Alizodadan va u kishining 70 nafar avlodlaridan salomlar bo'lsin», - dedim. Qarsaklar chalindi. So'zimni tugatar yekanman, agar hozir janob Geloniy bu kitoblarning o'rniga ikki ko'za: birida to'la oltin, ikkinchisida to'la javohir keltirib menga taqdim qilsa yedi, men ko'zalarni yemas, ana shu kitoblarni olgan bo'lardim», - dedim. Hamma kulib: «Ofarin», - deyishdi. Yertasiga Islomobodga qaytdik... . Kechqurun bizlarni Islomobod davlat televideniyesiga taklif qilishdi. Bundan oldin Pokiston gazetalarida Sayid Rizo Alizoda va mening rasmim bilan maqolalar bosildi. Maqolalarda o'zbekistonlik olim S. Alizoda XX asr boshida biz pokistonliklar uchun o'nlab asarlar yozgan, deb uning kitoblari muqovalari rasmi gazetalarning birinchi betida joylashtirilgan. Kechqurungi teleko'rsatuvda Pokiston prezidenti, Pokiston xalqi hamda hukumat a'zolariga meni mamlakatga taklif qilganlari uchun o'z nomimdan va butun o'zbekistonliklar nomidan minnatdorchilik bildirdim.

Moskvaga qaytganimizdan keyin Rossiya televideniyesining «Musulmane» kanalida Pokistonga safarimiz ikki marta yefirga uzatildi. Bu ko'rsatuvdan keyin menga Samarqanddan, Toshkentdan, Bokudan, Tiflisdan (Gavriliya), Buxorodan va boshqa rus shaharlaridan (Rostov) armiyada bir- ga xizmat qilgan yor-birodarlar sim kokib, amalga oshirgan ishlarim uchun rahmatlar aytishdi. 2008 yilda Misrga bordim, Misrning qadimiy poytaxti Luksor, Kohira va Xurgadani ziyorat qilib dam oldim... . Keyin Qoxirada ziyolilar, olimlar va universitet talabalari bilan uchrashib, Sayid Rizo Alizoda arab tilini Turkistonda birinchilardan bo'lib targ'ibot qilganini va hatto yangi usuldagi maktablar

uchun arab grammatikasi - «Sarfi arab»ni yozganini aytib berdim. Bundan tashqari, arab tilidan Qur'oni Karimning bir qancha oyatlarini, fransuz tiliga, «Islom tarixi», «Madaniyati islom», «Shahodati ikrom», «Saodat asri» va boshqa asarlarni fors, o'zbek, tojik va ozarboyjon tillariga o'g'irganini ham aytib o'tdim.

1908 yilda 8-10 nafar arab tojirlari Misrdan Samarqandga ziyorat va tijorat uchun keladilar. Ularni chegarada to'xtatib, Samarqandga nima maqsadda kelganlarini so'raganlarida ma'lum bo'ladiki, ular o'zbek tilini ham, tojik va rus tilini ham bilishmas yekan. Shunda ularni qamaydilar. Bu xabar Samarqand viloyati gubernatori general Abramovga yetib boradi. Gubernator tezlik bilan bu masalani hal qilishni buyuradi¹²⁰. Ammo shaharda arab tilini puxta biladigan odam topila qolmaydi. Shunda xavfsizlik boshqarmasidan kimdir bosmaxonada ishlaydigan Sayid Rizo Alizodani chaqirishni maslahat beradi. Alizoda turmada 8-10 nafar arab sayyohlaridan hol-ahvol so'rab, ularning qaysi mamlakatdan yekanliklari va bu shaharga qanday kelib qolganlari bilan qiziqadi. Arab sayyohlari ozod qilingandan keyin gubernatorning buyrug'i bilan ularni Samarqanddagi qadimiy yodgorliklarga olib borib, ularning tarixi bilan tanishtiradi. Sayyohlar yana 4-5 kun Samarqandni aylanib, sog'-salomat Misrga qaytadilar. Men bu voqeyani Qohirada to'planganlarga naql qilib, Sa'diy Sheroziyning ustozini, qadim misrlik shoir Juz'iyning she'rlarini ham Alizoda o'zbek, tojik-fors tillariga o'g'irganini gapirib berganimda, Misr universitetini tugatib, «Xurgada»da xorijdan kelgan sayyohlarga tarjimonlik qiladigan Amal ismlik qiz yig'lab yubordi va nahotki bundan yuz yil oldin Turkistonda arab tilini shunday puxta biladigan odam o'tgan bo'lsa, dedi. Men bu qizga bobomning o'zim bilan olib borgan bir dona fotosuratlarini orkasiga: «Arab tilining bilimdoni bo'lgan», deb yozib berdim.

Qadimiy Misrga sayoxatimiz chog'ida Kopira, Luksor (yeski poytaxt), Sharm al-Shayx va Xurgada kabi shaharlar- da bo'ldim. Bu yerda ko'pgina olimu ziyolilar bilan uchra- shib, ularga bobom haqida so'zlab berdim. XX asr boshlari- da uning Turkistonda arab tili, yozuvi va tarixini birin- chilardan bo'lib targib qilgani to'g'risida ko'plab dalillar keltirdim.

¹²⁰ Ализода Фарход “Сухбат дафтари” № 13. 2013 йил 25-декабр.

Sayid Rizo Alizoda 1906-1915 yillar davomida o'zi ochgan jadid (yangi usul) maktablarida arab tili va adabiyotidan dars bergan. Bu maktablar uchun birinchi marta «Sarfi arab - Arab grammatikasi»ni yozib, maktablarga tarqatadi. 1907 yilda arab, fors va ozar - turk tillarida «Risolatul Ittixodiya» asarini yozib, chop yettiradi. Kitobida musulmon xalqlarini birlikka, birdamlikka chaqiradi. Aks holda G'arb mamlakatlari turli yo'llar bilan tazyiq o'tkazishi, oyoqosti qilishi mumkinligini bashorat yetadi. Bugungi kunda ayrim mamlakatlarning taqdiri bunga misol bo'la oladi. Tarixdan ma'lumki, 1910 yilda Buxoroda g'arblik ayg'oqchilar fitnasi natijasida noxush voqyealar - qon to'kishlar bo'lib o'tgan. Bu voqyealarni yeshitgach, Sayid Rizo Alizoda ko'pchilik ma'rifatparvarlar qatori Buxoroga boradi. Dini islomdan yaxshi xabardor yekanligi bois bir oy davomida oddiy xalq orasida yurib, dinlararo ixtilof keltirib chiqarayotganlarning kirdikorlarini fosh yetish maqsadida tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib boradi. 1927 yilda o'z faoliyatini boshlagan Samarqand (sobiq o'zbek) Davlat universitetida Sayid Rizo Alizoda talabalarga 10 yilga yaqin arab, fors, tojik va o'zbek tilidan saboq berganini ko'pchilik bilmasligi mumkin. 1923-1934 yillarda Hindiston (hozir Pokiston hududi)dagi Lohur shahrida chop yetilgan 17 ta kitobning yarmi arab tilidan fors va urdu tillariga o'girilgan. Ikki jilddan iborat «Islom tarixi», «Madaniyati islom», «Shahodati Nabaviy» (Payg'ambarimizga bag'ishlangan asar), «Saodat asri» shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Bartoldning «Turkiston tarixi»ni ham misol keltirishimiz mumkin.

III.2. SAYID RIZO ALIZODA IJODIDAN NAMUNALAR.

«Alifbe» kitobi pedagogik asar sifatida ko'p jihatdan ye'tiborlidir. Xususan, undagi har bir satrda ta'lim va tarbiya yagona jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Muallif «Yomon odamdan hamma qochur», «Gadoyga ozor bermoq yaxshi yemas», «Axmoqning suhbatidan qochgil», «Non ila suv barchaga zarurdir», «Umringni abas o'tkazma» kabi qisqa satrlarda ilmi odob haqida fikr yuritib, o'quvchilarni odobli bo'lishga da'vat yetadi. Sayid Rizo Alizodaning «Alifbe» kitobi ko'plab ma'lumotlarga boyligi bilan qiziqarlidir¹²¹. Chunonchi, muallif o'quvchilarning savodini chiqarish jarayonida ularga turli sohalarga oid bilimlarni ham berib boradi. Masalan: «Bir oy o'ttiz kun bo'lur»,

¹²¹ Микайлов Шамистон. Самарқандлик донишманд. — “Зарафшон” газетаси, 2007 йил 30 октябрь.

«Ofrika - Afrika (S.A.) juda issiq bo'lar», «Turkiston bizning vatanimizdur», «Yevropa urushida Yeron ila Yunon betaraf turdi», «Qur'on - musulmonlarning diniy kitobi», «Parij Fransiya poytaxtidur». Albatta, kichik axborotda Sayid Rizo Alizodaning «Alifbe» kitobini to'raligicha tahlil qilib bo'lmaydi. Biz bu mas'uliyatli va dolzarb vazifani mutaxassislar hukmiga havola yetgan holda «Alifbe» kitobi o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini yeslatamiz, holos ...¹²²

Aksincha, ma'naviyat va ma'rifat masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor yunalishi sifatida dolzarb bo'lib turgan hozirgi paytda bu asarning qadr-qimmatini tobora oshib boraveradi. Biz bu fikrni bir oz bo'lsada dalillash maqsadida Sayid Rizo Alizodaning «Alifbe» kitobidan bir necha ibratli hikoyalarni, uning tarjima asarlaridan namunalarni va qimmatli so'zlarni keltiramiz.

Ibratli hikoya

Tog'a ila jiyan

Bir kuni Sharif o'z jiyani aytdi: «Ahmad, agar xudoning yerini menga aysang, senga bir olma berurman». Ahmad javob berdi: «Tog'a, agar siz xudo bo'lmagan yerni menga aysangiz, o'z qalamtaroshimni sizga berurman»¹²³.

Tarjima asarlaridan namunalari

Ochko'z it

Bir it og'zida suyak, bir ariqning ustidan o'tar yedi. Suvda o'z suvratini ko'rib, boshqa bir it, deb uyladi. Ondan suyakni tortib olaman, deb o'zini suvga tashladi. Lekin suvda na it topdi va na suyak, balki o'z suyagidan ham ayrildi.

Bo'ri ila cho'ponlar

Bo'ri suruvdan bir qo'yni oborib yegan yedi. Cho'ponlar uni ushlab, urmoqqa boshladilar. Buri bu holni ko'rib aytdi: «Sariqligim vajhidan menda hyech gunoh yo'qdur, xudo meni shunday sariq yaratibdur». Cho'ponlar javob berdilar: «Biz seni sariqliging uchun urmaymiz, balki bizning qo'yimizni yeganing uchun...»¹²⁴

Olimning fasodi - olamning fasodi.

¹²² Шарилов Бахтиёр. «Маърифатпарварлар сулоласи» «Самарқанд» газетаси. 2007 йил 1 декабрь, 3-бет.

¹²³ Тошев Фармон. «Аллоганинг невараси» «Зарафшон» газетаси, 2007 йил 17 ноябрь, 3-бет.

¹²⁴ Микаилов Шамистон. Самарқандлик донишманд. — «Зарафшон» газетаси, 2007 йил 30 октябрь.

Hazilning oxiri - nizoning boshi.
Ixlos ila xalos bo'lursan.
Gumon odamni imondan ayiradi.
O'lim xaq, meros halol.
Har ishda nizom kerak.
Sen himmat qilsang xudo quvvat berur.
Avval yehtiyot, so'ngra tavakkal...

«Alifbe»da uchragai ayrim naql va qayroqi so'zlar

Igna barchani kiyintirar, lekin o'zi yalangoch.
Ko'rga kecha ila kunduz barobar.
Taqvo tasbehda yemasdur.
Birovning musibatiga xursand bo'lma.
Ajal hyech kimga muxlat bermas.
Xudoning rizqini yeganda, shukrini ham qil.
Qora ko'zga surma kerak yemas.
Osuda bo'lay desang, birovga zomin bo'lma.
Xudoning misli yo'qdir.
Zolimning oxiri yomondur.
Birovning uyiga iznsiz kirma.
Ne'matda hozir, xizmatda ma'zur.
Aql sallada yemas, kalladadur.
Arrani ichki tarafga torturlar.
Birovni izzat qilgan o'zi aziz bo'lur.
Har kim oynada o'z suratini ko'rur.

So'nggi 30-40 yil ichida gazeta, jurnal, risola hamda kitoblarda yozilgan maqola va ocherklardan ma'lumki, Sayid Rizo Alizoda 14-15 tilni mukammal bilgan va shu tillarda asarlar yozib, tarjimalar ham qilgan¹²⁵. Bundan tashqari, S. Alizoda islom dinini hali

¹²⁵ Тошев Фармон. “Алломининг невараси” “Зарафшон” газетаси, 2007 йил 17 ноябрь, 3-бет.

yoshlik yillaridayok puxta yegallagani uchun bu din tarixi va taraqqiyoti haqida ko'plab asarlar yozgan. Bu asarlarni arab tilidan fors, urdu va o'zbek tillariga o'g'irgan. Hatto 1920 yillarda «Qur'oni Karim»ning bir qismini fransuz tiliga tarjima qilib, o'zi fransuz tilidan dars olgan muallimasi orqali Parijga yuborgan¹²⁶. Arab tilida yozgan qo'lyozmalarini yesa 1911 yilda Shayx al-Ganjiga berib, Bag'dodga (Iroq) jo'natgan. Hind (urdu) tilida yozilgan tarixga oid kitobini 1920 yilda Xindistonning mashhur yozuvchilaridan biri, olim Barakatulloqa yo'llagan. Yana yigirmaga yaqin asarlarni Mir Muhammad Gulmoniy va uning o'g'li Sher Muhammad ko'magida Afg'onistonga, u yerdan Pokistonning Lohyp shahriga yuborgan¹²⁷.

Sayid Rizo Alizodaning Afg'onistonga borib yetgan asarlari tarixi quyidagicha: Afg'onistonning birinchi Prezidenti Amir Omonulloxon maslahatchisi Muhammad Dovud orqali Samarqandga, Sayid Rizo Alizoda uyiga ikki marta xat berib yuboradi va uni o'z diyoriga taklif yetadi. Ammo S. Alizoda ikki marta ham hurmatli mehmonni bajonudil qabul qilib, Afg'onistonga bora olmasligini aytib o'zr so'raydi. Sababi, birinchidan, o'zimizda ham yumushlar bisyor, ikkinchidan, sir bo'lsa ham, ingliz razvedkasi S. Alizodani Yeron za Afg'oniston taraflarda izlab yuribdi, deydi. Ammo Amir Omonulloxonning xatiga javob yozib, boshqa har qanday iltimos bo'lsa bajonudil xizmatga tayyor yekanligini bildiradi. Sababi, Sayid Rizoning katta bobosi Mir Sayid Ali dini islom peshvolaridan bo'lgan. Afg'onistonda ancha vaqt yashab, keyin Buxoroga ko'chgan. Bu tarix Afg'onistonda ma'lum yedi. Shuning uchun ham S. Alizoda Afg'onistonga bo'lgan hurmatini yashirmasdi. Shu sababli Sayid Rizo Alizoda 1923 yilda Afg'onistondan yana Amir Omonulloxonning iltimos xatini olib kelgan noshir Mir Muhammad Gulmoniy Afg'onga ba'zi qo'lyozmalarni berib yuboradi. Noshir bu kitoblarni olish uchun 8 oy S. Alizodaning uyida yashab ketadi. Qo'lyozmalarning hozir bizga ma'lum bo'lmaganlari Afg'onistondagi maxfiy arxivlarda saqlanadi. Qolganlari Lohyp (Pokiston)da chop yetilgan. «Moroselot», «Din vojiblari», «Nizomnoma», «Ilmi fazo», «Risolatul Ittihodiya», «Saodat asri», «Islom tarixi» (ikki jildlik), «Islom madaniyati» (ikki jildlik), «Asobai ikrom» (Payg'ambar asobalari), «Shahodati ikrom» va

¹²⁶ Микаилов Шамистон. Самарқандлик донишманд. — “Зарафшон” газетаси, 2007 йил 30 октябрь.

¹²⁷ Шарипов Бахтиёр. “Маърифатпарварлар сулоласи” “Самарқанд” газетаси. 2007 йил 1 декабрь, 3-бет.

«Islom aqidalari», Bartoldning «Turkiston» asari, «Xiva va Buxoro tarixi», Karamzinning «Rossiya tarixi», shuningdek, «Yaponiya tarixi», «Xitoy tarixi», «Koreya tarixi», «Yevropa tarixi», «Asal (zombir)ning insoniyatga foydasi» kitoblari shular jumlasidandir. Tarjima asarlarning yarmi arab tilidan, qolganlari rus va boshqa tillardan o'girilgan¹²⁸.

«Saodat asri»

Pokistonda chop yetilgan kitoblardan biri «Saodat asri» haqida batafsilroq to'xtalib o'tish o'rinlidir. Unda qirq ikkita sarlavha ostida payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallamning bashoratlari, qabilasi, dunyoga kelishi, tug'ilganda ro'y bergan mo'jizalar, yenagasi Halima, ota-onalarining vafoti, Shom (Suriya)ga birinchi va ikkinchi safarlari, Ka'batullo mohiyati, musulmonlar va g'ayridinlar, Rasulullohning Makkadan Madinaga ko'chishi, Quraysh qabilasi birligi, Dabr va Uxud urushlari, islomdan oldingi davr haqida mulohaza yuritiladi¹²⁹.

Asar hijriy 1305-1345 yillarda yaratilgan. Arab olimi Sh. Sharaf (kitobda ismi to'liq berilmagan) qalamiga mansub ushbu asarni Sayid Rizo Alizoda forschaga o'giran, qo'shimchalar kiritib, tartib bergan. Kirish so'zida: «Asar a'lohzrat Amir Omonqulixonning iltimosi bilan va Amir saltanatidagi qozi Xaladulloh Maliklarning hohishi asosida yozildi», - deb qayd yetadi Sayid Rizo Alizoda. Kitob milodiy 1925 yilda Lohur shahridagi «Panjob» matbaa korxonasida bosilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, bu kitoblar Hindistonda (Lohur oldin Hindistonga qarashli bo'lgan va 1950 yilda Hindistondan ajralib chiqqan) chop yetilishidan oldin, Sayid Rizo Alizodaning o'zini ham u yerga taklif qilishgan. Chunki kitoblarni chop yetish davrida tarjimon qatnashib, agar kitoblarga o'zgarish yoki qo'shimchalar kiritish kerak bo'lsa, bu ishlarni uning shaxsan o'zi qilishi lozim yedi. Ammo Sayid Rizo Alizoda o'giran asarlarini shunday ko'zdan kechirganki, buyurtma kitoblarda nuqson topilmagan¹³⁰.

Pokistonlik olimlar, xususan, islom universiteta rektori, doktor Al-Rahmon janoblarining ta'kidlashicha, bu kitobning chop yetilishi katta bayram qilingan. Uni forslardan tashqari urdu va xazarlar ham sevib o'qishgan. Kitobxonlarda qiziqish

¹²⁸ Тошев Фармон. “Алломанинг невараси” “Зарафшон” газетаси, 2007 йил 17 ноябрь, 3-бет.

¹²⁹ Микаилов Шамистон. Самарқандлик донишманд. — “Зарафшон” газетаси, 2007 йил 30 октябрь.

¹³⁰ Шарипов Бахтиёр. “Маърифатпарварлар сулоласи” “Самарқанд” газетаси. 2007 йил 1 декабрь, 3-бет.

uyg'otish maqsadida kitobning Rasulullohning Shom shahriga qilgan birinchi safari haqidagi xikoyatni qisqacha keltiramiz;

Abutolib jiyanini juda ham yaxshi ko'rardi. Uni o'zi bilan safarlarga olib chiqardi. Buning ustiga, Muhammad yo'l hodisalarini juda ishtiyoq va sinchkovlik bilan kuzatadi. Voqyealar xususida oqilona xulosalar aytib, hamrohlarini hayron qoldiradi.

Kunlardan bir kun karvon Basra shahriga yetib kelganda musofirlar o'sha davrda mashhur bo'lgan xristian tarixchi olimi Baxira bilan suhbatlashib qoladilar. Abutolibning burro, ma'noli javoblari alloma ye'tiborini tortadi. Ular qizg'in suhbatga kirishadilar.

Baxiro so'raydi: «Men qadimgi arab tarixiga oid kitoblarni mutolaa yetganda «Zamonlar o'tib arablardan oxirgi payg'ambar tug'iladi» degan bashoratni o'qigan yedim. Siz bunga ne deysiz?» Abutolib deydi: «Men hozirgacha birorta kitobda bunday bashoratga duch kelmadim va bu xususda yeshitganim ham yo'q»- Shunda Baxironing ko'zi ular suhbatiga diqqat qilib turgan Muhammadga tushadi. Qarasa, bolaning boshi ustida oq bulutlar paydo bo'lib, unga soya solishmokda. Bu hodisa xususidagi bashoratlardan xabardor bo'lgani uchun alloma Baxira xushyor tortadi. Demak, tarixiy kitoblarda aytilgan bo'lajak payg'ambar mana shu o'spirin! U yosh Muhammadni suhbatga tortadi. Undan uyqusida ko'rgan tushlari tafsilotini aytib berishini so'raydi. Muhammad tushlarida ko'rganlarini donishmandlarga xos tarzda so'zlab beradi.

Yo rab! Bu o'sha! Kitoblardagi bashoratlarga aynan o'xshaydi. Baxiro Muhammad bilan yaqindan suhbatlashar yekan, uning ko'ylagi yoqasini ko'tarib yelkasiga qaraydi va uning ko'zi bola yelkasidagi payg'ambar muhriga tushadi. Baxiro muhrni o'padi va Abutolibga qarab: «Ana shu jiyaningiz oxirzamon payg'ambari bo'ladi», - deydi.

Yendi kitobning nomiga kelsak. U «Saodat asri» deb atalgan. «Asri» kalimasi ham katta harf bilan yozilgan. Sayid Rizo Alizodaning izoh berishicha, qadimda Islom dini paydo bo'lgan davrni ana shunday atashgan yedi. S. Alizodaning shu asari uchun Afg'oniston Prezidenti unga katta mukofot ham yuborgan¹³¹. Sayid Rizo Alizodaning bu kitoblari Afg'oniston, Yeron hamda Pokistondagi maktab va madrasalarda ko'p yillar darsliklar sifatida o'rganilgan¹³².

¹³¹ Ализода Фарход. “Бизнинг тарих”. “Самарқанд” газетаси, 2007 йил, 22 декабрь, 4-бет.

¹³² Шарипов Бахтиёр. “Маърифатпарварлар сулоласи” “Самарқанд” газетаси. 2007 йил 1 декабрь, 3-бет.

Sayid Rizo Alizodaning tarjimalari tojik tilidagi maktablar uchun ham asqotgan. Inqilobdan keyin yangi hayotga kirishish, yangidan tashkil topgan jamiyat binosining poydevorini qurish oson yemas yedi. O'sha paytda jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri savodsizlikni tugatish, omma o'rtasida ilm-ma'rifat tarqatishdan iborat yedi.

Yangicha hayot o'z bunyodkorlaridan puxta bilim va mukammal hunar talab qilardi. Shuning uchun ham zamon takozosi bilan butun mamlakatda maktablar ochish va maorif hamda madaniyatni ravnaq toptirish muhim ahamiyatga yega yedi. Bugungi Tojikiston va O'zbekistonning tojiklar yashovchi xududlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Toshkent atroflari, Farg'ona vodiysi va Surxondaryoda ochilgan maktablarga pedagog kadrlar hamda o'quv qurollariga yextiyoj katta yedi.

Yangi maktablar yangicha ta'lim uslubini talab qilardi. Bu yesa madrasada ta'lim olgan ziyolilar oldida ba'zi qiyinchiliklar tug'dirardi. Chunki yangi ta'lim dasturiga muvofiq darsliklar yo'q yedi. Sayid Rizo Alizoda bu muhim masalani hal yetishga ham ulkan hissa qo'shdi. Uning ko'p yillar Samarqand shahridagi maktablarda hamda dorilfununda ona tili, fors, arab va rus tillaridan dars berganligi hamda o'nlab boshqa tillarni mukammal bilishi unga tojik tilida bir qator darsliklarni yozish hamda rus tilidan darslik va badiiy asarlarni tarjima qilish imkonini berdi.

Hayot taqozosi bilan qisqa muddatda uning bir qator darslik kitoblari vujudga keldi¹³³. «Soli naxustin», «Birinchi alifbe», 1920 yilda «Sarfi nahv tojiki», 5-6 sinflar va yana 7-9 sinflar uchun 1925 yilda «Tojik tili grammatikasi»ga tartib berilgan. «Dobistoni tojik», «Tojik yozi» - o'qish kitobi va bundan tashqari ikki jilddan iborat «Ruscha-tojikcha mukammal lug'at» (1933-1934 y.) ham shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, u rus va xorijiy mamlakatlar klassik asarlarini tojik tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qilib beradi. Masalan, A.S. Pushkinning «Kapitan qizi», «Belkin qissalari», «Dubrovskiy», «Buron», «Yevgeniy Onegin» asarlarini, L. Tolstoy, A. Sholoxov, N. Ostrovskiy, F. Gladkov asarlarini, shuningdek, Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon», «O'tkan kunlar» romanlarini, Amerika taraqqiyparvar yozuvchisi Sinkler Yeptonning «Yuz foiz», G. Mopassanning «Do'ndiqcha», Molerning «Zo'raki

¹³³ Ализода Фарход. “У Башар фарзанди эди”. - “Зарафшон” газетаси, 2008. 10 январ, 8-бет.

tabib» va boshqa asarlarini, Kiselyovning «Algebra», Terentevning ikki jilddan iborat «Hisob», «Arifmetika», Ivanovning «Geografiya» va «Tabiat» hamda boshqa darsliklarni rus tilidan tarjima qiladi. Qisqa muddatda S. Alizodaning bir qator darslik kitoblari vujudga keldi. ¹³⁴Sadriddin Ayniy Alizodaning ikki tarjimasi haqida 1925 yili «Ovozi tojik» gazetasida «Qisqa vaqt ichida nashrdan chiqqan bu kitoblar nuqsonlardan ham holi yemas», deb yozgan yedi. Ayniy tili va bayoni jihatdan ayrim juz'iy kamchiliklar mavjudligidan qat'iy nazar, «Tabiat darsligi»ga katta baho berib, bu kitobni tilining boyligi va ma'lumotning to'liqligi nuqtai nazaridan tojik tilidagi shoh asar deyish mumkin, deb ta'rif yetgan yedi. Alizoda bu tarjimada katta muvaffaqiyatga yerishgan. Bu kitobda «Hisob» kitobi singari fors tilining buzilganini ko'rmaymiz, deb yozadi S. Ayniy.

Sayid Rizo Alizoda darslik kitoblari va ko'plab maqolalardan tashqari bir qator badiiy asarlarni ham tarjima qilgan. «Hozirgacha respublikada tarjima masalalariga oid tadqiqot asarlari yo'qligi va 30-yillarda bizga ma'lum bo'lmagan sabablarga ko'ra tarjima asarlarida tarjimonning ismi-familiyasi qo'yilmasligi sababli Alizoda tomonidan ag'darilgan barcha asarlarni aniqlay olmadik», - deb yozadi tojikistonlik olim Subhon Atobulloyev.

Bu tarjima asarlari tarjimonning katta mahoratidan darak beradi. Qisqa muddat ichida buncha asarni tarjima qilib o'quvchilarga yetkazish kishidan benihoya katta sabr-toqat, zavq va mehnat talab qiladi. Tarjima qilgan asarlaridan ma'lumki, Alizoda tojik o'quvchilarini jaxon adabiyoti xazinasidan baholi-qudrat bahramand qilgan. Pushkin asarlarining qiymati hammaga ma'lum. A. Qodiriyning zo'r mahorat bilan yozilgan «Mehrobdan chayon» romani o'zbek adabiyoti xazinasining qimmatli durdonasi hisoblanadi. Tojik tilida ikkinchi marta nashr yetilishining o'ziyoq uning katta mahorat bilan tarjima qilinganligidan dalolatdir. Xullas, tarjimonlik san'atining taraqqiy yetishida Alizodaning xizmatlari beqiyos bo'lib, u o'rganishga loyiqdir. Bu haqda S. Alizodani yaxshi bilgan, u bilan hamkorlik qilgan Rahim Hoshim «Sharqi Surx» jurnalining 1962 yilgi 4-sonida bosilgan maqolasida, jumladan, shunday yozgan yedi: «Inqilobning dastlabki yillarida rus tilini mukammal bilgan ilk adabiy tarjimonlardan biri marhum Sayid

¹³⁴ Умеров Сайди. Самаркандлик маърифатпарвар. - «Зарафшон» газетаси, 2008, 22.январь.

Rizo Alizoda yedi. 1913 yilda «Oyina» jurnalida adabiy xodim bo'lib ishlaganidayoq badiiy tarjima bilan shug'ullana boshlagan. Alizoda rus tilidan tojik tiliga badiiy tarjimaning asoschilaridan biri hisoblanadi»¹³⁵.

Tojikiston davlat nashriyoti tashkil topgan dastlabki yillarda ko'plab badiiy asarlar Alizoda qalami bilan tojik tiliga tarjima qilindi...

«Alizoda tarjimalari nihoyatda pishiq, uslubi yerkin va uning tarjimalarini o'rganish ibratlidir», - deb yozadi Subhon Atobulloyev o'zining 1976 yilda, Dushanbe shahridagi «Irfon» nashriyotida chop yetilgan «Sayid Rizo Alizoda» deb atalgan risolasida¹³⁶.

Yana bir tojikistonlik olim, asli Samarqandlik (Chilustum guzaridan) Abdusalom Dehotiy ushbu lug'atga (birinchi mukammal ikki jildlik ruscha-tojikcha lug'at) tartib beruvchilardan biri Sayid Rizo Alizoda - tojik tilidagi ilk «Sarfi nav» (morfologiya va sintaksis) kitobi muallifi bo'lgan olim ko'chama-ko'cha, yeshikma-yeshik yurib turli-tuman kasb yegalari: dehqonlar, temirchilar, misgarlar, qadoqchilar, to'quvchilar, qassoblar va boshqalarga murojaat yetib, atamalar va xalq iboralarini ulardan so'rab yiqqan yedi».

¹³⁵ Ализода Фарход. “Бизнинг тарих”. “Самарқанд” газетаси, 2007 йил, 22 декабрь, 4-бет.

¹³⁶ Шарипов Бахтиёр. “Маърифатпарварлар сулоласи” “Самарқанд” газетаси. 2007 йил 1 декабрь, 3-бет.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki Sayid Rizo Alizodaning ilmiy pedagogik faoliyati nafaqat mamalakatimiz ilm fani ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shdi, balki qo'shni mamlakatlarda ham o'zining nufuzli ma'rifatparvar yekanligini namoyon yetdi. Uning jurnalistik faoliyati keng qamrovli jarayonga aylangan yedi va shu boisdan ham uning bosqinchi imperiyalarning mustamlakachilik siyosatini gazeta va jurnallar minbarlaridan turib qattiq tanqid qilishi ko'pgina imperialistik davlatlarga yoqmagan yedi. Uning bu vatanparvarlik chiqishlari, qolaversa mustamlaka zulmidan azob chekayotgan xalqlarga nisbatan hamdardligi ko'plab kuyunchaklik bilan yozilgan va insonning yurak to'ridan joy oladigan maqola va asarlarning dunyoga kelishiga sabab bo'ldi. Sayid Rizo Alizoda mustamlaka Turkistonni istibdod, qoloqlik botqog'idan qutqarishga va uni ma'rifatli millatlar darajasiga ko'tarish uchun qo'lidan kelgan barcha vositalar bilan ish olib bordi va bu yo'lda tinmay zahmat chekdi. U Ozarboyjon va Qrimda chop yetiladigan turkiy, Samarqand, Buxoro va Toshkentda chiqadigan mahalliy gazetalarda maorif masalalariga bag'ishlangan publisistik maqolalar yozib turdi. Masalan, «Hamma bu badbaxtliklari razolat, qashshoqligi safolat biz turkistonliklarni qoplab olishi sababi zamona madrasalarini sitamu faqirligidur», - deb yozadi S. Alizoda «Oyina» gazetasining 1913 yil 15 noyabrida bosilgan «Maktab va madrasalar islohoti bizga zarur» maqolasida (3-son). «Hamma basirat arboblari oshkor va vo'zedurkim, har bir millat va har bir toifaning ravnaqi maktab siyosatining ravnaqi va islohotiga bog'liqdur. Samarqand va uning atrofida 150 mingdan ortiq nufusi bo'lib, musulmonlardan qancha tojir, sudgar, qancha do'kondor va kontorchil bor? Qayerda do'xtur, muallim, muhandis, ki bizga nonu suvday zarurdir. Yillar bo'libdiki, mamlakatlar musulmonlari ilm darajasi, maktab va madrasalar manfaatini bilib, har bir shaharda (kentlarda) jadida maktablar ochib, ularni takomillashtirishga harakat yetmoqdalar. Ammo biz Turkiston musulmonlari nainki jadida maktab va Madrasa ochayapmiz, balki hanuzgacha ularni bid'at va harom sanayapmiz. Bilmayman, biz Turkiston musulmonlariga nima bo'ldi? Yey, turkistonlik birodarlar! Yey, aziz yurtodoshlar! G'aflat qachongacha! Jaholat qanchalik...?

Alizoda til, uning taraqqiyoti va ozodligiga tilshunoslik nuqtai- nazaridan jiddiy munosabatda bo'lgan. Shu o'rinda u boshqa tillarni o'rganish va bilish foydali, hatto zarur yekanligini qayd qiladi. Ammo jamiyat taraqqiyotida ona tilining rolini inkor qilish, uni halokatga solish va taraqqiyot doirasini toraytirish zararli deb biladi. Sayid Rizo Alizoda tilni jamiyatda kishilarning aloqa vositasi, shuningdek, kurashning qudratli quroli va milliy madaniyatning bir shakli deb bilardi. U adabiy tilning ozodligi, pokligi, ravonligi va ommabopligi to'g'risida ko'plab maqolalar yozar yedi. Bu ham O'zbek, ham tojik va Turkistonda yashaydigan boshqa millat va yelatlariga ham taalluqli yedi. Til har bir millat mavjudligining asosiy belgisidir. Til har bir xalq va millatning tarixi, madaniyati, urf-odati, tafakkur tarzi va uning xislatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Tilning yo'qolishi bilan yesa o'sha xalq yo millatning tarixi ham yo'qoladi. Alizoda til qanchalik sodda, ravon va ommaga yaqin bo'lsa, u o'zining jamiyatdagi rolini shu qadar yaxshi ijro yetishini aytadi. S. Alizoda maktab siyosati ko'p jihatdan til islohoti bilan chambarchas bog'lik yekanligini qayd qiladi. U «Har millat o'z tili ila faxr qilur» maqolasida «Zamonamizning yeng muhim masalalaridan biri til masalasidir. Xushyor millatlar buning ahamiyatini barcha masalalardan ortiq qo'yadilar... Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, biroz zamonda til va millatimizni yo'qotganda, diyonatimiz o'z-o'zi ila albatta yo'qolur», - deb kuyunib yozadi. Alizoda Pushkin va Tolstoylar tilini yaxshi bilgan. Shu sababli u rus xalqi yozuvchi va shoirlarining asarlarini tojik tiliga o'giran. Afsuski, u qamoqqa olingandan keyin bu tarjimalar boshqalarning nomiga yozilgan. Alizoda o'zbek tiliga ham ancha rus asarlarini o'giran. Rus tiliga yesa Navoiy, Nizomiy, Fuzuliy, Ro'dakiy, Ibn Sino va Firdavsiylarning asarlaridan parchalar o'giran. Shuningdek, Qur'oni Karimning bir necha oyatini fransuzchaga tarjima qilgan. Fors tiliga yesa arab, turk, rus va boshqa tillardan ko'pgina asarlarni tarjima qilgan. «Rossiya tarixi», «Turkiston tarixi», «Buxoro tarixi», «Xiva tarixi», «Xitoy tarixi», «Yaponiya tarixi», «Koreya tarixi», «Yevropa tarixi», «Islom tarixi» va bir qancha tarjimalar shular jumlasidandir. Xulosa qilganda Sayid Rizo Alizoda o'z davrining yetuk bilimdon va vatanparvar kishisi bo'lib, madaniyat va ma'rifat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan siymolardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз-Тошкент. Ўзбекистон 1998.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ-Т. 2000.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч -Тошкент. Маънавият. 2008.
4. Алескерев Ю.Н. “Инқилоб алангаси” –“Мухбир” журнали, 1977, №5, 38-40 бетлар.
5. Абдусатторов С, Алескерев Ю.Н., Попов Г.В. Имя их коммунисты. - Ташкент: Узбекистан, 1984, с. 137-141.
6. Alizoda F “Sayid Rizo Alizoda” “Abu matbuot konsalt” nashriyoti. Toshkent 2011
7. Ализода Фарҳод. “Эътироф”. - Зарафшон” газетаси, 2001 yil, 13 декабр, 3-бет.
8. Ализода Фарҳод. Мўжиза институти. — “Зарафшон” газетаси, 2008, 28 январ.
9. Ализода Фарҳод. “У башар фарзанди эди”. - “Зарафшон” газетаси, 2008. 10 январ, 8-бет.
10. Исмоилов Г. Гулоб (Розовый напиток). - Тошкент: Ёш гвардия, 1982. – 31-34 бетлар.
11. История Самарканда (авторский коллектив) - Ташкент, 1970, т,II с.86.
12. Исмоилов Г. Тонг. Шеърлар (Перед расцветом. Стихи). -“Ленин йўли” газетаси, 1982, 12 октябр.
13. Йўлдошев Бекмурод. “Шарқ маърифатпарварларининг йирик вакили”. “Зарафшон” газетаси, 2008 й, 2 феврал. 3-бет.
14. Muxtorov A. A. Ubaydullayev A. Asrimizning qaynoq nafasi (Дыхание веков). - Toshkent: O'zbekiston. - 8-69 ,betlar.
15. Муқимов М. Тонгга талпиниб (Тянулся к свету). - -“Ленин йўли” газетаси, 1985, 5 май.

16. Мухторов А. Саид Ризо Ализодани эслаб (Вспоминая саид Ризо Ализаде). - “-“Ленин йўли” газетаси, 1977,29 mart.
17. Маҳмудов Ф. Нурга талпиниб. -“Ленин йўли” газетаси, 1987. 18 декабр.
18. Мочатов И., Р.Бобомуродов. “Силней духом”. “Народное слово” газетаси Тошкент, 2003, 29 август, 3 б.
19. Микаилов Шамистон. “Самарқанд донишманди ” — “Зарарфшон газетаси. 2007 й. 25 октябр, 2-бет №129.
20. Микаилов Шамистон. “Самарқанд донишманди ” — “Зарарфшон газетаси. 2007 й. 30 октябр.
- 21.Nosir Takmil Humoyun. Markaziy Osiyoning kurashchan olimi “Tarix va madaniyat”. Tehron. 1993. № 8. 13-47 betlar.
22. От редакции. Маърифатпарвар, олим ва жамоат арбоби jamoat arbobi (Просветител ученики общественный)
- 23.Раҳим Ҳошим. Дар барои адабиёт ва адаиётшуносон (О литературе и литературах). - Душанбе. 1988. 81б.
24. Расулов Р. Катта раҳмат Владимирликларга (Большое спасибо Вам дорогие владимировцы). - “-“Ленин йўли” газетаси, 1977, 2 август.
25. “Саид Ризо Ализода ”. - газета “Самаркандский вестник”, 2005 г. 4 май.
26. Саломов Ф. “Эй метин қалб” (шеър). - -“Ленин йўли” газетаси, 1991, 9 май.
27. Тошев Фармон. “Алломанинг невараси” “Зарафшон” газетаси, 2007 йил 17 ноябр, 3-бет.
28. Тошев Фармон. “Саодат асри” “Зарафшон” газетаси, 2008 йил 11 март.
29. Тошев Фармон. “Мен Фарҳод Ализодаман”. - “Зарафшон” газетаси, 2006 й. 28 декабр, 4-бет. №160-161.
- 30.Umirov Saydi. Sollanib oqayotgan daryo. - Toshkent, 1992. 31 bet. “Fan” nashriyoti.
- 31.Umirov Saydi. Samarqandlik ma’rifatparvar (Просветител из Самарканда). - “Zarafshon” gazetasi, 2008, 19 yanvar, 3-bet.

32. Umirov Saydi. Samarqandlik ma'rifatparvar. - "Zarafshon" gazetasi, 2008, 22.yanvar.
33. Umirov Saydi. Samarqandlik mutafakkir. - "Hurriyat" gazetasi. Toshkent, 2008, 23 yanvar.
34. Xo'jayev Yerkın. Samarali yillar yogdusi. Samarqand. 2001. 110 b.
35. Sharipov Baxtiyor. "Ma'rifatparvarlar sulolasi" "Samarqand" gazetasi. 2007 yil 1 dekabr, 3-bet.
36. G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan odamzod. Toshkent. 1997. "Sharq" nashr-matbaa konserni. 2- kitob.
37. Qodir U. va Alizoda F. "Assalom. ahli zamon!" (Здравствуйте современники).- Samarqand. 2002.
38. "Zarafshon" gazetasi, 2006 yil, 1 iyul, 2-bet.